

N. U. BIKBAYEVA, E. YANGABAYEVA

MATEMATIKA

UMUMIY TA'LIM MAKTABLARINING
3- SINFI UCHUN DARSLIK

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan*

5- nashri



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2005

Taqrizchilar:

- L. O'rinboyeva** – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining matematika o'qituvchisi,
- N. Ahmedova** – RTM boshlang'ich ta'lim metodik sho'basini boshlig'i,
- M. Bositxonova** – Toshkent shahar 324- maktab oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR

1,2,3... — og'zaki bajarish uchun mashqlar

1,2,3... — yozma bajarish uchun mashqlar

— sonlarni tushirib qoldirish



— yozuv to'g'ri bo'lishi uchun qo'yilishi kerak bo'lgan belgilar



— doiraviy misollar

10 31347
3

● — nazariy material


* — mantiqiy topshiriqlar

○ — uyda bajariladigan mashqlar



— bir dars materialini keyingi dars materialidan ajratuvchi belgi

Ushbu darslikdagi pul muomalasiga doir mashqlarda narxlar shartli qabul qilingan.



10

4306020500 – 62

B 353(04) – 2005 Buyurt. var. – 2005

ISBN 5-645-04397-9

© „O'qituvchi“ NMIU, 5- nashri, 2005.

YUZLIK

2- SINFDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH VA UMUMLASHTIRISH

1. 100 gacha to'ldiring:

100	10									
	90	80	70	60	50	40	0	20	10	30

2. Rasm bo'yicha quyidagi amallarni bajarishni talab etadigan masalalar tuzing:

$60 + 40$

$40 + 50$

$60 + 30$

$30 + 40$

$60 - 50$

$60 - 40$

$60 - 30$

$40 - 30$

$50 + 30$

$50 - 40$

$50 - 30$



60 so'm



50 so'm






40 so'm




30 so'm


3. Rasimga qarab masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
 10 kg	 2 kg va  4 kg	?

4. Birinchi kesmaning uzunligi 5 sm, ikkinchi kesma undan 4 sm uzun, uchinchi kesma ikkinchi kesmadan 6 sm qisqa. Uchinchi kesmaning uzunligini toping.
5. Donxo'rakda 14 ta chumchuq va 10 ta kaptar bor edi. Birozdan keyin 20 ta qush uchib ketdi. Donxo'rakda nechta qush qoldi?
6. Har bir ko'pburchakning nomini ayting. To'rtburchaklar nechta?



7. Masalalarni taqqoslang va ularni yeching:
 - 1) Maktab ustaxonasi uchun 15 ta qo'larra va 30 ta randa sotib olindi. Hammasi bo'lib nechta asbob sotib olingan?



- 2) Maktab ustaxonasi uchun 5 ta qo'larra va undan 3 ta kam randa sotib olindi. Hammasi bo'lib nechta asbob sotib olingan?
8. Boqqa 60 tup ko'chat o'tqazildi. Bulardan 20 tupi olma, 30 tupi xurmo, qolganlari esa jiyda. Boqqa necha tup jiyda o'tqazilgan?

Yechish rejasi


- 1) Necha tup olma va xurmo o'tqazilgan?
- 2) Necha tup jiyda o'tqazilgan?


$$9. \quad 20 + 10 + 30 \quad 60 - (10 + 40) \quad 80 - 60 + 10$$

$$70 - 20 - 20 \quad 60 - 10 - 40 \quad 80 - (60 + 10)$$

10*. 30 va 20 sonlarining yig'indisi 50 ga teng. Yig'indi birinchi qo'shiluvchidan nechta ortiq? Ikkinchi qo'shiluvchidan-chi?

11°. Uchinchi qopda necha kilogramm kartoshka bor?



12°. 

$80 - 20$	$90 + 10$	$60 - 50$	$10 + 30$
$50 + 30$	$100 - 50$	$40 + 50$	



13. Uchta molxonada 100 ta sigir bor. Birinchi molxonada 30 ta, ikkinchisida 50 ta sigir bor. Ushbu ifodalarni hisoblab, nimani bilish mumkin: $50 - 30$; $30 + 50$; $100 - (30 + 50)$; $100 - 50$; $100 - 30$.

14. Uch o'quvchi 11 kg makulatura to'plashdi. Birinchi o'quvchi 4 kg, ikkinchisi esa 3 kg makulatura to'pladi. Uchinchi o'quvchi necha kilogramm makulatura to'plagan?

15. $11 - 2 + 3$ $12 - 9 + 8$ $11 - 6 + 25$
 $11 - 4 + 5$ $12 - 5 + 4$ $12 - 6 + 14$

16. O'quvchi ruchka va daftarlardan hammasi bo'lib 12 ta sotib oldi. Daftarlar 9 ta. Ruchkalar daftarlardan nechta kam?

- 17*. Rasmda to'rtburchaklar nechta? To'g'ri to'rtburchaklar-chi? Kvadratlar-chi?



18°.

20 ta kamaytiring				
90	70	30	50	80

30 ta orttiring				
40	50	10	30	70

19°. Jadvalni to'ldiring:

11	3	5	7	9
	8			

12	6	3		5
			4	



Namuna: $11 = 3 + 8$.

20. Oldin ikki xonali sonlarni, keyin bir xonali sonlarni o'qing:

8	23	80	4	20	89	6	100	75
---	----	----	---	----	----	---	-----	----

21. 20 m chit bor edi. 7 m chitdan ko'ylaklar tikildi va yana shuncha chit yostiq jildi tikish uchun olindi. Necha metr chit qoldi?

Yechish rejasi

- 1) Ko'ylaklar tikilganidan keyin necha metr chit qoldi?
- 2) Yostiq jildlari tikilganidan keyin necha metr chit qoldi?

Masalani boshqa usul bilan yeching:


1) $7 + \square = \square$ (m) 2) $20 - \square = \square$ (m)

Masalaning yechilishini tushuntiring.

22. Bir sinfda 30 ta, ikkinchi sinfda ham shuncha o'quvchi bor. Ikkala sinfdagi qiz bolalar 35 ta. Ikkala sinfda nechta o'g'il bola bor?

23. $5 + 3 + 6$ $12 - (19 - 10)$ $14 - (10 - 4)$
 $13 - 4 - 9$ $9 + (13 - 8)$ $14 - 10 - 4$

24*. Rasmda nechta to'g'ri burchak bor?



25°. Do'konda gazlama sotilishiga doir quyidagicha yechiladigan masala tuzing:

1) $5 + 4 = 9$ (m) 2) $13 - 9 = \square$ (m)


26°. Jadvalni to'ldiring:



13	10	8	6	4
	3			

14	9		7	
		8		10

27. Hammasi bo'lib necha kilogramm sabzi bor?



28. Agar $a = 20$ bo'lsa, $a + 30$ yig'indini va $90 - a$ ayirmani hisoblang.

29. $7 + 5 - 9$ $15 - 10 + 6$ $18 - 8 - 8$
 $10 + 4 - 9$ $7 - (12 - 5)$ $14 - (10 - 3)$

30. $\begin{matrix} < \\ > \end{matrix}$ $49 < 50$ 9 o'nl. 8 birl. ... 98
 $\begin{matrix} < \\ = \\ > \end{matrix}$ $90 \dots 88$ 8 o'nl. 4 birl. ... 61

31*. Zokirda uzunligi 8 dm bo'lgan sim bor edi. Zokir uning oxiriga uzunligi 2 sm bo'lgan sim uladi. Hosil bo'lgan simning uzunligi qancha?

32°. Bir to'pda 14 m chit, boshqa to'pda 17 m shoyi bor edi. 9 m shoyi va 7 m chit sotildi. Har bir to'pda necha metr gazlama qoldi?

33°. Jadvalni to'ldiring:

15	6	7	8	9
	9			

16	8		6	
		9		7



34. Har bir misolning qanday yechilishini tushuntiring:

$$37 + 41 = \square \quad 45 + 30 = \square \quad 45 + 3 = \square$$

35. Rasmni va yozuvni ko'rib chiqing va yechimini tushuntiring:

$$\underline{48 - 25 = \square}$$

O'nliklar	Birliklar

$$\begin{aligned} 40 - 20 &= 20 \\ 8 - 5 &= 3 \\ 20 + 3 &= 23 \\ 48 - 25 &= 23 \end{aligned}$$

36. $20 + 55$ $63 + 3$ $18 - (11 - 7)$
 $56 - 23$ $99 - 50$ $17 - (11 - 2)$

37. Kitob 98 betli. Saida 32 bet o'qidi. Saida o'qib bo'lganiga qaraganda yana o'qish uchun nechta ortiq bet qoldi?

Yechish

1) $98 - 32 = \square$ 2) $66 - 32 = \square$

Yechishni tugating va uni tushuntiring.



38. Maktab bog'ida 39 ta o'g'il bola va ulardan 18 ta kam qiz bola ishladi. Maktab bog'ida nechta bola ishlagan?

39. Birinchi kesma ikkinchi kesmadan necha santimetr qisqa? Ikkinchi kesma uchinchi kesmadan necha santimetr qisqa?



40.

17	10		0	
		8		14

18		0		9
	10		15	

41°. $40 + 15$ $90 + 10$ $8 + 50$ $54 + 14$
 $85 - 14$ $96 - 44$ $69 - 18$ $67 - 22$



42°.

Bor edi	Sotildi	Qoldi
96 ta o'yinchoq	55 ta o'yinchoq	?



Qolganiga qaraganda nechta ortiq o'yinchoq sotilgan?

43. Rasmga qarab masalalar tuzing va ularni yeching:



44. Bolalar daladan 45 kg kartoshka, shuncha piyoz, kartoshka bilan piyoz qancha bo'lsa, shundan 20 kg kam sabzi terib olishdi. Bolalar necha kilogramm sabzi terib olishgan?

45. Yechilishini tushuntiring:

$54 + 6 = \square$
$4 + 6 = 10$
$50 + 10 = 60$

$48 + 5 = \square$
$8 + 5 = 13$
$40 + 13 = 53$

$69 + 27 = \square$
$60 + 20 = 80$
$9 + 7 = 16$
$80 + 16 = 96$


46. Mustaqil yeching:

1 - qator		2 - qator	
$99 - 6$	$67 - 20 - 2$	$87 - 6$	$87 - 3 - 30$
$22 + 53$	$79 - (14 + 4)$	$31 + 46$	$56 - (21 + 3)$

47. Yig'indi to'g'ri topilganmi? Tekshirib ko'ring:

$\begin{array}{r} + 65 \\ + 28 \\ \hline 93 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 72 \\ + 27 \\ \hline 99 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 36 \\ + 54 \\ \hline 90 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 74 \\ + 19 \\ \hline 93 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 13 \\ + 77 \\ \hline 90 \end{array}$
--	--	--	--	--

48. Shakllarning perimetrlarini toping:



49*. Birinchi son 16, ikkinchi son 45, uchinchi son shu ikki sonning yig'indisidan 31 ta kam. Uchinchi sonni toping.

50°. Rasmga qarab masala tuzing va yechilishini daftaringizga yozing:



11 kg



?, 7 kg yengil

?

51°. Javobi 50 dan katta bo'lgan misollarni yeching:

$34 + 65$

$89 - 9$

$27 + 41$

$90 - 45$



$45 + 12$

$6 + 73$

$0 + 34$

$30 + 19$

52.

Tekshiring:

Hisoblang:

a	$13 + a$	$58 - a$
5	18	53
40	53	18
0	13	58
52	65	6

a	$a + 42$	$78 - a$
3		
50		
20		
25		

53. Yechilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 30 - 7 = \square \\ \hline 10 - 7 = 3 \\ 20 + 3 = 23 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 61 - 9 = \square \\ \hline \begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ 1 \quad 8 \end{array} \\ \hline 61 - 1 = 60 \\ 60 - 8 = 52 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 72 - 35 = \square \\ \hline 72 - 30 = 42 \\ 42 - 5 = 37 \end{array}$$

54. Masalalar tuzing va ularni yeching:

Bor edi — 35 m

Qirqib olishdi — 8 m
va 5 m

Qoldi — ?

Bor edi — 16 ta va
20 ta

Sotib olishdi — 14 ta

Bo'ldi — ?

55. Ayirma to'g'ri topilganmi? Tekshirib ko'ring:

$$\begin{array}{r} 36 \\ - 18 \\ \hline 18 \end{array} \quad \begin{array}{r} 97 \\ - 52 \\ \hline 45 \end{array} \quad \begin{array}{r} 80 \\ - 47 \\ \hline 33 \end{array} \quad \begin{array}{r} 55 \\ - 36 \\ \hline 19 \end{array} \quad \begin{array}{r} 70 \\ - 25 \\ \hline 45 \end{array}$$

56. Mustaqil yeching:


1 - qator		2 - qator	
$11 - 8$	$98 - 57 - 30$	$12 - 3$	$76 - 40 + 15$
$9 + 7$	$98 - (57 - 30)$	$6 + 9$	$76 - (40 + 15)$

57*. Vohidga onasi 25 va 5 so'mlik ikkita tanga berganidan so'ng uning puli 60 so'm bo'ldi. Dastlab Vohidning o'zida necha so'm bo'lgan?

58°. Sinf kutubxonasiga doir masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Berildi	Qoldi
95 ta kitob	26 ta va 47 ta kitob	?

59°. Ayirmani toping:

 $\begin{array}{r} _ 62 \\ _ 17 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} _ 90 \\ _ 23 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} _ 77 \\ _ 35 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} _ 95 \\ _ 48 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} _ 63 \\ _ 28 \\ \hline \end{array}$

60. 2, 3, 4 va 5 sonlarini ko'paytirish jadvalini o'qing:

•	2	3	4	5	6	7	8	9
2	4	6	8	10	12	14	16	18
3	6	9	12	15	18	21	24	27
4	8	12	16	20	24	28	32	36
5	10	15	20	25	30	35	40	45

61. Ko'paytirish jadvalidan foydalanib, ifodalarning qiymatini hisoblang:

$$2 \cdot 3 + 9$$

$$4 \cdot 8 + 37$$

$$2 \cdot 5 + 4 \cdot 7$$

$$3 \cdot 3 + 47$$

$$4 \cdot 9 - 28$$

$$5 \cdot 9 - 3 \cdot 8$$

$$50 - 5 \cdot 2$$

$$5 \cdot 3 - 7$$

$$4 \cdot 8 - 3 \cdot 9$$

Ikki va undan ortiq amalli misollarning yechilishini bosqichma-bosqich yozish mumkin.

Masalan: $61 - 3 \cdot 6 = 61 - 18 = 43$.

62. Masalalarni yeching:

1) 5 ta alohida uchburchak tuzish uchun nechta cho'p kerak?

2) 3 ta alohida kvadrat va bitta beshburchak tuzish uchun nechta cho'p kerak?

63. a va b ning yig'indisini yozing va uni hisoblang:

a) $a = 46$, $b = 36$; b) $a = 29$, $b = 58$;


d) $a = 77$, $b = 16$; e) $a = 45$, $b = 54$.

64. Rasmga qarab ko'paytirishga doir bitta va bo'lishga doir ikkita misol qanday tuzilganini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 4 \cdot 5 = 20 \\ \hline \end{array}$$

$$20 : 4 = 5$$

$$20 : 5 = 4$$



Ko'paytirishga doir misoldagi sonlarning atali-shini ayting. Ko'paytirishga doir misolni bo'lishga doir misollar bilan taqqoslang. Agar ikki sonning ko'paytmasini ko'paytuvchilardan biriga bo'lsak, nimaga ega bo'lamiz?

65. Katta xonada har birida 5 tadan lampochka bo'lgan 3 ta qandil yoqildi. Agar 3 ta lampochka kuygan bo'lsa, nechitasi yonib turibdi?

Yechish: 1) $5 \cdot 3 = 15$ (lampochka)


2) $15 - 3 = 12$ (lampochka)

Javob: 12 ta lampochka.

Har qaysi amalni bajarib, nimani bildingiz?

66°. Javobi 24, 16 yoki 32 ga teng bo'lgan misollarni toping (bunday misollar 7 ta):

$$\begin{array}{cccc} 5 \cdot 9 - 21 & 60 - 4 \cdot 7 & 100 - 5 \cdot 8 & 4 \cdot 4 \\ 61 - 49 & 3 \cdot 9 + 5 & 3 \cdot 6 + 6 & 4 \cdot 8 \\ 52 - 36 & 2 \cdot 8 - 9 & 4 \cdot 5 + 49 & 3 \cdot 7 \end{array}$$

67°. 4 ta vazaga 5 tadan olma va taqsimchaga 8 ta olma solindi.  Idishlarga hammasi bo'lib nechta olma solingan?

68. Tikuv ustaxonasida 86 m mato bor edi. 76 m mato-dan choyshab, qolganidan 5 ta bir xil qo'l sochiq tikildi. Har bir sochiqqa necha metr mato ketgan?

Yechish

$$1) 86 - 76 = 10 \text{ (m)} \qquad 2) 10 : 5 = 2 \text{ (m)}$$

Har bir amalni bajarib, nimani bilib oldingiz?

69. 2 ga, 3 ga, 4 ga va 5 ga bo'lish jadvalini o'qing va javobini ayting:

4	6	8	10	12	14	16	18	: 2
6	9	12	15	18	21	24	27	: 3
8	12	16	20	24	28	32	36	: 4
10	15	20	25	30	35	40	45	: 5
2	3	4	5	6	7	8	9	

70. Bo'lish jadvalidan foydalanib, ifodalarning qiymati-ni hisoblang:


$$\begin{array}{ccc} 38 - 16 : 4 & 57 - 14 : 2 & 64 + 20 : 4 \\ 96 - 18 : 9 & 60 - 20 : 5 & 75 - 12 : 4 \end{array}$$

71. Savatda 38 ta apelsin bor edi. 20 ta apelsindan sharbat tayyorlandi, qolgan apelsinlar 3 ta bolaga bo'lib berildi. Har bir bola nechta apelsin olgan?

(Alohida amallar bilan yeching.)

72. $\begin{matrix} < \\ = \\ > \end{matrix}$ $49 : 7 > 6$ $63 : 9 \dots 8$ $8 \cdot 9 \dots 70$
 $3 \cdot 9 \dots 30$ $32 : 8 \dots 6$ $8 \cdot 3 \dots 30$


73. Rasmdagi geometrik shakllarning nomlarini ayting:



7 ta uchi bo'lgan ko'pburchak qanday ataladi? 6 ta tomoni bo'lgan ko'pburchak-chi?

74°. 100 kg kungaboqar urug'idan 46 kg kungaboqar yog'i, 100 kg paxta chigitidan 28 kg paxta yog'i olingdi. Qancha kam paxta yog'i olingan?

75°. $24 : 3 + 9$ $45 - 45 : 5$ $(18 + 18) : 6$

 $60 - 30 : 5$ $27 - 27 : 3$ $65 + 28 : 4$

76. Bir qo'ydan 6 kg, boshqa ikki qo'yning har biridan 5 kg dan jun qirqib olindi. Uchta qo'ydan necha kilogramm jun qirqib olingan?

77. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'ying:

$\square \cdot 3 = 27$ | $\square : 4 = 7$ | $\square : 5 = 5$ | $\square : 2 = 9$
 $25 + \square = 35$ | $70 - \square = 26$ | $\square - 12 = 25$ | $\square + 17 = 47$

78. 6, 7, 8, 9 sonlarini ko'paytirish jadvalini o'qing:

•	2	3	4	5	6	7	8	9
6	12	18	24	30	36	42	48	54
7	14	21	28	35	42	49	56	63
8	16	24	32	40	48	56	64	72
9	18	27	36	45	54	63	72	81

79. Jadvaldan foydalanib, ifodalarning qiymatini hisoblang:

$$8 \cdot 3 + 46$$

$$7 \cdot 9 - 54$$

$$7 \cdot (34 - 25)$$


$$(43 - 38) \cdot 6$$

$$(81 - 78) \cdot 6$$

$$6 \cdot (100 - 93)$$

80. Bir bidonda 6 l, ikkinchi bidonda undan 5 marta ortiq sut bor. Ikkala bidonda necha litr sut bor?

81. Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching:




82. Radiusi 3 sm ga teng bo'lgan aylana chizing. Ayladan tashqarida uzunligi 4 sm bo'lgan kesma chizing.

83*. 1) Ketma-ket keladigan ikkita ixtiyoriy sonni ayting.
2) 82 sonidan keyin keladigan ikki sonning kattasini ayting. Bu sonlarning kichigini ayting.

84°. 9 ta bola 4 piyoladan shotut terishdi. 28 piyola shotutni murabboga olib qo'yishdi, qolganini yeyishdi. Bolalar necha piyola shotut yeyishgan?

85°. $54 - 28 : 4$ $24 + 25 : 5$ $53 + 6 \cdot 3$

 $59 - 9 \cdot 4$ $38 - 16 : 2$ $73 - 8 \cdot 7$

86. 6 ga, 7 ga, 8 ga, 9 ga bo'lish jadvalini o'qing va javobini ayting:

12	18	24	30	36	42	48	54	: 6
14	21	28	35	42	49	56	63	: 7
16	24	32	40	48	56	64	72	: 8
18	27	36	45	54	63	72	81	: 9
2	3	4	5	6	7	8	9	

87. Jadval bo'yicha ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping:

Kamayuvchi	$7 \cdot 8$	$72 : 9$	100	99
Ayiriluvchi	$49 : 7$	$48 : 8$	$93 - 74$	$56 : 8$

Namuna: $7 \cdot 8 - 49 : 7 = 56 - 7 = 49$.

88. Chelakchada 54 ta, taqsimchada 9 ta yong'oq bor edi. Yettita bola yong'oqlarni baravardan bo'lib olishdi. Har bir bola nechtadan yong'oq olgan?

Yechish

1) $54 + 9 = 63$ (yong'oq.)

2) $63 : 7 = 9$ (yong'oq.)

Har bir amalni bajarib, nimani bilganingizni tushuntiring.



89. To'pda 32 m chit bor edi. 8 m chitdan xalat, qolganidan 8 ta bir xil ko'ylak tikildi. Har bir ko'ylakka necha metr chit ketgan?

90. $81 : 9 + 0$ $4 \cdot 8 - 27$ $9 \cdot 8 - 6 \cdot 9$
 $60 - 24 : 6$ $9 \cdot 6 - 39$ $72 : 8 + 9 \cdot 3$

91*. 1) O'quvchi ketma-ket keladigan ikki sonni qo'shdi. Ularning kattasi 46. Bu sonlarning yig'indisini toping.
2) O'quvchi ketma-ket keladigan ikki sonni qo'shdi. Ularning kichigi 29. Bu sonlarning yig'indisini toping.

92°. $54 : 6 - 48 : 6$ $63 - 21 : 7$ $100 - 56 : 8$
 $12 : 6 + 18 : 6$ $(90 - 34) : 7$ $32 : 8 : 2$

93°. Avtobusdan 40 yo'lovchi tushdi, unda tushganiga qaraganda 8 marta kam yo'lovchi qoldi. Dastlab avtobusda nechta yo'lovchi bo'lgan?



94. 1) Yelim tayyorlash uchun 3 piyola kraxmal va 27 piyola suv olindi. Suvga qaraganda necha marta kam kraxmal olingan?
2) Teskari masala tuzing, unda 27 sonini topish kerak bo'lsin.

95. Qovoqning massasi 10 kg, qovunning massasi undan 8 kg kam. Qovoqning massasi qovunning massasidan necha marta ortiq?

96. 28 kg qandlavlagidan 7 kg shakar olindi. 9 kg shakar olish uchun qancha lavlagi kerak?

97. 7 ta bola 35 ta yong'oqni baravardan bo'lib olishdi. 2 ta bola nechta yong'oq olgan?

98. Tenglik va tengsizliklarni tekshiring:

$$7 \cdot 4 = 4 \cdot 7$$

$$6 \cdot 8 > 6 \cdot 7$$

$$2 \cdot 9 = 9 \cdot 2$$

$$63 : 9 < 63 : 7$$

99°. Ona 30 yoshda, qizi 6 yoshda. Ona qizidan necha marta katta? Qizi onasidan necha yosh kichik?

100°. Kompyuterda 4 soatda 16 bet matn terildi. 6 soatda necha bet matn teriladi?



Qo'shimcha mashqlar

1. Hisoblashlarni bajaring:

$$\begin{array}{lll} 1) & 51 - 6 \cdot 4 & 28 + 6 \cdot 2 & (17 + 19) : 6 \\ & 63 - 5 \cdot 7 & 36 + 3 \cdot 6 & (100 - 44) : 7 \\ 2) & 24 : 6 \cdot 9 & 81 : 9 \cdot 8 & 10 : 10 \cdot 8 \\ & 45 : 5 \cdot 3 & 64 : 8 \cdot 7 & 10 \cdot 2 : 5 \\ 3) & 29 + 42 : 7 \cdot 3 & 90 - 8 \cdot 8 + 49 \\ & 73 + 54 : 9 \cdot 3 & 86 - 9 \cdot 9 + 73 \\ & 34 + 81 : 9 \cdot 7 & 100 - 27 + 72 : 8 \\ & 90 - 49 : 7 \cdot 4 & 96 - 36 + 8 \cdot 4 \end{array}$$

2. Tenglamalarni yeching:

$$\begin{array}{lll} x \cdot 4 = 36 & 7 \cdot x = 56 & a \cdot 9 = 9 \\ a : 8 = 8 & 8 : b = 1 & x : 5 = 1 \end{array}$$

3. Shunday sonlar tanlab olingki, tengliklar va tengsizliklar to'g'ri bo'lsin:

$$\begin{array}{ll} 7 \cdot 9 - 7 = 7 \cdot \square & 6 \cdot 8 + 6 < 6 \cdot \square \\ 45 - 17 > 45 - \square & 46 + 19 < \square + 19 \\ 64 : 8 > 64 : \square & 24 : 3 < 24 : \square \\ 36 : 6 < \square : 6 & 63 : 7 > \square : 7 \end{array}$$

4. Uy qurilishida 30 erkak va ulardan 3 marta kam ayol ishladi. Uy qurilishida hammasi bo'lib necha kishi ishlagan?

5. Bo'sh savat 2 kg. Unga 16 kg bodring solindi. Bodring solingan savat bo'sh savatdan necha marta og'ir?

6. Metri 10 soʻmdan 3 m jun lenta, metri 8 soʻmdan 4 m tasma olindi. Shu narsalarga necha soʻm toʻlangan?
7. 5 ta bir xil yashikka 30 kg pecheniy joylandi. 54 kg pecheniyni joylash uchun shunday yashikdan nechta kerak?
8. 28 kg asal 7 bankaga teng qilib quyildi. Shu bankalardan 5 tasida necha kilogramm asal bor?
9. Bolalar choyshabiga 2 m surp, koʻrpa jildiga undan 2 marta ortiq surp ketadi. 8 ta shunday koʻrpa jildiga qancha surp ketadi?
10. Chelakka 8 l sut, xurmachaga esa undan 4 marta kam sut ketadi. 10 l sutni quyish uchun nechta xurmacha kerak?



8 l



?, 4 marta kam

11. Katakli qogʻozga tomoni 3 sm boʻlgan kvadrat chizing. Bu kvadratning perimetrini toping.
12. Yopilmagan siniq chiziq chizing, u toʻrtta kesmadan tuzilgan boʻlsin. Uning uzunligini toping.
13. „Koʻpaytirish“ va „boʻlish“ amallari ishoralarini hamda tushirib qoldirilgan sonni shunday qoʻyingki, yozuv toʻgʻri boʻlsin:

$$36 : 4 \dots \square = 18$$

$$2 \cdot 4 \dots \square = 64$$

14. 1) Boʻlinuvchi boʻluvchidan 2 marta katta boʻlgan ikkita misol tuzing va yeching.
- 2) Ushbu ifodalardan bitta tenglik va bitta tengsizlik tuzing va yozing:

$$32 : 8$$


$$16 : 8$$

$$56 : 7$$


MINGLIK

UCH XONALI SONLARNI RAQAMLASH


1) O'nlikda necha birlik bor?



2) Yuzlikda necha o'nlik bor?



3) Yuzliklarni sanang:



1 yuzlik — yuz

2 yuzlik — ikki yuz

3 yuzlik — uch yuz

4 yuzlik — to'rt yuz

5 yuzlik — besh yuz

6 yuzlik — olti yuz

7 yuzlik — yetti yuz

8 yuzlik — sakkiz yuz

9 yuzlik — to'qqiz yuz

10 yuzlik — bir ming

101. $\begin{matrix} < \\ = \\ > \end{matrix}$ 9 yuzlik ... 7 yuzlik
10 yuzlik ... 1 ming
1 yuzlik ... 8 o'nlik


1 so'm ... 90 tiyin
7 m ... 8 dm
6 m 3 dm ... 4 m 5 dm

102. 1) Sut sog'uvchi ayol 100 l sut sog'di. 36 l sutni u buzoqlarga berdi, qolgan sutni esa 8 ta bidonga baravardan quydi. Sog'uvchi 1 ta bidonga necha litr sut quygan?

2) $(100 - 73) : 9$ ifoda bo'yicha oldingi masalaga o'xshash masala tuzing.

103. $4 \cdot 9$ $32 : 4 \cdot 5$ $9 \cdot 2 + 9 \cdot 4$ $42 + 2 \cdot 9$
 $6 \cdot 7$ $40 : 8 \cdot 7$ $42 : 6 + 54 : 9$ $85 - 72 : 8$

104. Berilgan shakllar orasidan to'g'ri to'rtburchaklarni toping va ularning tartib raqamlarini yozib oling:




105°. $72 : (17 - 9)$ $7 \cdot 7 + 5 \cdot 2$
 $(36 + 18) : 6$ $6 \cdot 4 + 6 \cdot 7$

106°. Tomonlari 7 sm va 4 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing.



Har qaysi rasmda nechtadan cho'p tasvirlangan?




107. Quyidagilardan iborat sonlarni ayting:

6 o'nlik va 5 birlik; 6 yuzlik va 5 birlik; 4 yuzlik
 4 o'nlik va 8 birlik; 7 yuzlik va 5 o'nlik; 9 yuzlik va
 3 birlik.

108. Besh yuz sonidan 1 ta ortiq; uch yuz sonidan 1 ta kam sonni ayting.

109. Ikki yuz to'qson yetti; yetti yuz o'n olti sonidan boshlab tartib bilan 6 ta sonni ayting.
110. 1) 300 dan 1000 gacha 100 tadan qo'shib sanang.
 2) 400 dan 260 gacha 10 tadan ayirib sanang.
 3) 497 dan 504 gacha, 678 dan 705 gacha, 989 dan 1000 gacha 1 tadan qo'shib sanang.
 4) 803 dan 798 gacha, 402 dan 390 gacha, 1000 dan 978 gacha 1 tadan ayirib sanang.
111. 18 l sut 6 ta bankaga sig'adi. 4 ta shunday bankaga necha litr sut sig'adi?

112.



Rasm bo'yicha masala tuzing. Masalani yeching.

- 1) Bitta koptok qancha turadi?
- 2) Portfel va ikkita koptok qancha turadi?
- 3) O'sha pulga 2 ta portfel sotib olish mumkinmi?

113. $53 - (13 + 8)$ $(100 - 85) : 3$ $18 : 2 \cdot 7$
 $(35 + 18) - 4$ $8 \cdot (13 - 6)$ $4 \cdot 6 : 8$
 $(11 - 9) \cdot 5$ $6 \cdot (12 - 8)$ $16 : 8 \cdot 7$

114°. $(16 + 5) : 7$ $75 - 32 : 8$ $8 \cdot 3 + 6 \cdot 4$
 $(60 - 18) : 6$ $60 - 28 : 7$ $9 \cdot 5 + 2 \cdot 6$
 $(80 - 45) : 7$ $41 - 63 : 9$ $3 \cdot 7 + 4 \cdot 8$


- 115°. Yashikda 25 kg kartoshka bor edi. Bir haftadan keyin yashikda 16 kg kartoshka qoldi. Bir haftada qancha kartoshka ishlatilgan?





Abakda bir yuz yigirma to'rt soni belgilangan. Bu sonning yozilishidagi 4 raqami nimani bildiradi? 2 raqami-chi? 1 raqami-chi? O'ngdan chapga hisoblaganda birliklar qaysi o'ringa yoziladi. O'nliklar-chi? Yuzliklar-chi?

116. Abakda quyidagilardan iborat sonni belgilang: 4 yuzl. 2 o'nl. 5 birl.; 6 yuzl. 3 o'nl.; 73 o'nl.
117. Bu shakllar nima deb ataladi? Ular orasidan to'g'ri to'rtburchaklarni toping:



118. Kitob 45 so'm turadi, 4 ta bir xil albom 36 so'm turadi. Kitob bitta albomdan necha so'm qimmat turadi?

119. Ota uzunligi 17 dm bo'lgan taxtadan ikki marta 8 dm dan qirqib oldi. Taxtaning qolgan qismi uzunligini toping.


120. Hilola ikkita ukasiga 4 tadan konfet berdi, shundan keyin unda 3 ta konfet qoldi. Dastlab Hilolaning nechta konfeti bo'lgan?

121. $64 - 8 \cdot 2$ $18 - 16 : 2$ $36 : 4 - 2$
 $75 + 32 : 4$ $20 + 4 \cdot 6$ $18 : 2 + 4$



122. 1) Ifodani yozing: 72 sonidan 24 va 3 sonlarining bo'linmasini ayirish.

2) Yuqoridagi ifodada kamayuvchining tagiga bir chiziq, ayiriluvchining tagiga ikki chiziq chizing.

123°. Uch xaridorga 9 m dan gazlama sotilganidan keyin to'pda 48 m gazlama qoldi. Dastlab to'pda necha metr gazlama bo'lgan?

124°. $80 - 7 \cdot 5$ $4 \cdot 9 - 29$ $8 \cdot 4 - 2$
 $36 + 4 \cdot 6$ $45 - 3 \cdot 7$ $70 - 32 : 4$

1) Har qaysi satrdagi cho'plar soni jadvalga yozilgan. Shu sonlarni o'qing:

	Yuzlik	O'nlik	Birlik
	2	3	5
	3	4	0
	4	0	6

2) 235, 340, 406 sonlarining yozilishida har qaysi raqam nimani bildiradi?

125. Sonlarni abakda belgilang va o'qing:

6 yuzlik 4 o'nlik 2 birlik; 3 yuzlik 3 o'nlik 5 birlik;
7 yuzlik 0 o'nlik 0 birlik; 2 yuzlik 0 o'nlik 7 birlik.

126. $\left(\begin{array}{l} < \\ = \\ > \end{array} \right)$ 3 m 8 dm ... 3 m 6 dm
7 so'm 05 tiyin ... 75 tiyin
6 sm 3 mm ... 63 mm

127. Kesmani o'lchang. Bu kesmaning uchdan bir qismi necha santimetr ekanini toping:

128. 1) Sinfdagi 9 o'quvchi qiz o'quvchilarning uchdan bir qismini tashkil qiladi. Sinfda qancha o'quvchi bor?

2) 36 kishidan iborat guruhning to'rtidan bir qismida qancha kishi bo'ladi?

129. Do'konga 100 ta velosiped olib kelindi. 6 kunda har kuni 9 tadan velosiped sotildi. Sotish uchun qancha velosiped qoldi?

130. $36 : 4 + 21 : 3$ $80 - 6 \cdot 4$ $38 + 14 - 4 \cdot 7$
 $27 : 3 - 24 : 6$ $38 + 32 : 4$ $75 + 18 - 6 \cdot 6$


131°. $(64 + 8) : 9$ $27 : 3 + 6 \cdot 6$ $7 \cdot 7 - 6 \cdot 5$
 $(58 - 40) : 3$ $4 \cdot 7 - 25 : 5$ $8 \cdot 5 + 3 \cdot 8$

132°. Rasm va jadval bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Bahosi	Miqdori	Qiymati
Bir xil ?	5 ta	45 so'm
?	2 ta	?



1)



Cho'tlarda tasvirlangan sonlarni ayting va yozing:

2) Quyidagilardan iborat sonni ayting va yozing: 8 yuzlik 3 o'nlik 7 birlik; 4 yuzlik 5 o'nlik; 6 yuzlik 9 birlik.

3) Ushbu sonlarni o'qing: 276, 507, 800. Ulardagi har qaysi raqam nimani bildiradi? Har qaysi sonni yozish uchun nechta raqamdan foydalanilgan?

100 dan 999 gacha bo'lgan sonlar — **uch xonali** sonlardir.

133. Bir satrga ikki xonali, ikkinchi satrga esa uch xonali sonlarni ko'chirib yozing: 200, 99, 777, 20, 305, 35, 824, 24, 905.

134. Har qaysi qatordagi „ortiqcha“ sonni ayting:

- 1) 17, 38, 96, 8, 47, 83;
- 2) 284, 600, 503, 24, 721;
- 3) 57, 400, 31, 68, 12, 80;
- 4) 841, 940, 0, 272, 409, 700.

135. Birinchi son 35, ikkinchi son birinchi sondan 8 ta kam, uchinchi son ikkinchi sondan 3 marta kam. Ushbu ifodalar nimani bildirishini tushuntiring:

$$35 - 8, \quad 35 + (35 - 8), \quad (35 - 8) : 3$$

136.



320 so'm



420 so'm


Piyola necha so'm turadi?
 Choynak necha so'm turadi?

137. Birinchi yashikda 28 kg, ikkinchi yashikda 20 kg mix bor. Hamma mixni 4 kg dan qilib xaltalarga solindi. Necha xalta kerak bo'lgan? Masalani ikki usul bilan yeching.

1- usul
 $(\square + \square) : \square$

2- usul
 $\square : \square + \square : \square$

138. Rasmda qanday tanish shakllarni ko'ryapsiz? Uchi B nuqtada bo'lgan hamma uchburchaklarni va hamma to'rtburchaklarni yozing:



139°. Maktab tajriba maydoniga 9 kg no'xat ekildi va kuzda undan 27 kg ortiq no'xat yig'ib olindi. Yig'ib olinganiga qaraganda necha marta kam no'xat ekilgan?

$$140^\circ. 72 : 8 + 9 \cdot 3 \quad 40 - 36 : 6 : 2 \quad (55 + 9) : 8$$

$$\text{🔔} \quad 42 - 42 : 6 \quad 55 + 81 : 9 \cdot 3 \quad 68 - (81 - 17)$$

141. 1) Sanoqda 199 sonidan keyin qaysi son keladi? 999 sonidan keyin-chi?

2) Sanoqda 790 sonidan oldin qaysi son keladi? 1000 sonidan oldin-chi?

$$142. 499 + 1 \quad 4 \text{ o'nlik} + 6 \text{ o'nlik} \quad 180 + 1$$

$$800 - 1 \quad 5 \text{ yuzlik} + 5 \text{ yuzlik} \quad 191 - 1$$

143. Bolada 20 ta cho'p bor edi. Bir nechta alohida uch-burchaklarni tuzganidan keyin unda 11 ta cho'p qoldi. Bola nechta uchburchak tuzgan?

144. Maktab oshxonasida 38 ta pichoq, 60 ta sanchqi, pichoqlar bilan sanchqilar birgalikda nechta bo'lsa, shuncha qoshiq bor. Oshxonada nechta qoshiq bor?

145. a ning $a \cdot 4 > 19$ tengsizlik to'g'ri bo'ladigan ikkita qiymatini toping.

146. Do'konga bir qancha soat olib kelindi. Kun oxiriga kelib 36 ta soat qoldi, qolganiga qaraganda 4 marta kam sotildi. Do'konga nechta soat olib kelingan?

147°. Tajriba maydoniga 3 kg makkajo'xori ekildi va kuzda undan 9 marta ortiq makkajo'xori hosili yig'ib olindi. Ekilganiga qaraganda necha kilogramm ortiq makkajo'xori yig'ib olingan?

Masalani sxemadan foydalanib, amallar bo'yicha yeching:

$$1) \square \cdot \square = \square$$

$$2) \square - \square = \square$$


$$148^\circ. 75 + 16 - 7 \cdot 3 \quad 90 - 3 \cdot 9 + 18$$

$$\text{🔔} \quad 48 - 24 + 4 \cdot 8 \quad 70 + 21 - 40 : 5$$

149. Sanoqda bu sonlarning har biridan oldin keladigan va keyin keladigan sonlarni ayting: 80, 200, 225, 140, 179.

150. $135 + 1$ $161 - 1$ $179 + 1$ $190 + 1$
 $150 - 1$ $160 - 1$ $180 + 1$ $170 + 1$

151. 1) Har qaysi rasmda nechta cho‘p bor?



2) Har bir qatordagi cho‘plar soni jadvalga yozildi. Bu sonlarni o‘qing:

Yuzliklar	O‘nliklar	Birliklar
2	4	5
4	2	0
4	0	2

152. 30 kg xurmoni 5 ta yashikka baravardan qilib solindi. 54 kg xurmoni solish uchun nechta shunday yashik kerak?

5 ta yashik — 30 kg
? — 54 kg

Masalaning qisqa yozuvini ko‘rib chiqing va uni berilgan reja asosida yeching.

Yechish rejasi

- 1) Bitta yashikka necha kilogramm xurmo solingan?
 2) 54 kg xurmoni solish uchun nechta shunday yashik kerak? *Javob*: 9 ta.

153. $\begin{matrix} < \\ = \\ > \end{matrix}$ $399 < 400$ $907 \dots 970$ $600 \dots 599$
 $576 \dots 572$ $490 \dots 409$ $248 \dots 842$

154. $6 \cdot 3 + 17$ $80 - 16 : 4$ $73 - 27 : 9$
 $56 - 40 : 5$ $17 + 3 \cdot 8$ $16 : 2 + 27$

155.° Oshxonada 100 kg un bor edi. Hafta mobaynida har kuni 9 kg dan un ishlatildi. Oshxonada necha kilogramm un qoldi?

156.° $100 - 5 \cdot 5$ $5 \cdot 8 - 4 \cdot 7$ $(45 - 27) : 9$
 $10 + 8 \cdot 8$ $9 \cdot 4 + 8 \cdot 6$ $8 \cdot (13 - 6)$
 $72 + 36 : 9$ $24 - 2 \cdot 9$ $24 : 4 + 48$



$200 + 30 + 4 = 234$	$300 + 20 = \square$	$300 + 2 = \square$
$300 + 40 + 5 = \square$	$700 + 60 = \square$	$800 + 5 = \square$


157. Namunaga qarab, sonlarni yig'indi bilan almashtiring:

$246 = 200 + 40 + 6$	$460 = \dots$	$728 = \dots$
$507 = 500 + 7$	$406 = \dots$	$782 = \dots$

158. 3, 0, 5 raqamlaridan foydalanib, bir nechta uch xonali son tuzing va yozing.

159. Avtomat-dastgoh 4 minutda 24 ta guldon tayyorlaydi. Bu dastgoh 9 minutda nechta guldon tayyorlaydi?


160. 30 soʻmga 5 ta sanoq choʻpi sotib olindi. 18 soʻmga nechta shunday sanoq choʻpi sotib olish mumkin?
161. Agar $b = 42$ boʻlsa, $b + 12$, $b : 7$ ifodalarning qiymatlarini toping.
162. $6 \cdot 8 - 34$ $38 - 4 \cdot 9$ $90 - 42 : 6$
 $7 \cdot 4 + 46$ $72 + 3 \cdot 5$ $70 - 54 : 6$
- 163°. Rasmni koʻrib chiqing, masala tuzing va uni yeching.



- 164°. $8 \cdot 3 + 47$ $18 + 4 \cdot 7$ $100 - 36 : 6$
 $6 \cdot 8 - 26$ $34 - 45 : 5$ $75 + 32 : 4$



1) Bunda choʻplar nechta? 1000 soni bunday yoziladi:



			1000		

- 2) Bitta yuzlikda nechta oʻnlik bor? 2 yuzlikda-chi?
 5 yuzlikda-chi?
- 3) 1 yuzlikda nechta birlik bor? 2 yuzlikda-chi?
 5 yuzlikda-chi?

4)

	Yuzlik	Oʻnlik	Birlik
	2	1	4

214 sonida hammasi bo'lib nechta yuzlik bor?
 Hammasi bo'lib nechta o'nlik bor? Hammasi bo'lib nechta birlik bor?

1 yuzlik = 10 o'nlik = 100 birlik
 10 yuzlik = 100 o'nlik = 1000 birlik

165. 1) Jadvalni ko'rib chiqing:

80 = 8 o'nlik	80 sonida hammasi bo'lib 8 ta o'nlik bor
300 = 30 o'nlik	300 sonida hammasi bo'lib 30 ta o'nlik bor
370 = 37 o'nlik	370 sonida hammasi bo'lib 37 ta o'nlik bor

2) 500, 590, 860 sonlarining har birida hammasi bo'lib nechta o'nlik bor?

166. 1) Har bir sonda hammasi bo'lib nechta yuzlik, hammasi bo'lib nechta o'nlik, hammasi bo'lib nechta birlik borligini o'qing:

Son	Hammasi		
	yuzliklar	o'nliklar	birliklar
600	6	60	600
820	8	82	820
457	4	45	457

2) 900, 350, 872 sonlarining har birida hammasi bo'lib nechta yuzlik, nechta o'nlik, nechta birlik bor?

$$\begin{array}{lll}
 167. & 100 + 30 & 300 + 4 & 500 + 60 - 1 \\
 & 130 - 30 & 304 - 4 & 850 - 50 + 1 \\
 & 130 - 100 & 304 - 300 & 700 + 40 + 6
 \end{array}$$


168. 6 ta bir xil ko'ylakka 12 m gazlama ketdi. 18 m gazlamadan nechta shunday ko'ylak tikish mumkin?

Yechish

$$1) 12 : 6 = \square \quad 2) 18 : 2 = \square$$

Birinchi amalni bajarib nimani bilish mumkin?

Ikkinchi amalni bajarib-chi?



169. Traktor 6 soatda 42 l yonilg'i sarflaydi. 56 l yonilg'i nechta soatga yetadi?

170°. $\begin{matrix} < \\ = \\ > \end{matrix}$

$$\begin{array}{lll}
 63 : 7 < 11 & 16 : 4 + 5 \dots 6 & 45 : 5 \dots 7 \\
 72 : 9 \dots 7 & 7 \cdot 8 - 29 \dots 30 & 28 : 7 \dots 6
 \end{array}$$

171°. Bolalar bog'chasiga nok olib kelindi. 5 kun mobaynida har kuni bolalarga 9 kg dan nok berildi. 29 kg nok qoldi. Necha kilogramm nok olib kelingan?



172. Har qaysi ustundagi sonlarni o'qing, bu sonlardan har birining yozuvida uchraydigan raqamlarni ayting va bu raqamlar nimani bildirishini tushuntiring:

126	47	895	451
904	560	37	700
378	703	109	514

173. 1) 900, 257, 389, 740, 500, 819 sonlarining har birida nechta yuzlik bor?

2) Bu sonlarning har birida nechta o'nlik bor? Necha birlik bor?

174. Shunday sonlarni yozingki ularda:

4 ta yuzlik, 2 ta o'nlik, 7 ta birlik; 9 ta o'nlik, 3 ta birlik; 5 ta yuzlik; 8 ta yuzlik, 1 ta birlik bo'lsin.

175. $3 \cdot 8 + 76$ $3 \cdot 4 + 2 \cdot 9$ $75 - 6 \cdot 6 + 18$
 $7 \cdot 7 + 51$ $18 : 6 + 24 : 3$ $64 - 4 \cdot 5 + 37$

176. Valining 98 so'm puli bor edi. U har biri 9 so'mdan 2 ta qalam va qolgan puliga 8 ta bir xil daftar oldi. Har bir daftar necha so'm turadi?

177. Rasmlarni qarab chiqing va taqqoslang:



178°. Uchburchakning perimetri 12 sm. Uning bir tomonining uzunligi 5 sm ga, ikkinchi tomonining uzunligi 3 sm ga teng. Uchburchakning uchinchi tomoni uzunligini toping.

179°. $48 : 6 \cdot 5 - 16$ $42 : 6 \cdot 8 + 37$

 $32 : 8 \cdot 9 + 18$ $40 : 8 \cdot 7 - 19$

180. 603, 840, 907, 500 sonlari yozuvlaridagi 0 raqami nimani bildiradi?

181.

a	1	2	3	4	5	6	7
$a + 35$							

Jadvaldan foydalanib, a ning $a + 35 > 39$ tengsizlik to'g'ri bo'ladigan qiymatlarini ko'rsating.

182. 30 m uzunlikdagi arqon ikki bo'lakka bo'lindi. Birinchi bo'lakning uzunligi butun arqonning beshdan bir qismini tashkil etdi. Ikkinchi bo'lakning uzunligi qancha?

183. Do'konda bir kunda 200 kg shakar sotildi. Shundan keyin do'konda sotilganidan 100 kg ortiq shakar qoldi. Dastlab do'konda necha kilogramm shakar bo'lgan?

184. Ifodalarni yozing va qiymatlarini hisoblang:

1) Birinchi qo'shiluvchi 29, ikkinchisi 42 bilan 7 ning bo'linmasidan iborat.

2) Bo'linuvchi 54, bo'luvchi 40 bilan 31 ning ayirmasidan iborat.

185. $72 - 6 \cdot 9$ $60 - 7 \cdot 7 + 39$ $63 : 9 + 7 \cdot 8$

$54 : 6 + 78$ $70 - 8 \cdot 8 + 49$ $9 \cdot 8 - 56 : 7$

186°. Maktab bog'ida 9 tup behi, undan 3 marta ko'p o'rik daraxti bor. Maktab bog'ida birgalikda necha tup behi va o'rik bor?

187°. $7 \cdot 7 - 7$ $56 : 8 \cdot 7$ $7 \cdot 1 + 39$

$7 \cdot 8 - 7$ $49 : 7 \cdot 9$ $1 \cdot 7 + 43$




UZUNLIK O'LCHOVLARI

Kilometr

$$1 \text{ km} = 1000 \text{ m}$$


Katta masofalar **kilometrlar** bilan o'lchanadi. „Kilo“ so'zi lotincha bo'lib, o'zbekcha „ming“ni bildiradi. 1 kilometrda 1000 m bor. Sonlar yoniga kilometr so'zi qisqacha km deb yoziladi. Masalan: 5 km, 200 km, 250 km.

- 188.** Maktabingiz oldidan o'tgan ko'cha chetiga bitta qoziq qoqing va undan boshlab ko'cha bo'ylab 1000 m ni ruletka yordamida o'lchang va ikkinchi qoziqni qoqing. 1 km ni qancha vaqtda o'tishingizni soatga qarab bilib oling.
- 189.** Katta yoshdagi odam qadamining uzunligi 1 m ga yaqin. U 1 km masofada taxminan necha qadam qo'yadi?
- 190.** 1 soatda piyoda 4 km, velosipedda 16 km, avtomobilda 80 km yurish mumkin.
Bu ma'lumotlardan foydalanib, $16 - 4$, $80 - 4$, $80 - 16$ ifodalar nimani bildirishini tushuntiring.
- 191.** Rasmga qarab masala tuzing va uni yeching:



- 192.** 12 m gazlamadan 6 ta bir xil bolalar kurtkasi tikildi. 10 m gazlamadan nechta shunday kurtka tikish mumkin? 7 ta shunday kurtka uchun shu gazlamadan qancha kerak bo'ladi?
- 193.**
- | | | |
|----------------|----------------|-------------|
| $400 + 50 - 1$ | $764 - 4 - 1$ | $600 + 21$ |
| $550 - 50 + 1$ | $300 + 99 + 1$ | $287 - 200$ |
| $330 - 30 + 1$ | $673 - 3 + 7$ | $800 + 42$ |
- 194°.** Uzunliklari 3 sm 5 mm va 96 mm bo'lgan kesmalar chizing.
- 195°.**
- | | | |
|----------------|-------------|------------|
| $500 + 70 + 2$ | $708 - 700$ | $405 + 80$ |
| $375 - 70$ | $600 + 40$ | $448 - 48$ |
| $486 - 80$ | $542 - 42$ | $673 - 73$ |

196. Bular qanday shakllar? Har bir siniq chiziqning uzunligini toping:



197. 18 l sutni 9 ta bir xil bankaga quyishdi. 12 litr sutni quyish uchun shunday bankalardan nechta kerak bo'ladi?


Masalani jadval tuzib yozing va yeching.


198. Velosipedchi qishloqqacha 20 km, qishloqdan keyin 4 marta kam yo'l yurdi. Velosipedchi hammasi bo'lib necha kilometr yo'l yurgan?

199. $700 + 40 + 3$ $400 + 60$ $800 + 5$
 $500 + 70 + 8$ $406 + 6$ $80 + 5$

200. Novvoyxonada 3 kunda 27 qop un ishlatildi. Shunday me'yorda ishlatilganda, 18 qop un necha kunga yetadi?

- 201°. Rasmni ko'rib chiqing, masala tuzing va uni yeching:



- 202°. $87 - 59 + 36 : 9$ $8 \cdot 5 + 37$
 $83 - 6 \cdot 9 + 24$ $17 + 27 : 9$
 $35 + 27 : 3 - 28$ $100 - 7 \cdot 8$

Masofalar turli uzunlik o'lchov birliklari bilan o'lchanadi. Katta masofalar katta birliklar bilan, kichik masofalar kichik birliklar bilan o'lchanadi.

Metr — uzunlik o'lchovining asosiy birligi.

Detsimetr — metrning o'ndan bir qismi.

Santimetr — detsimetrning o'ndan bir qismi yoki metrning yuzdan bir qismi.

Millimetr — santimetrning o'ndan bir qismi.

Jadvalni ko'chirib yozing va uni eslab qoling:

$$1 \text{ km} = 1000 \text{ m}$$

$$1 \text{ dm} = 10 \text{ sm}$$


$$1 \text{ m} = 10 \text{ dm}$$

$$1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}$$

$$1 \text{ m} = 100 \text{ sm}$$

203. 1) 1 metr 1 santimetrdan necha marta katta?
1 dm 1 metrdan necha marta kichik?
1 km 1 metrdan necha marta katta?
1 mm 1 santimetrdan necha marta kichik?
2) 1 mm 1 santimetrning qanday qismini tashkil etadi?
1 dm (1 sm, 1 mm) 1 metrning qanday qismini tashkil etadi?
1 m 1 kilometrning qanday qismini tashkil etadi?
204. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'yib, misollarni ko'chirib yozing:
 $730 = \square$ o'nlik $654 = \square$ o'nlik \square birlik
 $730 \text{ mm} = \square \text{ sm}$ $654 \text{ mm} = \square \text{ sm} \square \text{ mm}$
205. Sayohatchilar safarda 9 banka konserva ishlatdilar. Ularda yana ishlatilganiga qaraganda 4 marta ortiq konserva qoldi. Sayohatchilarda necha banka konserva bo'lgan?
206. $700 + 70 + 7$ $888 - 80$ $400 + 90$
 $300 + 30 + 3$ $888 - 8$ $400 + 9$

207. Yuzi bir xil bo'lgan shakllarning nomlarini ayting.
Yuzi eng katta bo'lgan shaklni toping:



208*. Echkinging massasini toping:



209°. O'quvchilar maktab bog'iga 16 tup olxo'ri, olxo'ri-
dan 4 marta kam olma, olxo'ri va olma birgalikda
qancha bo'lsa, undan 5 marta kam olcha ko'chati
o'tqazdilar. O'quvchilar necha tup olcha ko'chati
o'tqazdilar?

210°. $300 + 200 + 100$ $576 - 70$ $400 - 1$

 $700 - 400 - 200$ $576 - 6$ $799 + 1$

211. $1 \text{ so'm} = 100 \text{ tiyin}$

$1 \text{ m} = 100 \text{ sm}$

$7 \text{ so'm} = \square \text{ tiyin}$

$7 \text{ m} = \square \text{ sm}$

$12 \text{ so'm} = \square \text{ tiyin}$

$14 \text{ m} = \square \text{ sm}$

- 212.** Bog‘bon 60 kg olxo‘ri terdi. U 6 ta yashikni baravar qilib to‘ldirganidan keyin yana 12 kg olxo‘ri qoldi. Bog‘bon har bir yashikka necha kilogrammdan olxo‘ri solgan?

Bor edi	Solindi	Qoldi
60 kg	?, baravardan 6 ta yashikka	12 kg

Yechish rejasi

- 1) 6 ta yashikka necha kilogramm olxo‘ri solingan?
- 2) Bitta yashikka necha kilogramm olxo‘ri solingan?

- 213.** Mustaqil yeching:

1 - qator

$$4 \cdot 9 : 6 + 74$$

$$25 : 5 \cdot 9 + 35$$

$$190 \text{ sm} = \square \text{ dm}$$

$$800 \text{ mm} = \square \text{ sm}$$

2 - qator

$$49 : 7 \cdot 6 + 36$$

$$64 : 8 \cdot 7 - 17$$

$$130 \text{ sm} = \square \text{ dm}$$

$$600 \text{ mm} = \square \text{ sm}$$

- 214^o.** Tol daraxtining bo‘yi 4 m, terak undan 12 m baland. Terak toldan necha marta baland?

215^o. $(21 - 16) \cdot 9$ $49 : 7 + 64$



$(83 - 77) \cdot 8$ $36 : 9 + 58$

$(60 - 56) \cdot 9$ $21 : 7 + 84$



Qo‘shimcha mashqlar

1. $860 - 800 - 1$ $599 + 1 + 70$ $429 - 20 + 1$
 $680 - 80 + 1$ $299 + 1 + 30$ $879 - 70 + 1$

2. $536 - 6$ $234 + 5$ $874 - 4$ $336 + 2$
 $536 - 30$ $234 + 50$ $874 - 70$ $336 + 20$
3. $520 + (30 + 50)$ $48 : 6 \cdot 7$ $190 - 54 : 9$
 $860 - (90 - 60)$ $3 \cdot 8 : 4$ $200 - 36 : 9$
 $560 + 30 + 9$ $9 + 9 \cdot 8$ $500 - 24 : 6$
4. 270 ishchi hasharga chiqishdi. Ulardan 30 kishi ota-
liqqa olingan maktabda, 40 kishi bolalar bog'chasida,
qolganlari o'z ish joylarida ishladi. Masalaga savol
qo'ying va masalani yeching.
5. Yozilganlar orasidan tenglamalarni toping va ularni
yeching:
 $x + 20 = 40$ | $203 < 213$ | $42 - x = 32$ | $96 + 2 = 98$
Yozilganlar orasidan tengsizliklarni, tengliklarni o'qing.
6. Tomonlari har xil bo'lgan ikkita to'g'ri to'rtburchak
chizing, ulardan har birining tomonlari uzunliklarining
yig'indisi 20 sm ga teng bo'lsin.

1000 ICHIDA
QO'SHISH VA AYIRISH

Og'zaki qo'shish va ayirish

216. Qo'shiluvchilarning yig'indisini toping:

$500 + 70 + 3$	$800 + 20$	$900 + 1$	$700 + 70$
$300 + 10 + 9$	$400 + 70$	$500 + 5$	$700 + 7$

217. Yozuvni ko'rib chiqing va hisoblash usulini tushun-
tiring:

$300 + 500 = 800$ <hr style="width: 80%; margin: 0 auto;"/> $3 \text{ yuzlik} + 5 \text{ yuzlik} = 8 \text{ yuzlik}$

$700 - 200 = 500$ <hr style="width: 80%; margin: 0 auto;"/> $7 \text{ yuzlik} - 2 \text{ yuzlik} = 5 \text{ yuzlik}$

$$218. \quad 1000 - 200 \quad 750 - 700 \quad 800 - 100 - 500$$

$$400 + 400 \quad 750 - 50 \quad 400 + 300 - 600$$

$$219. \quad \begin{array}{l} < \\ = \\ > \end{array} \quad 206 \dots 602 \quad 8 \text{ m} \dots 800 \text{ sm}$$

$$409 \dots 49 \quad 3 \text{ m } 5 \text{ dm} \dots 5 \text{ m } 3 \text{ dm}$$

220. Maktab oshxonasiga 65 kg shakar olib kelindi. 5 kun mobaynida har kuni 7 kg dan shakar ishlatildi. Oshxonada necha kilogramm shakar qoldi?

221. Bir tomoni 6 sm, ikkinchi tomoni undan 2 marta kichik bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetrini toping.

222°. 2 ta mashina 18 ta ishchining o'rnini bosadi. 7 ta shunday mashina nechta ishchining o'rnini bosadi?

$$223°. \quad 300 + 200 \quad 200 + 600 \quad 400 + 500 \quad 600 + 7$$

$$700 - 500 \quad 100 + 900 \quad 900 - 400 \quad 607 - 7$$



224. 240, 810, 720, 560 sonlarining har birida hammasi bo'lib nechta o'nlik bor?

7 o'nlik, 12 o'nlik, 74 o'nlikning har biri nechta birlikni tashkil etadi?

225. Yozuvlarni ko'rib chiqing va hisoblash usulini tushuntiring:


$$\begin{array}{r} 60 + 80 = 140 \\ \hline 6 \text{ o'nlik} + 8 \text{ o'nlik} = 14 \text{ o'nlik} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 110 - 70 = 40 \\ \hline 11 \text{ o'nlik} - 7 \text{ o'nlik} = 4 \text{ o'nlik} \end{array}$$


$$226. \quad 70 + 70 \quad 130 - 90 \quad 120 - 60 + 90$$

$$50 + 80 \quad 170 - 80 \quad 140 - (30 + 80)$$

227. Ikki shahar orasidagi masofa 150 km. Bu shaharlardan bir-biriga qarab ikki mashina yo'lga chiqdi. Birinchi mashina 60 km, ikkinchisi 70 km yo'l yurganidan keyin ular orasida qancha masofa qoladi?



228. Tenglamalarni yeching:





$$3 + x = 9$$



$$10 - x = 6$$

229. Rasmda tasvirlangan nuqta, kesma va burchaklarni ayting:



- 230°. Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

Kunlik me'yor	Kunlar soni	Umumiy xarajat
Bir xil ?	6 kun	18 kg
?	2 kun	?

- 231°. Tenglamalarni yeching:



$$x - 30 = 100$$

$$30 + x = 100$$

$$x + 20 = 130$$

$$140 - x = 60$$


$$x \cdot 8 = 64$$

$$x : 7 = 6$$

232. Tenglamalarni tanlash usuli bilan yeching:

1) $x + 2 = 9$ $\boxed{3}$ $\boxed{6}$ $\boxed{5}$ 2) $x - 4 = 1$
 $\boxed{4}$ $\boxed{7}$

Rasmni va yozuvlarni ko'rib chiqing. Yechishni tushuntiring:



$$\begin{array}{r} 350 \\ \swarrow \searrow \\ 300 + 50 \end{array} + \begin{array}{r} 420 \\ \swarrow \searrow \\ 400 + 20 \end{array} = \square$$

$$300 + 400 = 700 \quad | \quad 50 + 20 = 70 \quad | \quad 700 + 70 = 770$$

$$350 + 420 = 770$$

Yuzliklar yuzliklarga qo'shiladi. O'nliklar o'nliklarga qo'shiladi.

233. $440 + 150$ $210 + 210$ $599 + 1$
 $650 + 230$ $810 + 190$ $999 + 1$
 $310 + 560$ $120 + 170$ $898 + 1$

234. Ikkinchi sinf o'quvchilari 400 kg, uchinchi sinf o'quvchilari esa undan 80 kg ortiq temir-tersak to'plashdi. Ikkinchi va uchinchi sinf o'quvchilari birgalikda qancha temir-tersak to'plashgan?

235. O'quvchilarning bir haftalik badantarbiya mashqlari sutkaning sakkizdan biriga teng. Bolalar bir haftada necha soat mashq qiladilar?

236. Ikkita bir xil yashikda 16 kg uzum bor. Shunday 4 ta yashikda necha kilogramm uzum bor? 5 ta yashikda-chi?

237°. $220 + 160$ $700 - 600$ $900 - (1000 - 300)$
 $480 + 110$ $460 + 130$ $530 + (280 - 180)$

238°. Yangi maktabda oldin 250 ta qiz bola va 240 ta o'g'il bola bor edi. Yil davomida yana 100 ta bola qabul qilindi. Maktabda nechta o'quvchi bo'ldi?



Siz biladigan raqamlar: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 — bu arab raqamlari. Ularni birinchi marotaba o'zbek xalqining buyuk farzandi, iste'dodli olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'z asarlarida qo'llagan. Al-Xorazmiy kitoblarining boshqa tillarga tarjima qilinishi natijasida bu raqamlarni Yevropa va Rossiyada ham qo'llay boshlaganlar.

Sonlar rim raqamlari orqali ham yoziladi. Masalan, I (bir), II (ikki), III (uch), V (besh), X (o'n).

239. 1 dan 12 gacha bo'lgan sonlarning rim raqamlari orqali yozilishi:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII

Jadvalni qarab chiqing va eslab qoling.

240. Rim raqamlarini soat siferblatlarida, sanalarni yozishda uchratish mumkin. Masalan, 1- sentabr bunday yoziladi: 1.IX; 9- may 9.V. kabi yoziladi. Yangi yilni, Vatan himoyachilari kunini, Xalqaro xotin-qizlar kunini, Navro'z bayrami kunini rim raqamlari bilan yozing.

241. Issiqxonada o'quvchilar 120 kg pomidor, undan 30 kg ortiq bodring, bodringdan 50 kg kam karam yetishtirdilar. O'quvchilar hammasi bo'lib necha kilogramm sabzavot yetishtirganlar?

242. Qizcha kitob o'qimoqda. U birinchi kuni 6 bet, ikkinchi kuni undan 2 marta ortiq o'qiganidan keyin, o'qilmagan yana 28 bet qoldi. Kitob hammasi bo'lib necha betli?

243. 1) $ABCD$ siniq chiziq chizing, bunda $AB = 2$ sm 3 mm, $BC = 1$ sm, $CD = 4$ sm bo'lsin;
2) $ABCD$ siniq chiziqning uzunligini hisoblang.

244°. $70 + 80$ $140 - 90$
 $230 + 450 - 500$ $350 + 140 + 200$

245°. Tenglamalarni yeching:



$$x \cdot 6 = 42$$

$$x : 8 = 3$$

$$80 - x = 14$$

Rasmni va yozuvlarni ko'rib chiqing.
Yechishni tushuntiring.



$$\begin{array}{r}
 360 \\
 \swarrow \searrow \\
 300 + 60
 \end{array}
 -
 \begin{array}{r}
 250 \\
 \swarrow \searrow \\
 200 + 50
 \end{array}
 = \square$$

$$300 - 200 = 100 \quad | \quad 60 - 50 = 10 \quad | \quad 100 + 10 = 110$$

$$360 - 250 = 110$$

Yuzliklar yuzliklardan ayiriladi. O'nliklar o'nliklardan ayiriladi.



246. $480 - 320$ $190 - 140$ $770 - 560$
 $970 - 860$ $680 - 440$ $880 - 720$

247. 16 varaq qog'ozdan 4 ta bir xil yon daftarcha tayyorlanadi. 36 varaq qog'ozdan nechta shunday yon daftarcha tayyorlash mumkin?

248. Tarvuz ekilib, yig'ib olinguniga qadar 150 kun o'tadi, qovunga tarvuzga qaraganda 10 kun kam, kartoshkaga qovunga qaraganda 20 kun kam vaqt ketadi. Kartoshka ekilib, yig'ib olinguniga qadar necha kun o'tadi?

249. Nuqta orqali ikkita bir xil kesmani shunday o'tkazingki, ular bu nuqtada teng ikkiga bo'linsin. Keyin kesmalarning uchlarini tutashtiring. Qanday shakl hosil bo'ldi?

250. Har bir qism qanday hosil qilindi?



251°. Ikkita bola basseynida bir-biriga qarab suzdi. Biri uch-rashishguncha 23 m, ikkinchisi undan 5 m qisqa masofaga suzdi. Dastlab ular orasidagi masofa necha metr bo'lgan?

$$252^{\circ}. 18 : 6 + 36 : 4 \quad 7 \cdot 8 - 6 \cdot 4 \quad 100 - 6 \cdot 8$$




$$63 : 7 + 40 : 8 \quad 7 \cdot 6 - 8 \cdot 3 \quad 38 + 4 \cdot 7$$

253. 1) Sonlarni rim raqamlari bilan yozing: 2, 10, 6, 12, 9, 8.

2) Oylarni rim raqamlari bilan yozing: mart, may, oktabr, aprel, yanvar, iyul.


3) Sonlarni tartibi bilan yozing: VII, X, IX, I, V, IV, III, XI, II, VI, XII, VIII.

$$240 + 30$$



$$\begin{aligned} 240 + 30 &= \\ &= 200 + 40 + 30 = \\ &= 200 + (40 + 30) = \\ &= 200 + 70 = 270 \end{aligned}$$

$$240 + 300$$



$$\begin{aligned} 240 + 300 &= \\ &= 200 + 40 + 300 = \\ &= (200 + 300) + \\ &\quad + 40 = 540 \end{aligned}$$


O'nliklar o'nliklarga qo'shiladi,
yuzliklar yuzliklarga qo'shiladi.

254. $360 + 30$ $420 + 300$ $520 + 40$ $200 + 170$


255. Duradgorda 30 ta bir xil yupqa taxta bor. Agar 12 ta shunday taxtadan 2 ta donxo'rak yasalsa, duradgor shu taxtalardan nechta donxo'rak yasashi mumkin?

256. $7 \cdot 8 + 36 : 9$ $6 \cdot 4 + 5 \cdot 7$ $72 - 48 : 8$
 $29 + 54 : 6$ $24 : 3 + 15 : 5$ $9 \cdot 3 - 2 \cdot 8$

257. Har bir shakl nechta katakka joylashganligini turli usullar bilan sanang:



258°. Har bir shaklning tomonlari uzunligini o'lchang va perimetrini hisoblang:



259°. Ikkita kesma chizing: birining uzunligi 12 sm, ikkinchi kesma birinchi kesmaning to'rtidan bir qismiga teng bo'lsin.



260. Mayizning massasi yangi uzilgan uzum massasining to'rtidan bir qismini tashkil etadi. 36 kg uzumdan qancha mayiz olish mumkin?

261. Uchta yozgi oromgohga 990 ta karavot keltirildi. Birinchi va ikkinchi oromgohlarga birgalikda 680 ta, ikkinchi va uchinchi oromgohlarga birgalikda 640 ta karavot keltirildi.

990 ta	I]	680 ta
	II]	
	III]	

990 – 680; 990 – 640 ifodalarni hisoblab, nimani bilish mumkin?

262. Sonlarni rim raqamlari bilan yozing: 7, 9, 18, 20, 13, 16, 8.
263. Ikkita bir xil chelakda 14 kg sabzi bor. 42 kg li qopda necha chelak sabzi bor? Rasmni ko'rib chiqing va masalani yeching.



264. Tenglamalarni yeching:

$$x + 320 = 550 \quad 780 - x = 240 \quad x : 3 = 9$$

265. Tikuvchilik ustaxonasida bir yilda 840 ta kastum tiki-lishi kerak edi. Birinchi yarim yilda 470 ta, ikkinchi yarim yilda 420 ta kastum tikildi. Yillik reja qancha oshirib bajarilgan?

266. $460 + 110 - 540$ $820 - (570 - 450)$

267°. $990 - 230$ $640 - 400$ $510 + 230$
 $770 - 320$ $640 - 340$ $330 + 660$

- 268°. Bir qutichada 28 ta, boshqasida undan 4 marta kam konfet bor. Qutichalarda hammasi bo'lib nechta konfet bor?



269. Har bir sonning raqamlari yig'indisini toping va uni 3 ga bo'ling: 15, 18, 24, 27.
270. Uchta sonning yig'indisi 940. Birinchi va ikkinchi sonlarning yig'indisi 740, ikkinchi va uchinchi sonlarning yig'indisi 610. Har bir sonni toping.

Yechish

1) $940 - 610 = \square$

2) $940 - 740 = \square$

3) $740 - \square = \square$

Masalani yechishni tugallang. Har bir amalni bajarib, nimani bilish mumkinligini tushuntiring.

271. Navoiy shahridan Uchquduq shahrigacha bo'lgan masofa temir yo'l bo'ylab 290 km, avtomobil yo'li bo'ylab undan 40 km kam. Sayohatchi Navoiydan Uchquduqqa poyezdda jo'nadi va avtobusda qaytib keldi. Sayohatchi hammasi bo'lib necha kilometr yo'l yurgan?

272. $790 - 70$ $640 + 30$ $250 - 130 + 680$

$790 - 700$ $120 + 500$ $420 + 80 + 440$

273. Har bir shaklning yuzini toping:



1 kv sm

274°. Agar $c = 380$ bo'lsa, $690 - c$ ifodaning qiymatini toping.

275°. $970 - 160 + 120$ $300 + (460 - 150)$

 $760 + 200 - 850$ $870 - (340 + 320)$

276. Besh quti shirin kulchanning massasi 30 kg. Agar bir quti konfetning massasi bir quti shirin kulchanning massasidan 2 kg ortiq bo'lsa, 8 quti konfetning massasini toping.

Yechish rejasi

- 1) Bir quti shirinkulchanning massasi qancha?
 - 2) Bir quti konfetning massasi qancha?
 - 3) 8 quti konfetning massasi qancha?
- Har bir savolning yechimini ayting.

- 277.** Bir ish kunida topshiriqdan 120 ta ko'p shisha banka tayyorlandi. Natijada bir kunda tayyorlangan bankalar soni 470 ta bo'ldi. Reja bo'yicha bir ish kunida nechta banka tayyorlanishi kerak edi?
- 278.** Uchta sonning yig'indisi 200 ga teng. Birinchi qo'shiluvchi eng katta ikki xonali son, ikkinchi qo'shiluvchi esa eng kichik uch xonali son. Uchinchi qo'shiluvchini toping.
- 279.** Ikki shahardan bir-biriga qarab avtobus va yengil mashina yo'lga chiqdi. Uchrashguncha avtobus 80 km, yengil mashina undan 40 km ortiq yo'l yurdi. Shaharlar orasidagi masofani toping.



80 km



?, 40 km ortiq

- 280.** Tenglamalarni yeching:

$$3 \cdot a = 18$$

$$24 : b = 8$$

$$x : 3 = 7$$

$$28 + x = 50$$

$$64 - x = 40$$

$$x - 11 = 80$$

- 281°.** Seshanba kuni avtomobil zavodi 80 ta, chorshanba kuni undan 10 ta ortiq mashina ishlab chiqardi. Zavod ikki kunda nechta mashina ishlab chiqargan?

282°. $90 + 80$

$160 + 20$

$290 + 60$

$320 - 10$



$490 + 80$

$130 - 90$

$20 + 80$

$480 - 50$

Turli hisoblash usullarini tushuntiring.

$$\begin{array}{l} 430 + 350 = \\ \hline = 400 + 30 + 300 + 50 = \\ = (400 + 300) + (30 + 50) = \\ = 700 + 80 = 780 \end{array} \quad \left| \quad \begin{array}{l} 430 + 350 = \\ \hline = 430 + (300 + 50) = \\ = (430 + 300) + 50 = \\ = 730 + 50 = 780 \end{array} \right.$$

$$430 + 350 = 780$$

$$\underline{43 \text{ o'nlik} + 35 \text{ o'nlik} = 78 \text{ o'nlik} = 780}$$

283.

a	190	220	870		360	720
b			870	20	0	
$a - b$	70	200		140		720

284. Avtobusda yo'lovchilar uchun 40 ta, yengil mashinada undan 10 marta kam o'rin bor. 20 kishini sayohatga jo'natish uchun nechta yengil mashina kerak bo'ladi?

285. Bog'lamdan 18 ta daftar olingandan so'ng unda olinganiga qaraganda 2 marta kam daftar qoldi. Dastlab bog'lamda nechta daftar bo'lgan?

286. Agar $b = 56$ bo'lsa, $b + b : 8$ ifodaning qiymatini toping.

287. Bir xil yuzga ega bo'lgan shakllarning nomlarini ayting. Yuzi eng katta bo'lgan shaklni toping:



1



2



3



4

288°. Uchta bir xil bankada 6 l murabbo bor. 5 ta shunday bankada necha litr murabbo bor?

289°. 8 sm uzunlikda kesma chizing. Bu kesmaning to'rtidan bir bo'lagini bo'yang. Qancha uzunlikdagi kesma bo'yaldi?



290. 780 g kraxmalli qorishma tayyorlandi. Unda 70 g kraxmal, qolgani esa suv. Qorishmada qancha suv bor?

Misollarni yechishning turli usullarini tushuntiring:

$$\begin{array}{l} 790 - 350 = \\ \hline = (700 - 300) + (90 - 50) = \\ = 400 + 40 = 440 \end{array} \quad \left| \quad \begin{array}{l} 790 - 350 = \\ \hline = (790 - 300) - 50 = \\ = 490 - 50 = 440 \end{array} \right.$$

$$790 - 350 = 440$$

$$79 \text{ o'nlik} - 35 \text{ o'nlik} = 44 \text{ o'nlik} = 440$$

291. Sirkka 80 ta ayol kishi, ulardan 20 ta ortiq erkak kishi, kattalar birgalikda qancha bo'lsa, shuncha bola keldi. Sirkka hammasi bo'lib necha kishi kelgan?

Y e c h i s h

- 1) $80 + 20 = \square$
- 2) $80 + \square = \square$
- 3) $80 + \square + \square = \square$



Masalani yechishni tugallang. Har bir amalni bajarib, nimani bilish mumkinligini tushuntiring.

292. Qizlar maktab oshxonasida navbatchilik qilish uchun 6 ta fartuk va 6 ta xalat tikishdi. Har bir xalatga 3 m dan, fartukka 2 m dan gazlama ishlatildi. Hammasi bo'lib necha metr gazlama ishlatilgan?

293. Sabzili xaltaning massasi 2 kg, kartoshkali xaltaning massasi undan 1 kg ortiq bo'lsa, 9 ta kartoshkali xaltaning massasini toping.


294°. To'pda 20 m chit bor edi, 5 m chit ishlatildi. Qolganga qaraganda necha marta kam chit ishlatilgan?

295°. $750 - 230$ $140 - 30$ $620 + 300$
 $540 - 220$ $330 - 110$ $750 - 500$




Rasmlarga qarab hisoblash usulini tushuntiring:

$$240 + 60 = \square$$



$$200 - 40 = \square$$



296. Tushuntirish bilan yeching:

$$400 - 90 \quad 620 + 80 \quad 800 - 70 \quad 530 + 70$$

297. Daftar 36 so'm, chizg'ich undan 4 marta arzon. Daftar chizg'ichdan necha so'm qimmat?

298. Buvi 14 kalava tivit ipdan paypoqlar to'qidi, har juft paypoqqa 2 kalavadan ip ketdi, 5 juft paypoqni nevaralariga sovg'a qildi. Buvida necha juft paypoq qoldi?

299. Mustaqil yeching:

1- qator

$$\begin{array}{ll} 600 - 90 & 740 - (90 + 30) \\ 370 + 30 & 360 - (480 - 370) \\ 18 + 16 : 8 & 93 - 3 \cdot 3 \cdot 7 \end{array}$$

2- qator

$$\begin{array}{ll} 500 - 90 & 470 - (60 + 50) \\ 240 + 60 & 570 - (560 - 310) \\ 28 + 18 : 9 & 92 - 2 \cdot 4 \cdot 9 \end{array}$$

300°. $620 - (70 + 50)$ $(880 - 850) : 5$
 $620 - (70 - 50)$ $(786 - 780) \cdot 9$

301°. Agar c harfi 8, 32, 24 qiymatlarni qabul qilsa, $c : 4$ ifodaning qiymatini toping.



Yozuvlarni o'qib chiqing va tushuntirishni o'qing:

$$\begin{array}{r} 490 + 350 = \square \\ \swarrow \quad \searrow \quad \swarrow \quad \searrow \\ 400 + 90 \quad 300 + 50 \end{array} \quad \left| \quad \begin{array}{l} 400 + 300 = 700 \\ 90 + 50 = 140 \\ 700 + 140 = 840 \end{array}$$

Tushuntirish: 400 va 300 — yetti yuz, 90 va 50 — bu bir yuz qirq, 700 ga 140 ni qo'shilsa, 840 bo'ladi.

302. Yozuvni ko'rib chiqing va yechishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 380 + 290 = \\ \hline = 300 + 200 + 80 + 90 = \\ = 500 + 170 = 670 \end{array}$$

303. Bochkada 8 l benzin bor edi, unga yana 40 l benzin quyildi. Bochkadagi benzin oldingisidan necha marta ko'p bo'ldi?

304. Olxo'ri solingan 1 ta yashik 12 kg, uzum solingan 3 ta yashik 27 kg keldi. Olxo'ri solingan bitta yashik uzum solingan bitta yashikdan necha kilogramm og'ir?

305. Mustaqil yeching:

1 - qator			2 - qator	
$560 + 180$	$650 + 280$		$790 + 190$	$680 + 170$
$170 + 160$	$240 + 590$		$140 + 180$	$350 + 490$

306°. $72 : 8 + 400$ $49 : 7 \cdot 9$ $91 - 73 + 18$
 $908 - 56 : 7$ $5 \cdot 3 + 66$ $23 + 59 - 81$

307°. Qishloqda 10 ta yangi uy bor edi. Bu yil yana 20 ta uy qurildi. Yangi uylar ilgari qurilgan uylarga qaraganda necha marta ko'p bo'ldi?



Yozuvlarni ko'rib chiqing va ayirmaning qanday topilganini tushuntiring:

$350 - 80 = \square$		$350 - 80 = \square$
$200 + 150$		$50 + 30$
$150 - 80 = 70$		$350 - 50 = 300$
$200 + 70 = 270$		$300 - 30 = 270$

308. Ayirmaning ixtiyoriy usul bilan toping. Hisoblash usulini tushuntiring:

$730 - 90$ $610 - 70$ $810 - 30$

309. Misollarni yeching va qo'shish bilan tekshiring:

$650 - 330$ $120 - 40$ $800 - 560$
 $640 - 220$ $440 - 110$ $800 - 60$

310. Odam yurganda bir minutda 9 l, yugurganda 5 marta ortiq havo yutadi. Odam 2 minut yugurganda necha litr havo yutadi?

311. Mustaqil yeching:

1- qator		2- qator	
400 - 70	120 - 90	500 - 40	130 - 70
610 - 80	740 + 180	570 - 80	460 + 390

312°. $360 + 160$ $640 + 60$ $340 + (80 + 70)$
 $690 + 220$ $700 - 70$ $840 - (670 + 40)$

313°. $90 - 7$ $13 - 9$ $76 - 68$ $32 - 27$
 $900 - 70$ $130 - 90$ $63 - 18$ $100 - 87$

Yozuvlarni ko'rib chiqing va yechishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 430 - 250 = \square \\ \hline 430 - 200 = 230 \\ 230 - 50 = 180 \end{array}$$

314. Ayirmaning toping va hisoblash usullarini tushuntiring:
 $630 - 240$ $240 - 180$ $240 - 190$

315. Duradgor 7 soatda 63 ta bir xil yog'och qoshiq yasadi. Shunday mehnat unumdorligida 54 ta shunday qoshiq yasash uchun unga necha soat kerak bo'ladi?

316. Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

Bir soatda tayyorlandi	Ish soati	Hammasi bo'lib tayyorlandi
8 ta	4 soat	? } ?
6 ta	3 soat	

317. Mustaqil yeching:

1- qator		2- qator	
300 - 20	740 - 350	800 - 70	780 - 190
580 - 390	610 - 380	450 - 270	840 - 560

$318^\circ. 7 \cdot 6 + 9 \cdot 4 \quad 78 - 56 : 8 \quad 4 \cdot 9 - 2 \cdot 8$

$319^\circ. 780 - (530 - 60) \quad (330 + 280) - 440$

$\img alt="bell icon" data-bbox="41 110 85 145"/> $910 - (840 - 730) \quad (450 + 70) - 360$$

320. Tengliklâr nima uchun to'g'riligini tushuntiring:

$90 + 710 = 710 + 90 \quad 200 + 60 + 40 = 200 + 100$

$321. 800 - 500 - 70 \quad (700 + 200) - 60$

$500 - 400 - 80 \quad 900 - (90 - 80)$

Yozuvlarni ko'rib chiqing va yechishni tushuntiring:

$$800 - 380 = \square$$

$$800 - 300 = 500$$

$$500 - 80 = 420$$

322. Ayirmani toping va yechishni tushuntiring:

$600 - 340 \quad 800 - 570 \quad 300 - 120$

323. Polizda uch jo'yakda baravardan 27 tup bodring va 4 ta bir xil jo'yakda 24 tup pomidor bor. Har bir jo'yakda bodringga qaraganda nechtadan kam pomidor tupi bor?

324. Mustaqil yeching:

1 - qator

$400 - 180 \quad 700 - 70$

$450 + 270 \quad 670 - 480$

2 - qator


$800 - 170 \quad 700 - 80$

$250 + 480 \quad 710 - 530$

$325^\circ. 680 - 130 \quad 680 + 20 \quad 600 - 440$

$630 - 490 \quad 200 - 90 \quad 450 + 350$


326. 18 l o'rik sharbati 2 l li shisha bankalarga, shuncha shaftoli sharbati esa 3 l li shisha bankalarga quyildi. Hammasi bo'lib nechta bankaga sharbat quyilgan?

 Har bir amalni alohida yozib, masalani yeching.

327. Chelakda 10 l suv bor. Bankaga chelakdagi suvning beshdan bir qismi ketadi. Bankaga necha litr suv ketadi?
328. Issiqxonadan har birida 6 kg dan 3 chelak va har birida 9 kg dan 2 savat pomidor terib olindi. Necha kilogramm pomidor terib olingan?

Yechish

- 1) $6 \cdot 3 = \square$
 2) $9 \cdot 2 = \square$
 3) $\square + \square = \square$




Masalani yechishni tugallang. Har bir amalni bajarib, nimani bilish mumkinligini tushuntiring.

329. Uzunligi 19 m bo'lgan bir bo'lak simdan 7 m qirqib olindi. Qolgan sim 4 ta teng bo'lakka bo'lindi. Har bir bo'lak necha metrga teng?
330. Mustaqil yeching:

1 - qator	2 - qator
$800 - (52 + 48)$	$600 - (65 + 35)$
$700 - 340$	$900 - 520$
$950 - 670$	$830 - 290$

331. Daftarga ikkita shunday uchburchak chizingki, ularning birida bitta to'g'ri burchak bo'lsin, ikkinchisida esa to'g'ri burchak bo'lmasin.
- 332°. 63 l pomidor sharbati shisha bankalarning har biriga 9 l dan quyildi, yana 15 l sharbat har bir shisha bankaga 3 l dan quyildi. Necha shisha bankaga sharbat quyilgan?

- 333°. $370 + 240$ $530 - 270$ $80 + 60$
 $640 + 160$ $840 - 560$ $150 - 90$

MASSA O'LCHOVLARI

Kilogramm, gramm



- 1) Rasmni ko'rib chiqing. Qovoqning massasi 1 kg dan og'irmi yoki yengilmi? 2 kg dan-chi?
- 2) Kichikroq narsalarning massasi grammlarda o'lchanadi.

$$1 \text{ kg} = 1000 \text{ g}$$

1 kg, 2 kg, 5 kg li toshlar bilan bir qatorda 100 g, 10 g, 1 g li; 200 g, 20 g, 2 g li; 500 g, 50 g, 5 g li tarozi toshlaridan foydalaniladi.

- 334.** 7 g; 80 g; 300 g; 450 g; 600 g; 745 g; 900 g ni hosil qilish uchun qanday tarozi toshlarini olish kerak?
- 335.** 600 g qum, 300 g guruch o'lchab oling; bitta olmani tarozida torting.
- 336.** Uchburchak bir tomonining uzunligi 18 sm, ikkinchi tomonining uzunligi undan 3 marta qisqa, uchinchi tomonining uzunligi esa 14 sm. Uchburchak tomonlari uzunliklarining yig'indisini toping.
- 337.** Mustaqil yeching:

1- qator

Agar $a = 600$, $a = 610$, $a = 520$ bo'lsa, quyidagi ifodalarning qiymatini toping:

$$a + 340$$

$$a - 520$$



2- qator

Agar $b = 700$, $b = 750$, $b = 450$ bo'lsa, quyidagi ifodalarning qiymatini toping:

$$b + 250$$

$$b - 450$$

338*. Har bir shaklda nechtadan uchburchak, to'rtburchak, beshburchak bor?



339°. $650 - 310$
 $230 - 180$

$$780 + 120$$

 $700 - 20$

$$300 - 170$$

 $250 + 750$

340°. $400 - 100$
 $450 - 80$

$$670 - 260$$

 $500 - 50$


$$790 - 580$$

 $800 - 370$



Tonna, sentner

341. Rasmni ko'rib chiqing. Qovoqning massasi nimaga teng? Tarvuzning massasi-chi?



Yashikdagi xurmoning massasini aniqlash uchun qanday birliklardan foydalanish qulay, bitta xurmoning massasini aniqlash uchun-chi?

Katta narsalarning massasini o'lchash uchun kilogrammga qaraganda yirikroq bo'lgan massa birliklari — **sentner** va **tonnadan** foydalaniladi.

$$1 \text{ sentner} = 100 \text{ kilogramm}, \quad 1 \text{ t} = 1000 \text{ kg}$$

Bu birliklarni sonlar bilan birgalikda bunday yoziladi: 1 sr, 6 sr, 10 t, 45 t.

342. Bitta qopga 50 kg guruch sig'adi. 1 sr guruchni solish uchun nechta qop kerak bo'ladi?

(1 sentnerni kilogrammlarda ifodalang.)

343. Savollarga javob bering:

1) Qaysi massa o'lchovi yirikroq: 1 t mi yoki 1 kg mi?
1 kg mi yoki 1 sr mi?


2) Qaysi massa o'lchovi maydaroq: 1 kg mi yoki 1 g mi?

344. Uchburchakning perimetri 37 sm. Uning bir tomoni 11 sm, ikkinchi tomoni 10 sm bo'lsa, uchinchi tomonini toping.

345. Perimetri bir xil: 1 dm 4 sm bo'lgan shunday ikkita to'g'ri to'rtburchak chizingki, ulardan birining bo'yi 4 sm, ikkinchisining bo'yi 5 sm bo'lsin.

346*. To'g'ri to'rtburchak to'rtta teng qismga bo'lindi. Uning to'rtidan bir qismi ko'k, qolgan qismi yashil rangga bo'yaldi. To'g'ri to'rtburchakning qanday qismi yashil rangga bo'yalgan?

347°. Bitta g'ozdan 230 g, xo'rozdan 190 g kam pat olindi. Hammasi bo'lib qancha pat olingan?

348°.	$650 - 90$	$240 + (140 - 80)$	$64 : 8 : 4$
	$220 - 60$	$730 - 90 - 90$	$64 : 8 \cdot 9$

349.



1) Bo'sh shisha idishning massasi 300 g. Yog' solingan shisha idishning massasi 750 g. Idishga necha gramm yog' solingan?

2) Olma solingan savatning massasi 1 kg 300 g. Agar unda 1 kg olma bo'lsa, savatning massasini toping.

350. Agar tarozining bir pallasida 50 g li tosh, ikkinchi pallasida esa 5 g li 5 ta va 2 g li 10 ta tosh bo'lsa, tarozining pallalari qanday holatda bo'ladi?

351. Eng kichigidan boshlab o'zingizga ma'lum bo'lgan massa birliklarini ayting.

352. Jadvalni ko'chirib yozing va eslab qoling:

$$1 \text{ kg} = 1000 \text{ g}$$

$$1 \text{ t} = 1000 \text{ kg}$$

$$1 \text{ sr} = 100 \text{ kg}$$

$$1 \text{ t} = 10 \text{ sr}$$

353. 1) Har birida 50 kg dan bo'lgan ikki qop sabzining massasi qancha? Bu necha sentner bo'ladi?

2) Bolalar bog'chasiga 1 sr barra bodring jo'natildi. Bu necha kilogramm bo'ladi?

3) 10 sr pomidor tuzlandi. Bu necha tonna bo'ladi?

4) Ikki ekin maydonidan 50 kg dan lavlagi terib olindi. Hammasi bo'lib necha kilogramm lavlagi terib olingan? Bu necha sentner bo'ladi?

354.



$$8 \text{ sr} \dots 6 \text{ sr}$$

$$1 \text{ t} \dots 1000 \text{ kg}$$

$$200 \text{ kg} \dots 2 \text{ sr}$$

$$900 \text{ kg} \dots 1 \text{ t}$$

$$800 \text{ kg} \dots 900 \text{ kg}$$

$$730 \text{ g} \dots 370 \text{ kg}$$

355. Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

Bitta buyumga ketgan gazlama	Buyumlar soni	Ketgan hamma gazlama
?	3 ta	6 m

356. 5 ta bir xil paltoga 10 m gazlama ketdi? 2 ta shunday paltoga necha metr gazlama ketadi?

357*. Tomonlari 6 sm bo'lgan kvadrat yasash uchun tomoni 2 sm bo'lgan kvadratdan nechta kerak bo'ladi?

358°. Tenglamalarni yeching:

$$x \cdot 8 = 72$$

$$x : 8 = 7$$

$$36 : x = 9$$



359°. $56 : 7 + 24 : 3$ $7 \cdot 4 - 3 \cdot 6$ $81 - 7 \cdot 6$



$35 : 5 + 42 : 6$ $8 \cdot 6 - 5 \cdot 5$ $89 - 3 \cdot 7$

YOZMA QO'SHISH VA AYIRISH

360.



1) Chapdagi rasmni ko'rib chiqing. Sotuvchi 600 g pishloqni tortishi kerak. Tarozining bir pallasiga u 1 kg li qadoq toshni qo'ydi. U ikkinchi pallaga qanday toshlarni qo'yishi kerak?

2) Ikkinchi taroziga-chi?

361. 40 kg temir-tersakdan bitta velosiped yasash mumkin. 80 kg temir-tersakdan nechta velosiped yasash mumkin? Teskari masala tuzing.

Uch xonali sonlarni qo'shishda, ikki xonali sonlarni qo'shishdagidek, misolni ustun qilib yozish qulay. Yechishni tushuntiring: $32 + 46$, $532 + 146$.


O'nlik	Birlik
3	2
4	6
<hr/>	<hr/>
7	8

Yuzlik	O'nlik	Birlik
5	3	2
1	4	6
<hr/>	<hr/>	<hr/>
6	7	8

+	5	3	2
	1	4	6
	<hr/>	<hr/>	<hr/>
	6	7	8

Oldin birliklar, keyin o'nliklar, undan keyin yuzliklar qo'shiladi.

362. Qo'shishni bajaring va tushuntirib bering:
 $325 + 431$ $576 + 423$ $460 + 237$ $260 + 730$
 Bunday tushuntiring: **Yozaman ... Birliklarni qo'shaman ... O'nliklarni qo'shaman ... Yuzliklarni qo'shaman ... Javobni o'qiyman ...**
363. Yuzi bir xil bo'lgan shakllarning tartib raqamlarini ayting. Yuzi eng katta bo'lgan shaklni toping:



364. Mustaqil ish. Misollarni ustun qilib yozing va ularni yeching:

1 - qator		2 - qator
$536 + 262$	$350 + 345$	$254 + 321$ $480 + 315$
$812 + 173$	$621 + 276$	$341 + 426$ $543 + 236$

$$365^{\circ} \quad + \begin{array}{r} 253 \\ 145 \\ \hline \end{array} \quad + \begin{array}{r} 533 \\ 415 \\ \hline \end{array} \quad + \begin{array}{r} 654 \\ 124 \\ \hline \end{array} \quad + \begin{array}{r} 316 \\ 452 \\ \hline \end{array}$$

366°. 45 kilogramm paxta chigitidan 9 kg yog' olindi. 5 kg yog' olish uchun qancha chigit kerak?



Uch xonali sonlarni ayirishda ikki xonali sonlarni ayirishdagidek, misolni ustun qilib yozish qulay. Yechishni tushuntiring: $578 - 236$

=	<table style="border-collapse: collapse; width: 100%;"> <thead> <tr> <th style="border: none;">Yuzlik</th> <th style="border: none;">O'nlik</th> <th style="border: none;">Birlik</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="border: none; text-align: center;">3</td> <td style="border: none; text-align: center;">8</td> <td style="border: none; text-align: center;">6</td> </tr> <tr> <td style="border: none;"></td> <td style="border: none; text-align: center;">4</td> <td style="border: none; text-align: center;">5</td> </tr> <tr> <td style="border: none; text-align: center;">3</td> <td style="border: none; text-align: center;">4</td> <td style="border: none; text-align: center;">1</td> </tr> </tbody> </table>	Yuzlik	O'nlik	Birlik	3	8	6		4	5	3	4	1	=	<table style="border-collapse: collapse; width: 100%;"> <thead> <tr> <th style="border: none;">Yuzlik</th> <th style="border: none;">O'nlik</th> <th style="border: none;">Birlik</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="border: none; text-align: center;">5</td> <td style="border: none; text-align: center;">7</td> <td style="border: none; text-align: center;">8</td> </tr> <tr> <td style="border: none; text-align: center;">2</td> <td style="border: none; text-align: center;">3</td> <td style="border: none; text-align: center;">6</td> </tr> <tr> <td style="border: none; text-align: center;">3</td> <td style="border: none; text-align: center;">4</td> <td style="border: none; text-align: center;">2</td> </tr> </tbody> </table>	Yuzlik	O'nlik	Birlik	5	7	8	2	3	6	3	4	2	<table style="border-collapse: collapse; width: 60px; height: 60px;"> <tr><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td></tr> <tr><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td></tr> <tr><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td></tr> <tr><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td><td style="border: 1px solid black; width: 20px; height: 20px;"></td></tr> </table>												
Yuzlik	O'nlik	Birlik																																						
3	8	6																																						
	4	5																																						
3	4	1																																						
Yuzlik	O'nlik	Birlik																																						
5	7	8																																						
2	3	6																																						
3	4	2																																						

Birliklardan birliklar, o'nliklardan o'nliklar, yuzliklardan yuzliklar ayiriladi.

367. 1) Ayirishni bajaring va tushuntiring:

$$847 - 325 \quad 709 - 406 \quad 850 - 340 \quad 275 - 64$$

Bunday tushuntiring: **Yozaman ... Birliklarni ayiraman ... O'nliklarni ayiraman ... Yuzliklarni ayiraman ... Javobni o'qiyman ...**

2) Ayirishni qo'shish bilan tekshiring.

368. Haydovchi uch kunda 998 km yo'l yurdi. U birinchi kuni 423 km, ikkinchi kuni 20 km kam yo'l yurdi. Haydovchi uchinchi kuni necha kilometr yo'l yurgan?


369. Uy bekasi ertalab 6 kg, kechqurun 8 kg murabbo qaynatdi. U murabbolarni 2 kg dan shisha bankalarga quydi. Unga nechta banka kerak bo'lgan?

370. Sonlarni ustun qilib yozib, ayirmalarni toping:

$$\begin{array}{r} 954 - 432 \\ 893 - 561 \end{array} \quad \begin{array}{r} 827 - 610 \\ 757 - 340 \end{array} \quad \begin{array}{r} 589 - 307 \\ 428 - 205 \end{array}$$

371°. Misollarni ustun qilib yozib, hisoblang:

$$\begin{array}{r} 846 - 616 \\ 675 - 542 \end{array} \quad \begin{array}{r} 783 - 502 \\ 564 - 233 \end{array} \quad \begin{array}{r} 809 - 408 \\ 398 - 260 \end{array}$$

372°. 20 m gazlamadan 5 ta bir xil xalat tikildi. 36 m  gazlamadan nechta shunday xalat tikish mumkin?

373. 1) Ayiriluvchi noma'lum bo'lgan tenglamani yeching:

$$x + 160 = 540 \quad x - 620 = 310 \quad 400 - x = 160$$

2) Shunday sonlar tanlab olingki, tengsizliklar to'g'ri bo'lsin:

$$a - 16 > 20 \quad b + 8 < 11 \quad c \cdot 3 > 15$$

374. Misollarni ustun qilib yozib, hisoblang:

$$524 + 373 \quad | \quad 436 + 252 \quad | \quad 947 - 321 \quad | \quad 767 - 250$$

375. Kerakli hisoblashlarni yozma bajarib, tenglamalarni yeching:

$$x + 270 = 800 \quad 769 - x = 567 \quad x - 50 = 707$$

Namuna:

$$\begin{array}{r} x - 320 = 478 \\ x = 320 + 478 \\ x = 798 \end{array} \quad \begin{array}{r} 320 \\ + 478 \\ \hline 798 \end{array} \quad \begin{array}{r} 798 \\ - 320 \\ \hline 478 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} \text{Tekshirish: } 798 - 320 = 478 \\ 478 = 478 \end{array}$$

376. Ikki kishilik quymoq uchun 6 ta tuxum kerak. 27 ta tuxumdan necha kishilik quymoq tayyorlash mumkin?

377. 24 kg anor va 18 kg behi 6 kg dan qilib qutilarga solindi. Nechta qutiga meva solingan?

378°. $123 + 256$ | $305 + 432$ | $597 - 137$ | $564 - 203$

379°. Uy bekasi har biri 3 l dan 9 banka va har biri 2 l dan 8 banka sharbat tayyorladi. U hammasi bo'lib necha litr sharbat tayyorlagan?



380. 1) Bu sonlarning har birida hammasi bo'lib nechta o'nlik bor: 746, 830, 521, 375?

2) Bu sonlarning har birida hammasi bo'lib nechta birlik bor?

381. Misollarning yozilishi va yechilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 378 \\ - 154 \\ \hline 224 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 657 \\ - 203 \\ \hline 454 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 408 \\ - 305 \\ \hline 103 \end{array}$$

382. Misollarni ustun qilib yozing va ularni hisoblang:

$245 + 742$ | $674 - 453$ | $547 - 304$ | $307 + 402$

2) Qo'shishni ayirish bilan, ayirishni qo'shish bilan tekshiring.

383. Gul do'koniga 468 ta lola keltirildi. Ertalab 243 ta, kunduzi esa 114 ta lola sotildi. Sotish uchun yana qancha lola qoldi?

384. Bir bolada rassomlar haqida 36 ta va yozuvchilar haqida 27 ta marka bor edi. Bola o'z markalarini har bir betga 9 tadan qilib albomga yopishtirdi. Hamma marka necha betni egallagan?

385°. $8 \cdot 7 - 30$ $100 - 7 \cdot 5$ $9 \cdot 6 - 27$ $589 - 126$
 $6 \cdot 7 + 40$ $100 - 4 \cdot 7$ $8 \cdot 9 - 24$ $297 - 183$

386°. Tikuvchi 8 ta paltoga 4 tadan tugma va 5 ta paltoga 6 tadan tugma qadadi. Tikuvchi hammasi bo'lib nechta tugma qadagan?



387. 1) $2\text{ m } 80\text{ sm} + 20\text{ sm}$ $5\text{ m } 07\text{ sm} + 3\text{ sm}$
 $1\text{ m} - 20\text{ sm}$ $1\text{ m} - 2\text{ dm}$

2) Qatorni davom ettiring:

- a) 100, 150, 200, ... (600 gacha)
- b) 700, 730, 760, ... (1000 gacha)
- d) 800, 760, 720, ... (400 gacha)

- 1) $2\text{ birlik} + 8\text{ birlik} = \dots\text{ birlik} = \dots\text{ o'nlik}$
 2) Yozuvlarni qarang va yechishni tushuntiring:

+	3	5	6	+	4	3	5
	2	3	4		3	7	2
	5	9	0		8	0	7

Bunday tushuntiring:

Birliklarni qo'shaman:

$6\text{ birlik} + 4\text{ birlik} = 10\text{ birlik} = 1\text{ o'nlik}$

Alohida birliklar yo'q, shuning uchun yig'indida birliklar o'rniga nol yozaman, o'nliklarni esa o'nliklarga qo'shaman.

O'nliklarni qo'shaman:

$5\text{ o'nlik} + 3\text{ o'nlik} = 8\text{ o'nlik}$

$8\text{ o'nlik} + 1\text{ o'nlik} = 9\text{ o'nlik}$

9 o'nlikni o'nliklar tagiga yozaman.

Tushuntirishni davom ettiring. Ikkinchi misolning yechilishini tushuntiring.

388. Yechishni tushuntiring:



+	547	+	425	+	254	+	761
	213		384		346		239
	760		809		600		1000

389. Yig'indini toping, og'zaki qiyin bo'lganda sonlarni ustun qilib yozib hisoblang:

$$\begin{array}{r} 347 + 603 \\ 235 + 405 \end{array} \quad \begin{array}{r} 534 + 372 \\ 823 + 154 \end{array} \quad \begin{array}{r} 353 + 337 \\ 227 + 643 \end{array} \quad \begin{array}{r} 238 + 300 \\ 630 + 100 \end{array}$$

390. Ishchi 20 ta detalni tayyorlash uchun 5 minut sarfladi. Agar u bir minutda bittadan ortiq detal tayyorlasa, 40 minutda nechta detal tayyorlaydi?

391. KM kesma ABC uchburchakning qaysi tomonlarini kesib o'tadi?



392°. Bir sinfda 30 o'quvchi, ikkinchi sinfda undan 2 ta kam o'quvchi bor. Masalaga shunday savol qo'yingki, u ikki amal bilan yechilsin. Bu masalani yeching.

393°. Yeching va natijani tekshiring:




$$426 + 123 \quad 564 - 312$$

394| $34 - 4 \cdot 5 \quad 54 + 6 : 2 \quad 60 + 20 : 4 - 2$

395. 1) $1 \text{ m} - 4 \text{ dm} \quad 1 \text{ m} - 4 \text{ sm} \quad 1 \text{ dm} - 6 \text{ sm}$

2) Teng shakllarni toping va ayting:



- 1) $8 \text{ o'nlik} = 7 \text{ o'nlik} + 1 \text{ o'nlik} = 7 \text{ o'nlik} + \dots \text{ birlik}$
 2) Yozuvlarni qarang va yechishni tushuntiring.

-	4	7	0	-	7	0	8
-	2	3	6	-	5	2	4
-	2	3	4	-	7	8	4

Bunday tushuntiring:

Birliklarni ayiraman:

Noldan 6 birlikni ayirib bo'lmaydi, shu sababli 7 o'nlikdan 1 o'nlikni olamiz. Buni unutmaslik uchun 7 ning ustiga nuqta qo'yaman.

$1 \text{ o'nlik} = 10 \text{ birlik}$. $10 \text{ birlik} - 6 \text{ birlik} = 4 \text{ birlik}$

O'nliklarni ayiraman:

7 raqami ustidagi nuqta birliklarni ayirishda men 1 o'nlikni olganimni bildiradi.

$6 \text{ o'nlik} - 3 \text{ o'nlik} = 3 \text{ o'nlik}$

3 o'nlikni o'nliklar tagiga yozaman.

Tushuntirishni davom ettiring. Ikkinchi misolning yechilishini tushuntiring.

396. 1) Ayirishni tushuntirish bilan bajaring:


$560 - 237$ $890 - 534$ $470 - 243$ $709 - 354$

Ayirishni qo'shish bilan tekshiring.

397. Bir kitob 120 betli, ikkinchi kitob 115 betli, uchinchi kitob birinchi va ikkinchi kitoblar necha bet bo'lsa, shundan 100 bet kam. Uchinchi kitob necha betli?

398. Quyonlardan biri bir kunda 50 g, boshqasi undan 10 g kam sabzi yedi.

Shunday savol qo'yingki, masala ikki usul bilan yechiladigan bo'lsin. Bu masalani yeching.

399°. $541 + 363$ $340 - 122$ $809 - 237$ $800 - 5 \cdot 9$
 $764 + 216$ $680 - 347$ $407 - 147$ $170 + 5 \cdot 3$

- 1) 8 birlik + 5 birlik = ... birlik = ... o'nlik ... birlik
2) Yechishni tushuntiring:

- 3) Tushuntirish bilan yeching:

$29 + 34$ $329 + 134$

- 400.** Qo'shishni tushuntirib bajaring:

$427 + 156$

$567 + 382$

$124 + 759$

- 401.** $790 - 354$ $267 + 413$ $27 : 9 \cdot 6$ $314 - 2 \cdot 7$

$450 - 136$

$536 + 228$


$81 : 9 \cdot 7$

$6 \cdot 9 - 47$


- 402.** Do'konda bir kunda 215 kg shakar sotildi. Shundan keyin do'konda sotilganiga qaraganda 101 kg ortiq shakar qoldi. Ertalab do'konda qancha shakar bo'lgan?

- 403.** Bir to'p gazmoldan har biriga 2 m dan sarflab 8 ta bolalar plashi tikish mumkin. Agar kattalar plashi-ning har biriga 4 m dan gazmol ketsa, shu to'pdan nechta kattalar plashi tikish mumkin?

- 404°.** Uchta kesma chizing: birining uzunligi 8 sm, ikkinchisining uzunligi birinchisi uzunligining yarmiga teng, uchinchisi ikkinchisidan 3 marta uzun bo'lsin.

- 405°.** Fabrika birinchi oyda 231 ta, ikkinchi oyda undan 8 ta ortiq o'yinchoq yasadi. Yana 264 ta o'yinchoq yasash kerak. Fabrikaga nechta o'yinchoq yasash uchun buyurtma berilgan?
- 

406. Har bir to'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzini toping:



Yig'indini hisoblang: $684 + 273$

Bunday tushuntiring:

Yozaman: ...

Birliklarni qo'shaman: ...

O'nliklarni qo'shaman: ...


8 o'nlik + 7 o'nlik = 15 o'nlik

15 o'nlik = 1 yuzlik 5 o'nlik,

5 o'nlikni o'nliklar ostiga yozaman,

1 yuzlikni yuzliklarga qo'shaman.

Tushuntirishni davom ettiring.



407. Qo'shishni tushuntirib bajaring:

$$357 + 452 \quad 173 + 745 \quad 637 + 190 \quad 234 + 529$$

408. Maktab ko'rgazmasi uchun uchinchi sinfdan 34 ta rasm tanlab olindi: 8 o'quvchi 2 tadan rasm berdi, bir qancha o'quvchi 3 tadan rasm berdi. Nechta o'quvchi 3 tadan rasm bergan?
409. Bolalar 33 ta ertak va 39 ta hikoyalar kitobini ta'mirlashdi. Shu kitoblarning hammasini 8 ta tokchaga baravardan terib qo'yishdi. Har qaysi tokchaga nech-tadan kitob qo'yishgan?

410. O'qituvchida 36 ta daftar bor edi. U 9 ta daftarni stolda qoldirib, qolganlarini har bir o'quvchiga 3 tadan tarqatdi. Nechta o'quvchi daftar olgan?

411°. Tenglamalarni yeching:

$$4 \cdot x = 32, \quad x : 9 = 7.$$

412°. $75 - 4 \cdot 7 + 19$ $3 \cdot 9 - 24 : 8$ $36 : 9 + 54 : 6$



$64 + 32 - 2 \cdot 9$ $9 \cdot 9 - 5 \cdot 8$ $42 : 6 - 32 : 8$

413. $\left(\begin{array}{l} < \\ = \\ > \end{array} \right)$ 1 so'm ... 10 tiyin 8 dm 4 sm ... 84 sm
 1 m ... 10 dm 3 dm ... 30 sm
 6 m 3 dm ... 62 dm 6 dm ... 65 sm

1) Yechishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 468 \\ + 273 \\ \hline 741 \end{array} \quad \begin{array}{r} 79 \\ + 356 \\ \hline 435 \end{array}$$

2) Tushuntirish bilan yeching:

$$359 + 274$$

$$87 + 659$$

414. $535 + 65$ $284 + 638$ $470 - 138$
 $76 + 687$ $357 - 126$ $368 + 75$

415. Bolalar chizgan rasmlar ko'rgazmasiga uch kunda 450 kishi keldi, ulardan 110 kishi birinchi kuni, birinchi kundagidan 20 kishi ortiq ikkinchi kuni keldi. Uchinchi kuni ko'rgazmaga necha kishi kelgan?

416. Bir shahardan ikkinchi shaharga qarab yo'lga chiqqan yuk mashinasi 278 km yurdi. Shundan keyin o'tilgan yo'ldan 165 km kam yo'l qoldi. Shaharlar orasidagi masofa qancha?

417. Yoziq va hisoblang:

- 1) 13 va 8 sonlari ayirmasini 4 marta orttiring.
- 2) 90 va 34 sonlari ayirmasini 8 marta kamaytiring.
- 3) 80 sonidan 36 va 17 sonlari yig'indisini ayiring.

418°.

a	57		58	47
b	36	43		28
$a + b$		70	83	

c		88	100	
b	31	24		11
$c - b$	46		40	69

419°. $437 + 218$ $670 + 280$ $784 + 67$ $78 + 69$



$582 + 170$ $343 + 257$ $83 + 268$ $56 + 93$

420. Sinfda 36 o'quvchi bor. Ularning oltidan biri duradgorlik to'garagiga qatnashadi. Nechta o'quvchi duradgorlik to'garagiga qatnashadi?

421. Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

1 ta qutining massasi	Qutilar soni	Hamma qutining massasi
Bir xil ?	6 ta	48 kg
?	?	72 kg

1) 2 o'nlik 6 birlik = ... birlik

7 o'nlik 3 birlik = ... birlik

2) Tushuntirish bilan yeching:

422. 1) Ayirishni tushuntirish bilan bajaring:

$$674 - 436 \quad 735 - 27 \quad 848 - 309 \quad 546 - 128$$

Bunday tushuntiring: **Yozaman ... Birliklarni ayiraman ... O'nliklarni ayiraman ... Yuzliklarni ayiraman ... Javobni o'qiyman ...**

2) Ayirishni qo'shish bilan tekshiring.

423. Ustaxonada to'rt oyda 950 ta detal tayyorlandi. Oldingi ikki oyda har birida 240 tadan, uchinchi oyda 230 ta detal tayyorlandi. To'rtinchi oyda nechta detal tayyorlangan?

424. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:


Qo'g'irchoqlar — 320 ta

Koptoklar — ?, qo'g'irchoqlardan 245 ta ortiq

Ayiqchalar — ?, koptoklardan 400 ta ortiq

425°. O'tgan yili tumanda 240 ta traktor va undan 90 ta kam paxta terish mashinasi bor edi. Bu yili tumanda traktorlar 260 ta, paxta terish mashinalari 170 ta bo'ldi. Traktorlar soni qancha ortdi? Paxta terish mashinalari soni-chi?

426°. $347 + 415$ $32 : 4 \cdot 7$ $43 + 56 : 7$

 $560 - 238$ $6 \cdot 3 : 9$ $38 - 42 : 6$

1) 1 yuzlik 3 o'nlik = ... o'nlik

1 yuzlik 8 o'nlik = ... o'nlik

2) Ayirmani hisoblang: $678 - 293$.

	6	7	8
-	2	9	3
	3	8	5

Bunday tushuntiring:

Yozaman...

Birliklarni ayiraman: ...

O'nliklarni ayiraman: 7 o'nlikdan 9 o'nlikni ayirib bo'lmaydi. 6 yuzlikdan 1 yuzlikni olaman. (Buni unutmash uchun 6 raqami ustiga nuqta qo'yaman.)

11 yuzlik 7 o'nlik = 17 o'nlik
 17 o'nlik - 9 o'nlik = 8 o'nlik, 8 o'nlikni o'nlik-
 lar ostiga yozaman.
 Tushuntirishni davom ettiring.

427. 1) Ayirishni tushuntirish bilan yeching:

$$429 - 176 \quad 556 - 382 \quad 808 - 326 \quad 764 - 248$$

2) Ayirishni ayirish bilan tekshiring.

428. Kutubxonadan har kuni 615 kishi uyiga kitob oladi. Ulardan 227 tasi kattalar, o'smirlar ulardan 98 ta ortiq, qolganlari bolalar. Qancha bola uyiga kitob oladi?

429. Maktab musobaqalarida 48 o'quvchi qatnashdi. 16 o'quvchi yugurishda, qolgan o'quvchilar esa har bir guruhda 4 tadan bo'lib estafetada qatnashdi. Nechta guruh estafetada qatnashdi?

430. Kesmaning oltidan bir qismi 3 sm. Butun kesmaning uzunligini toping.

431°. Birinchi guruh 32 kg, ikkinchi guruh undan 11 kg kam, uchinchi guruh ikkinchi guruhdan 23 kg ortiq makulatura to'pladi. Uchinchi guruh qancha makulatura to'plagan?

Eslatma: 60 kg makulatura 50 — 60 yilda o'sib etishadigan 1 tup daraxtni qirqishdan saqlaydi.

432°. $455 - 229$ $357 + 238$ $90 - 8 \cdot 7$



$267 + 341$ $752 - 502$ $90 - 9 \cdot 5$

433. Masalaga rasm chizing va uni yeching:

Bahodir 16 ta doiracha chizdi. Ularning to'rtidan bir qismini bo'yadi. Bahodir nechta doirachani bo'yagan?

- 434.** Hayvonot bog'ida ikkita qafasda 37 ta to'ti bor. Ularning birida 20 ta to'ti bo'lsa, ikkinchisida nechta to'ti bor?

Misollarning yechilishlarini tushuntiring:

	4	3	6		2	7	3		2	4
-	2	5	8		-	8	5		-	3
	7	7	8			7	8			8

- 435.** 1) Ayirishni tushuntirish bilan bajaring:
 $944 - 358$ $407 - 259$ $820 - 355$
 2) Ayirishni qo'shish bilan tekshiring.
- 436.** Sun'iy yo'ldoshning Yer sirtidan eng yuqori uchish balandligi 257 km, eng past uchish balandligi 178 km ga teng. Shu balandliklar ayirmasini hisoblang.
- 437.** O'g'li 8 yoshda. Otasi o'g'lidan 5 marta katta. Otasi o'g'lidan necha yosh katta?
- 438.** Ko'p qavatli uyning balandligi 28 m, bir qavatli uy esa undan 24 m past. Ko'p qavatli uy bir qavatli uydan necha marta baland?
- 439°.** $634 - 257$ $650 - 374$ $764 - 87$
 $261 - 73$ $386 + 245$ $668 + 170$
 $543 + 88$ $831 - 272$ $441 - 316$
- 440°.** Ikkita kesma chizing: birinchi kesmaning uzunligi 6 sm, ikkinchisining uzunligi birinchisi uzunligining uchdan bir qismiga teng bo'lsin. Birinchi kesma ikkinchi kesmadan qancha uzun?



VAQT BIRLIKLARI

Soat, minut



1) Soatning kichik mili nima deb ataladi?

Katta mili-chi?

2) Soat mili bir katta chiziqdan ikkinchi katta chiziqchagacha qancha vaqtda o'tadi? Minut mili bitta kichik chiziqdan ikkinchi kichik chiziqqacha qancha vaqtda o'tadi?


3) Minut mili 1 soatda siferblat doirasini necha marta aylanadi?

$$1 \text{ soat} = 60 \text{ min.}$$

4) Minut mili qancha vaqtda doiraning yarmini o'tadi? Doiraning choragini-chi? Bir katta chiziqchadan ikkinchi katta chiziqchagacha bo'lgan masofani qancha vaqtda o'tadi?


441. Dars 45 minut, tanaffus esa 10 minut davom etadi. Bir darsning boshlanishidan ikkinchi darsning boshlanishigacha qancha vaqt o'tadi?

442. 1) Soat qaysi vaqtni ko'rsatayotganini ayting:



2) Har bir soat 10 minutdan keyin qanday vaqtni ko'rsatishini ayting.

443. Rasmga qarab, sabziga, piyozga, rediskaga ajratilgan yer maydoni yuzini toping:



444. Murod uchta kitob o'qidi. Birinchi kitob 256 betli, ikkinchisi 316 betli, uchinchisi 94 betli. Murod hammasi bo'lib necha bet o'qigan? (Yechishni tushuntiring.)

$$256 + 316 + 94 = 666 \text{ (bet)}$$

256
+ 316
94

666

445. Masalani to'ldiring va uni yeching.

Sayohatchilar poyezdda \square km, mashinada poyezdga qaraganda \square km kam, kemada mashinaga qaraganda \square km ortiq yurdilar. Sayohatchilar kemada necha kilometr yurdilar?

446° $248 + 356$ $911 - 348$ $325 + 187$
 $604 - 279$ $512 + 399$ $563 - 315$

- 447°. Ertalab do'konda 760 m shoyi bor edi. Kun oxiriga kelib 196 m qoldi. Qolganiga qaraganda necha metr ortiq shoyi sotilgan?



Javob: 368 m ortiq.

- 448.** Soat modelida soat 1 ni, soat 4 ni, soat 7 ni ko'rsating.
Endi shu vaqtdan 5 min, 15 min, 45 min, 3 min o'tganini ko'rsating.
- 449.** Soat qaysi vaqtni ko'rsatmoqda? Bir vaqtni har xil bayon eting: 1) soat 3 dan 5 minut o'tdi yoki soat 3-u 5 minut; 2) soat 6 dan 15 minut o'tdi yoki soat 6-yu 15 minut, yoki soat 6 dan chorak soat o'tdi; 3) soat 5-u 30 minut yoki besh yarim; 4) 7 dan 45 minut o'tdi yoki 15 minuti kam sakkiz, yoki chorakam sakkiz.



- 450.** Soat ikki yarimni ko'rsatmoqda, 15 minuti kam oltini ko'rsatmoqda, soat sakkiz-u o'ttiz minutni ko'rsatmoqda deyish o'rniga boshqacha nima deyish mumkin?
- 451.** Tikuvchilik ustaxonasida 298 m chit, 205 m satin, satinga qaraganda 127 m kam shoyi bor edi. Tikuvchilik ustaxonasida hammasi bo'lib necha metr gazlama bor? (Yechishni tushuntiring.)

Y e c h i s h

$$\begin{array}{r}
 1) \ 205 - 127 = 78 \text{ (m)} \qquad \qquad \qquad 298 \\
 2) \ 298 + 205 + 78 = 581 \text{ (m)} \qquad \qquad + 205 \\
 \qquad \qquad \qquad \qquad \qquad \qquad \qquad \qquad \underline{78} \\
 \qquad \qquad \qquad \qquad \qquad \qquad \qquad \qquad 581
 \end{array}$$

452. Har bir amalni alohida yozma bajarib, ifodalarning qiymatini toping:

$$343 + 458 - 574 \qquad 549 - (432 - 68)$$


$$840 - 267 - 325 \qquad 321 + (610 - 516)$$

Namuna: $771 - 258 - 354 = 159$

$$\begin{array}{r} \overset{\cdot}{7} \overset{\cdot}{7} \overset{\cdot}{1} \\ - 258 \\ \hline 513 \end{array} \qquad \begin{array}{r} \overset{\cdot}{5} \overset{\cdot}{1} \overset{\cdot}{3} \\ - 354 \\ \hline 159 \end{array}$$

453. Hilola 8 yoshda, onasi 32 yoshda, buvisi 60 yoshda. Buvisi onasidan necha yosh katta? Hilola onasidan necha marta yosh?

454. Rasmga qarab berilgan shaklning yuzini toping:



455°. Misollarni ustun qilib yozing va qo'shing:

$$357 + 274 + 78 \qquad 247 + 179 + 98 + 167$$

$$493 + 346 + 23 \qquad 318 + 257 + 88 + 49$$

456°. Elektr stansiyasi qurilishida 15 ta kran, 19 ta ekskavator va bir necha yuk mashina — hammasi bo'lib 90 ta mexanizm ishladi. Qurilishda nechta yuk mashina ishlagan?



457. Ona 20 ta nok sotib oldi. Bolalar nokning beshdan birini yeyishdi. Nechta nok qoldi?

458. Dars soat 9 da boshlandi va 45 minut davom etdi. Dars qachon tamom bo'lganini soat modelida ko'rsating.
459. O'quvchi uyidan soat sakkiz yarimda chiqdi va maktabga soat 8-u 45 minutda keldi. O'quvchi yo'lda necha minut bo'lgan? Yechimni soat modelida tekshiring.

Sutka



- 1) Ertalab, kunduzi, kechqurun va kechasi **sutkani** tashkil qiladi.
- 2) Soatning katta mili bir sutkada soat siferblatini 24 marta, soatning kichik mili esa 2 marta aylanib chiqadi.

$$1 \text{ sutka} = 24 \text{ soat}$$

460. Bugun kechki soat 8 dan ertaga kechki soat 8 gacha necha sutka o'tadi? Indinga soat 8 gacha-chi?
461. Yarim sutka necha soatga teng? Sutkaning to'rttdan biri necha soatga teng?

462. Nega sutkaning har xil vaqtida soat millari bir xil holatda bo'lishi mumkin?



463. Kerakli hisoblashlarni yozma bajarib, tenglamalarni yeching:

$$x + 385 = 596 \quad x - 321 = 456 \quad 826 - x = 512$$

464. Stanokda 1 soatda 6 ta detal ishlanar edi. Stanokni takomillashtirishgandan so'ng 1 soatda 8 ta detal ishlandi. Stanokda 9 soatda nechta ortiq detal ishlanadi? (Masalani ikki usul bilan yeching.)


$$465^\circ. \begin{array}{ll} 364 - 127 + 292 & 564 - (176 - 98) \\ 543 + 399 - 674 & 600 - (45 + 169) \end{array}$$

466°. Yer maydoniga 280 ta terak, undan 162 ta kam qayin, terak va qayin birgalikda qancha bo'lsa, shuncha eman ko'chati o'tqazildi. Maydonga hammasi bo'lib qancha daraxt ko'chati o'tqazilgan?



Yil, oy, hafta

467. Har bir soat kunduzgi qaysi vaqtni ko'rsatmoqda?



468. O'quvchilar 45 minut dars davomida 5 minut og'zaki hisob bajarishdi, 15 minut misollar yechishdi, qolgan vaqtda esa masalalar yechishdi. O'quvchilar necha minut masalalar yechishgan?

469. Qishloqdan shahargacha avtobus 30 minut yuradi. Kunduzi soat 1-u 10 minutda yo'lga chiqadigan avtobus shaharga qachon yetib keladi?



	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
II	5 12 19 26	2 9 16 23	1 8 15 22 29	5 12 19 26	3 10 17 24 31	7 14 21 28
IS	6 13 20 27	3 10 17 24	2 9 16 23 30	6 13 20 27	4 11 18 25	1 8 15 22 29
CH	7 14 21 28	4 11 18 25	3 10 17 24 31	7 14 21 28	5 12 19 26	2 9 16 23 30
P	8 15 22 29	5 12 19 26	4 11 18 25	8 15 22 29	6 13 20 27	3 10 17 24
J	9 16 23 30	6 13 20 27	5 12 19 26	9 16 23 30	7 14 21 28	4 11 18 25
SH	3 10 17 24 31	7 14 21 28	6 13 20 27	3 10 17 24	8 15 22 29	5 12 19 26
VA	4 11 18 25	1 8 15 22 29	7 14 21 28	4 11 18 25	2 9 16 23 30	6 13 20 27
	IYUL	AVGUST	SENTABR	OKTABR	NOYABR	DEKABR
II	5 12 19 26	2 9 16 23 30	6 13 20 27	4 11 18 25	1 8 15 22 29	6 13 20 27
IS	6 13 20 27	3 10 17 24 31	7 14 21 28	5 12 19 26	2 9 16 23 30	7 14 21 28
CH	7 14 21 28	4 11 18 25	1 8 15 22 29	6 13 20 27	3 10 17 24	1 8 15 22 29
P	8 15 22 29	5 12 19 26	2 9 16 23 30	7 14 21 28	4 11 18 25	2 9 16 23 30
J	9 16 23 30	6 13 20 27	3 10 17 24	8 15 22 29	5 12 19 26	3 10 17 24 31
SH	3 10 17 24 31	7 14 21 28	4 11 18 25	2 9 16 23 30	6 13 20 27	4 11 18 25
VA	4 11 18 25	1 8 15 22 29	5 12 19 26	3 10 17 24 31	7 14 21 28	5 12 19 26

Taqvimni qarang va ayting:

- 1) Yil qaysi oy va qaysi kundan boshlanadi?
- 2) Bir yilda necha oy bor? Ularni tartibi bilan ayting. Har qaysi oy necha kundan iborat?
- 3) Sizning tug'ilgan kuningiz qaysi oyda? Shu oy necha kundan iborat?

Shuncha kundan iborat oylarni aytib chiqing.

- 4) Yetti sutka yoki 7 kun — bu bir hafta. Hafta kunlarini tartibi bilan aytib chiqing.

Bu yil 21- mart haftaning qaysi kuniga to'g'ri keladi?

8-Mart-chi? 1-Yanvar-chi? 1-Sentabr-chi?

470. 1) Aprel oyidan keyin qaysi oy keladi? Noyabr oyidan oldin qaysi oy keladi?

2) Yil boshidan to'la 2 oy, 5 oy, 11 oy o'tgandan keyin qaysi oy keladi?

471. 1) Uch oy yil faslini tashkil qiladi.
 2) Rasmga qarab: bir yildagi qish oylari sonini, bahor oylari sonini, yoz oylari sonini va kuz oylari sonini ayting.



Shu oylar nomlarini ayting. Bahorning, yozning, kuzning va qishning birinchi kunini ayting.

472. 42 ta motor ta'mirlanishi kerak. Brigada reja bo'yicha har kuni shu motorlardan 6 tasini ta'mirlashi kerak edi. Lekin u har kuni 7 ta motorni ta'mirladi. Topshiriq muddatidan necha kun oldin bajarilgan?
473. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Poyezdda — 106 km] ?
Avtobusda — ?, 29 km ortiq	
Piyoda — 48 km	

474*. $623 - 521 + 485$ $246 + (604 - 547)$
 $574 + 67 - 612$ $902 - (26 + 354)$

- 475*. Stolda 20 ta olma bor edi. Har birida 6 tadan 2 taqsimchada olma qo'yildi. Stolda hammasi bo'lib nechta olma bo'ldi?



Qo'shimcha mashqlar

1. Hisoblashlarni bajaring:

- | | | |
|----------------|-------------|-------------|
| 1) $362 + 416$ | $260 + 26$ | $327 + 401$ |
| $381 + 16$ | $63 + 406$ | $425 + 551$ |
| 2) $218 + 472$ | $721 + 181$ | $137 + 371$ |
| $367 + 123$ | $193 + 314$ | $352 + 452$ |
| 3) $508 + 342$ | $731 + 209$ | $730 + 73$ |
| $709 + 137$ | $819 + 74$ | $66 + 427$ |
| 4) $135 + 283$ | $573 + 382$ | $426 + 392$ |
| $634 + 194$ | $193 + 672$ | $292 + 357$ |
| 5) $432 - 211$ | $368 - 120$ | $499 - 499$ |
| $783 - 181$ | $278 - 27$ | $728 - 708$ |
| 6) $430 - 217$ | $760 - 47$ | $940 - 106$ |
| $860 - 327$ | $670 - 608$ | $340 - 312$ |
| 7) $683 - 134$ | $625 - 316$ | $904 - 134$ |
| $963 - 917$ | $756 - 728$ | $705 - 460$ |
| 8) $837 - 269$ | $622 - 355$ | $763 - 475$ |
| $535 - 149$ | $712 - 243$ | $925 - 639$ |

2. Misollarni yeching va tekshiring:

- | | | |
|------------|-------------|-------------|
| $735 - 66$ | $185 + 169$ | $840 - 420$ |
| $830 - 15$ | $196 + 379$ | $356 + 497$ |

3. Quyidagi misollarni, ayirish va qo'shishni og'zaki hisoblash qiyin bo'lsa, yozma bajarish mumkin:

- | | |
|----------------------------|----------------------|
| 1) $156 - 4 \cdot 9 + 582$ | $81 : 9 + 203 - 176$ |
| $342 + 6 \cdot 8 - 276$ | $64 : 8 + 437 - 209$ |
| 2) $(748 - 716) : 8$ | $(346 - 298) : 6$ |
| $(837 - 765) : 9$ | $(520 - 478) : 7$ |

4. Tushirib qoldirilgan raqamlarni o'rniga qo'yib, misollarni ko'chiring:

$$\begin{array}{r} + 5 \square \square \\ \square 3 6 \\ \hline 7 8 8 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + \square \square 3 \\ 6 7 9 \\ \hline 9 8 2 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 7 8 8 \\ \square 3 \square \\ \hline 5 \square 8 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 8 6 \square \\ 2 \square 2 \\ \hline \square 1 4 \end{array}$$

5. Ifodalarni yozib, qiymatlarini hisoblang:

1) 19 va 81 sonlari yig'indisini 13 ta kamaytirish.

2) 65 va 27 sonlari ayirmasini 28 ta orttirish.

3) 32 va 18 sonlari ayirmasiga shu sonlar yig'indisini qo'shish.

6. Tenglamalarni yeching:

$$x + 384 = 911$$

$$x \cdot 9 = 81$$

$$x - 256 = 209$$

$$49 : x = 7$$

$$x : 7 = 9$$

$$700 - x = 348$$

7. Do'konga sotish uchun 145 ta kitob keltirildi. Bular-dan har boylamida 20 donadan 5 boylam bir nomdagi kitob va bir xilda 3 boylam boshqa nomdagi kitob bor. Boshqa nomdagi kitobning har boylamida nechtadan kitob bo'lgan?

8. Oshxonada 35 kg yog', yog'dan 81 kg ortiq go'sht, go'shtdan 18 kg kam un ishlatildi. Oshxonada necha kilogramm un ishlatilgan?

9. Non do'konida 148 ta yopgan non, 190 ta bulka non, 123 ta teshikkulcha sotildi. Non do'konida teshikkulchadan nechta ko'p yopgan non va yopgan nondan nechta ko'p bulka non sotilgan?



10. Uch qishloqda 944 kishi yashaydi. Birinchi qishloqda 265 kishi, ikkinchisida 302 kishi yashaydi. Uchinchi qishloqda necha kishi yashaydi?
11. 1) Tomonlari 8 sm va 6 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing.
2) Perimetri shu to'g'ri to'rtburchak perimetriga teng kvadrat chizing.
12. 1) Perimetri 3 dm 2 sm bo'lgan kvadrat chizing.
2) Har birining perimetri 1 dm 8 sm bo'lgan ikkita to'g'ri to'rtburchak chizing. Yana shunday perimetrlil to'g'ri to'rtburchaklar chizish mumkinmi?

1000 ICHIDA
KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

Og'zaki ko'paytirish va bo'lish

476. Lolaning ukasi 1 yosh-u 4 oylik. Ukasi necha oylik?
477. Bir bola yozda buvisinikida 2 hafta-yu 4 kun dam oldi. Bola buvisinikida necha kun dam oldi?
478. Faqat javoblarni yozing va forzasda berilgan ko'paytirish jadvaliga qarab o'zingizni tekshiring. Jadvalni eslab qoling:

2·2										
3·2	3·3									
4·2	4·3	4·4								
5·2	5·3	5·4	5·5							
6·2	6·3	6·4	6·5	6·6						
7·2	7·3	7·4	7·5	7·6	7·7					
8·2	8·3	8·4	8·5	8·6	8·7	8·8				
9·2	9·3	9·4	9·5	9·6	9·7	9·8	9·9			


479. 8 ta bir xil xaltada 24 kg kartoshka bor. Xaridor 4 xalta kartoshka va 2 kg sabzi sotib oldi. Xaridor necha kilogramm sabzavot sotib olgan?

480. Sochiq, paypoq va ro‘molcha 1000 so‘m turadi. Sochiq 500 so‘m, paypoq undan 120 so‘m arzon turadi. Ro‘molcha necha so‘m turadi?

481. $47 + 27 : 9$ $76 - 9 + 4 \cdot 8$ $7 \cdot (45 - 36)$

482. $725 - 256$ $450 - 264$ $767 - 689$ $283 - 96$
 $151 + 82$ $816 + 98$ $578 + 233$ $781 + 209$

483°. Yuk tashiydigan poyezdda 53 ta, yo‘lovchi tashiydigan poyezdda undan 34 ta kam vagon, elektr poyezdda esa yo‘lovchi tashiydigan poyezddagiga qaraganda 7 ta kam vagon bor. Elektr poyezdda nechta vagon bor?

484°. $3 \cdot 8 : 6$ $21 : 7 + 6 \cdot 8$ $48 + 38$ $87 - 0$
 $2 \cdot 9 : 3$ $32 : 8 + 6 \cdot 9$ $31 - 19$ $0 - 0$

485. Qizcha soat 7 dan 10 minut o‘tganda ertalabki badantarbiya mashqlarini boshlab, 15 minutdan keyin tugatdi. Qizcha ertalabki badantarbiyani qachon tugatgan?

486. Agar soatning soat mili bilan minut mili o‘rinlari almashtirilsa, u holda soat qaysi vaqtni ko‘rsatadi?



487. $2 \text{ m} : 5$ | $30 \text{ dm} - 3 \text{ sm}$ | $2 \text{ so‘m} - 20 \text{ tiyin}$
 $2 \text{ dm} : 5$ | $15 \text{ sm} - 5 \text{ mm}$ | $3 \text{ so‘m} - 3 \text{ tiyin}$

488. 1) Yig‘indini ko‘paytma bilan almashtiring:

$0 + 0 + 0 + 0 = \square \cdot \square$

$1 + 1 + 1 + 1 + 1 = \square \cdot \square$

$0 \cdot a = 0$
 $1 \cdot a = a$

2) Ko‘paytmani yig‘indi bilan almashtiring:

$1 \cdot 3$

$0 \cdot 2$

$1 \cdot 7$


$0 \cdot 6$

489. $1 \cdot 7$ $(47 - 46) \cdot 9$ $1 \cdot 73$
 $0 \cdot 8$ $(15 - 15) \cdot 6$ $0 \cdot 84$


490. Bir oyda tovuqlar uchun 27 kg, o'rdaklar uchun 40 kg don sarflandi. Bitta tovuqqa bir oyda 3 kg, bitta o'rdakka 5 kg don sarflandi. Qaysi biri ortiq: tovuqlarmi yoki o'rdaklarmi? Nechta ortiq?

491°. Maktab zaliga 60 ta yangi o'rindiqlik sotib olindi. 6 ta o'rindiqlikni sahnaga, qolganlarini har bir qatorga 9 tadan qilib pastga qo'yildi. Nechta yangi o'rindiqlik qator hosil bo'ldi?

492°. Sonlarni ustun qilib yozib, ayirmani hisoblang. Natijani tekshiring:

 $479 - 175$ $556 - 382$ $808 - 235$

493. $1 \cdot 8$ $0 \cdot 9$ $1 \cdot 6$ $(65 - 64) \cdot 47$
 $1 \cdot 32$ $0 \cdot 46$ $0 \cdot 6$ $0 \cdot (27 + 18)$

494.  $1 \dots 3 = 3$ $0 \dots 7 = 7$ $1 \dots 5 = 5$
 $1 \dots 3 = 4$ $0 \dots 7 = 0$ $0 \dots 6 = 6$

495. Sotuvchi bir necha quti konfet va shuncha quti pecheniy oldi. Bir quti konfetning massasi 4 kg, bir quti pecheniyning massasi 3 kg. Agar konfetlar 20 kg bo'lsa, sotuvchi necha kilogramm pecheniy olgan?

496. Misollarni ustun qilib yozing va ularni tekshirish bilan yeching:

$74 + 547$ $639 + 284$ $732 - 261$ $524 - 83$

497. Tomonlari $AB = 3$ sm, $BC = 5$ sm bo'lgan $ABCD$ to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetrini hisoblang.

498°. Noma'lum sonni toping:

$x + 215 = 481$ $526 - x = 378$ $x - 791 = 101$
 $x : 3 = 9$ $x \cdot 2 = 18$ $72 : x = 8$

$$499^\circ. 92 - 34 - 48 : 8$$

$$54 - 24 : 6 + 13$$



$$21 : 3 - 35 : 7$$

$$32 : 4 + 64 : 8$$

$$500. \begin{array}{cc} 1 \cdot 9 & 0 \cdot 7 \\ 1 + 9 & 0 + 7 \end{array} \quad \begin{array}{cc} 1 \cdot (5 + 6) & 0 \cdot (6 + 7) \\ 1 \cdot 5 + 6 & 0 \cdot 6 + 7 \end{array}$$

$$501. \begin{array}{l} 1) \quad 7 \cdot 1 = 7 \\ \quad \quad 16 \cdot 0 = 0 \end{array} \quad \begin{array}{l} 42 \cdot 1 = 42 \\ \quad \quad 9 \cdot 0 = 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} a \cdot 1 = a \\ a \cdot 0 = 0 \end{array}$$

2) Tushuntirish bilan yeching:

$$\begin{array}{ccccc} 9 \cdot 1 & 6 \cdot 0 & 27 \cdot 1 & (38 + 16) \cdot 1 & 56 : 7 \cdot 0 \\ 1 \cdot 7 & 0 \cdot 8 & 52 \cdot 0 & (60 - 18) \cdot 0 & 40 : 8 \cdot 1 \end{array}$$





502. 15 kg uzum va undan 3 marta kam olma sotib olindi. Uzumga qaraganda necha kilogramm kam olma sotib olingan?

$$503. \begin{array}{cccc} 1 \cdot 23 & (48 + 36) \cdot 1 & 1 \cdot 79 & 1 \cdot 6 \cdot 0 \\ 76 \cdot 1 & (90 - 89) \cdot 34 & 0 \cdot 99 & 45 - (0 \cdot 82) \end{array}$$

504. Misollarni tekshirish bilan yeching:

$$457 - 188 \quad 365 - 196 \quad 823 - 365$$

505. Geometrik shakllarning nomlarini ayting. Ko'pburchakning perimetrini toping:



506°. Zamira 12 o'ram qizil jun ip va undan 4 marta kam yashil jun ip sotib oldi. Zamira necha o'ram jun ip sotib olgan?

$$507^\circ. \begin{array}{ccccc} 4 \cdot 7 & 9 \cdot 4 & 81 : 9 \cdot 7 & 7 \cdot 3 + 7 \cdot 6 & 75 - 48 : 8 \end{array}$$



$$6 \cdot 8 \quad 7 \cdot 5 \quad 56 : 7 \cdot 6 \quad 6 \cdot 4 + 6 \cdot 8 \quad 87 - 81 : 9$$

$$508. \begin{array}{l} 1) \quad 8 : 1 = \square \\ \quad \quad 3 : 1 = \square \end{array} \quad \begin{array}{l} 7 : 1 = \square \\ 16 : 1 = \square \end{array}$$

$$a : 1 = a$$

2) Tushuntirish bilan yeching:

$$\frac{1 \cdot 4 = \square}{4 : 1 = \square}$$

$$4 : 1 = \square$$

$$4 : 4 = \square$$

$$\frac{1 \cdot 15 = \square}{15 : 1 = \square}$$

$$15 : 1 = \square$$

$$15 : 15 = \square$$

$$\frac{1 \cdot 67 = \square}{67 : 1 = \square}$$

$$67 : 1 = \square$$

$$67 : 67 = \square$$

Sonni 1 ga bo'lganda bo'linmada qanday son hosil bo'ldi? Sonni shu sonning o'ziga bo'lganda bo'linmada qanday son hosil bo'ldi?

509. $(18 : 3) : 6$ $(4 + 5) : (4 + 5)$ $45 : 1 + 8$
 $(18 : 3) : 1$ $(37 + 17 + 8) : 1$ $45 : (1 + 8)$

510. 1) 12 kg murabboni 6 ta bir xil shisha bankaga quyishdi. Shunday 8 ta bankaga necha kilogramm murabbo ketadi?


2) 18 kg murabboni solish uchun shunday bankalardan nechitasi kerak bo'lishini bilishni talab qiladigan teskari masala tuzing va yeching.

511. Maktab oshxonasiga 27 kg olma, undan 3 marta kam nok keltirildi. Oshxonaga hammasi bo'lib necha kilogramm meva keltirildi?

512°.

7 marta orttiring:					7 marta kamaytiring:					
6	8	1	9	0	49	28	56	7	21	35

513°. Tomoni 4 sm bo'lgan kvadrat chizing.

514°. $7 : 1$ $18 : 3 : 6$ $(14 + 18) : 8$ $9 \cdot 9$
 $7 \cdot 1$ $18 : 3 : 1$ $7 \cdot (14 - 5)$ $54 : 6$
 $7 \cdot 0$ $18 : 3 \cdot 1$ $52 - (16 + 7)$ $72 : 8$

515. $\begin{pmatrix} + \\ - \end{pmatrix}$ $0 \dots 4 = 4$ $7 \dots 0 = 0$ $9 \dots 1 = 9$
 $0 \dots 4 = 0$ $7 \dots 0 = 7$ $1 \dots 6 = 6$

516. 1) $0 : 3 = \square$ $0 : 15 = \square$
 $0 : 6 = \square$ $0 : 25 = \square$

$0 : a = 0$ $a : 0$
--

2) Tushuntirish bilan yeching:

$$\begin{array}{cccc} 0 + 0 + 0 + 0 & 0 \cdot 9 & 1 \cdot 0 & 16 + 6 : 1 \\ 1 + 1 + 1 + 1 & 0 : 7 & 0 + 1 & 16 + 0 : 6 \end{array}$$

517. Javobi 0 ga teng bo'lgan misollarni yozing:

$$\begin{array}{cccc} 23 \cdot 1 \cdot 0 & (8 - 8) \cdot 7 & 8 : 1 + 9 & 0 : 6 + 4 \\ 81 : 9 : 1 & 32 : 8 : 1 & 8 : 1 + 0 & 0 : 6 \cdot 4 \end{array}$$


518. Tikuvchida 12 ta tugma bor edi. U hamma tugmalarining uchdan bir qismini paltoga qadadi. Tikuvchi paltoga nechta tugma qadagan?



519. Buvisi 63 yoshda, onasi buvisidan 29 yosh kichik. Otasi onasidan 4 yosh katta. Otasi necha yoshda?

520°. 22- dekabrda Toshkentda kun 7 soat davom etadi. Bu sutkada tun necha soat davom etadi?

521°. $683 - 134$ $625 - 315$ $137 + 125$

 $732 - 308$ $756 - 728$ $494 - 49$

522. 1) Lentaning uchdan bir qismining uzunligi 8 sm. Lentaning uzunligini toping.


2) Lentaning uzunligi 15 sm. Lentaning beshdan bir qismining uzunligini toping.

523. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang:

Bo'linuvchi	81	$13+23$	$67-67$	$0 \cdot 76$	$7+9$
Bo'luvchi	$7+2$	$9 \cdot 1$	9	4	1

524. Omborda sabzavot saqlanmoqda. Ombordan 385 kg sabzavot olib ketilgandan keyin unda olib ketilganidan 157 kg ortiq sabzavot qoldi. Dastlab omborda necha kilogramm sabzavot bo'lgan?

525. 1) Bu shakllarning nomini ayting:




2) To'rtburchaklar orasidan to'g'ri to'rtburchaklarni toping. To'g'ri to'rtburchaklar orasidan kvadratlarni ko'rsating.

526. $620 - 470 + 250$ $830 - 740 + 170$
 $550 - 280 + 340$ $410 - 320 + 260$

527°.

Qo'shiluvchi	46	164	336		36	
Qo'shiluvchi	118			238		28
Yig'indi		274	478	587	554	165

528°. $56 : 7 + 5 \cdot 8$ $42 : 7 + 8 \cdot 9$ $4 \cdot (100 - 92)$
 $9 \cdot 9 + 35 : 5$ $64 : 8 + 6 \cdot 9$ $(52 - 51) \cdot 8$

529. Kesmaning uzunligi 24 sm. Bu kesmaning uchdan bir qismining uzunligini toping.

530. 1) 9, 6, 3, 1, 7 sonlarining har birini 3 marta orttiring.
 2) 27, 15, 21, 24, 6 sonlarining har birini 3 marta kamaytiring.
 3) 14 dan 63 gacha bo'lgan sonlar ichidan 7 ga bo'linuvchi sonlarni ayting.

531. 1) $4 : 4 = \square$ $38 : 38 = \square$
 $4 : 1 = \square$ $49 : 1 = \square$

$a : a = 1$
$a : 1 = a$


2) Tushuntirish bilan yeching:

$\frac{1 \cdot 14 = 14}{14 : 14 = \square}$	$\frac{1 \cdot 37 = 37}{37 : 37 = \square}$	$\frac{48 \cdot 1 = 48}{48 : 48 = \square}$
$14 : 1 = \square$	$37 : 1 = \square$	$48 : 1 = \square$

532. Ikki poyezd ikki shahardan bir-biriga qarab yo'lga chiqdi. Birinchi poyezd ikkinchisi bilan uchrashguncha 262 km, ikkinchisi undan 198 km ortiq yo'l yurdi. Shaharlar orasidagi masofani toping.

533. Misollarni ustun qilib yozing va ularni yeching:
 $548 + 47 + 263$ $31 + 512 + 199$ $29 + 610 + 232$

534°. Teatrda 26 ta birinchi sinf o'quvchisi va 38 ta ikkinchi sinf o'quvchisi keldi. Ulardan 42 tasi o'g'il bolalar. Teatrda nechta qiz bola kelgan?

535°.  $0 \cdot 2 + 28$ $9 \cdot 8 - 71$ $1 \cdot 7 + 25$
 $16 : 8 \cdot 0$ $28 : 4 + 2$ $32 : 8 \cdot 4$

536. 1) Do'konga har bir yashikda 8 kg dan 72 kg olxo'ri va shuncha yashikda har birida 9 kg dan nok keltirildi. Do'konga necha kilogramm nok keltirilgan?

2) $5 \cdot (12 : 2)$ ifoda bo'yicha shunga o'xshash masala tuzing.


537. 27 kg asalni 9 ta shisha bankaga baravar qilib va 40 kg asalni 8 ta bidonga baravar qilib quyildi. Bidonning sig'imi bankaning sig'imidan necha kilogramm ortiq?

538. Misollarni ustun qilib yozing va ularni yeching:

$154 + 361 + 28 + 164$ $259 + 98 + 318 + 246$

539. Shunday 3 ta kesma chizingki, birinchi kesmaning uzunligi 8 sm, ikkinchi kesmaning uzunligi birinchi kesma uzunligining yarmiga teng, uchinchi kesmaning uzunligi ikkinchi kesmaning uzunligidan 6 sm uzun bo'lsin.

540°. Idishda 40 kg yog' bor edi. Undan bir bankaga 5 kg, ikkinchi bankaga 4 kg yog' quyib olindi. Idishda necha kilogramm yog' qoldi? Masalani turli usullar bilan yeching.

541°.  $9 \cdot 3 + 6 \cdot 7$ $5 \cdot (100 - 97)$ $76 \cdot 1$
 $(84 - 79) \cdot 8$ $9 \cdot (46 - 38)$ $0 \cdot 67$

Qo'shimcha mashqlar

1. Hisoblashlarni bajaring:

$$\begin{array}{lll} 1) & 45 : 5 \cdot 3 & 73 + 54 : 9 \cdot 3 & (91 - 28) : 7 \\ & 30 : 6 \cdot 9 & 26 + 56 : 7 \cdot 3 & (48 - 32) : 8 \end{array}$$

$$\begin{array}{lll} 2) & 10 : 10 \cdot 8 & 60 : 10 \cdot 9 & 9 \cdot (45 - 37) \\ & 10 \cdot 2 : 5 & 40 : 5 \cdot 4 & 6 \cdot (72 - 63) \end{array}$$

$$\begin{array}{lll} 3) & 74 : 74 \cdot 92 & 0 \cdot 16 \cdot 23 & 26 \cdot 1 - 13 \\ & 31 : 31 \cdot 1 & 0 : 58 \cdot 10 & 84 \cdot 0 + 17 \end{array}$$

$$\begin{array}{lll} 2. & 8 : x = 4 & x + 14 = 40 & c - 6 = 49 \\ & b \cdot 3 = 27 & c \cdot 6 = 30 & 24 \cdot b = 24 \end{array}$$

3. Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini hisoblang:

1) 9 bilan 3 ning ko'paytmasini 8 ta orttirish.

2) 45 bilan 5 ning bo'linmasini 9 ta kamaytirish.

4. Zag'izg'on 27 yil yashashi, qaldirg'och zag'izg'on-dan 3 marta kam, olaqarg'a esa qaldirg'ochdan 40 yil ortiq yashashi mumkin. Olaqarg'a necha yil yashashi mumkin?

5. Bir to'pda 25 m chit bor. Har bir ko'ylakka 3 m chit ketsa, to'pdagi chit 8 ta ko'ylakka yetadimi?

6. Bir bosh karam 3 kg, oshqovoq undan 5 marta og'ir. Karam oshqovoqdan necha kilogramm yengil?

7. Yopilmagan siniq chiziq chizing, u to'rtta kesmadan tuzilgan bo'lsin. Uning uzunligini toping.

Jadvaldan tashqari ko'paytirish va bo'lish

542. Namunadan foydalanib hisoblash usulini tushuntir-
ring va ko'paytmani toping:

$$\begin{array}{r} 10 \cdot 3 = 30 \\ \hline 1 \text{ o'nlik} \cdot 3 = 3 \text{ o'nlik} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 100 \cdot 4 = 400 \\ \hline 1 \text{ yuzlik} \cdot 4 = 4 \text{ yuzlik} \end{array}$$

$$10 \cdot 5 \quad 10 \cdot 3 \quad 100 \cdot 9 \quad 100 \cdot 6 \quad 100 \cdot 3$$

543. Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasini qo'lab, ko'paytmani toping:

$2 \cdot 10$

$7 \cdot 10$

$8 \cdot 100$

$5 \cdot 100$

● Har bir misolda birinchi ko'paytuvchi va ko'paytmani taqqoslang:

$4 \cdot 10 = 40$

$4 \cdot 100 = 400$

$6 \cdot 10 = 60$

$6 \cdot 100 = 600$

Sonni 10 ga ko'paytirish uchun bu songa o'ng tomondan bitta nol yozib qo'yish kerak; sonni 100 ga ko'paytirish uchun bu songa o'ng tomondan ikkita nol yozib qo'yish kerak.

544. 1) Yelim xaltada 10 ta tugma bor. Shunday 6 ta xaltada nechta tugma bor?

2) Bu masalaga 2 ta teskari masala tuzing va yeching.



545. Vagondan 6 ta yo'lovchi tushdi va unda tushganlardan 10 marta ortiq yo'lovchi qoldi. Vagonda nechta yo'lovchi bo'lgan?

546. Tikuvchilik ustaxonasida 90 m chit bor edi. Har biriga 4 m dan sarflab, bir nechta ko'ylak tikilgandan keyin ustaxonada 58 m chit qoldi. Nechta ko'ylak tikilgan?

$547^* \quad 36 + 7 \cdot 8 - 80$

$72 : 8 \cdot 7$

$2 \cdot 9 + 7$

$40 - 3 \cdot 9 + 37$

$20 : 4 \cdot 6$

$6 \cdot 7 + 9$

548* Uchta kesma chizing: birining uzunligi 12 sm, ikkinchisi birinchisidan 2 marta qisqa, uchinchisi ikkinchisidan 5 sm uzun bo'lsin.



549.



$0 \dots 8 = 0$

$7 \dots 1 = 7$

$9 \dots 0 = 0$

$0 \dots 8 = 8$

$7 \dots 1 = 6$

$9 \dots 0 = 9$

550. Sinfning bo'yi 8 m. Bu yo'lak bo'yining oltidan bir qismiga teng. Yo'lakning bo'yini toping.

551. Ko'paytirishga doir misoldan 10 ga yoki 100 ga bo'lishga doir misol tuzing:

$$3 \cdot 10 = 30$$

$$4 \cdot 100 = 400$$

$$5 \cdot 10 = 50$$

$$8 \cdot 10 = 80$$

$$7 \cdot 100 = 700$$

$$6 \cdot 10 = 60$$

Har bir ustundagi misollarni ko'rib chiqing. Bo'lishga doir misollar qanday tuzilganini tushuntiring. Bo'linuvchi va bo'linmani taqqoslang. Nimani sezdingiz?

$$3 \cdot 10 = 30$$

$$7 \cdot 10 = 70$$

$$9 \cdot 100 = 900$$

$$30 : 10 = 3$$

$$70 : 10 = 7$$

$$900 : 100 = 9$$

Yaxlit sonni 10 ga bo'lish uchun bu sonning o'ng tomonidan bitta nolni olib tashlash kerak; 100 ga bo'lish uchun ikkita nolni olib tashlash kerak.

552. $70 \cdot 10 : 100$

$$10 \cdot 8 : 10$$

$$90 - 10 : 10$$

$$400 : 10 : 10$$

$$10 \cdot 9 \cdot 10$$

$$60 - 60 : 10$$

553. Gul do'koniga 507 tup gul ko'chati keltirildi. Ertalab 97 tup, kunduzi 136 tup gul sotildi. Sotish uchun yana necha tup gul ko'chati qolgan?

554°. $5 \cdot 2 \cdot 10$

$$80 : 10$$

$$10 \cdot 5 \cdot 1$$

$$72 - 9 \cdot 7$$

$$700 : 100$$

$$20 : 10$$

$$6 \cdot 10 : 1$$

$$(72 - 9) : 7$$

$$900 : 100$$

$$40 : 10$$

$$10 \cdot 7 : 1$$

$$(97 - 16) : 9$$

555°. Bolalar bog'chasiga sovg'a uchun har birida 9 kg dan konfet bo'lgan 4 quti va har birida 8 kg dan pecheniy bo'lgan 3 quti olib kelindi. Bolalar bog'chasiga necha kilogramm shirinlik olib kelingan?



$$\begin{array}{lll}
 556. & 6 : 6 + 6 & 100 : 10 \cdot 7 & 1 \cdot 1 + 0 \\
 & 80 : 10 \cdot 9 & 0 \cdot 7 + 82 & 9 : 9 - 1 \\
 & 0 : 4 + 65 & 50 \cdot 10 - 400 & 900 : 100 \cdot 4
 \end{array}$$

557. Namunadan foydalanib bo'linmani toping va hisoblash usulini tushuntiring.

Namuna:

$$\begin{array}{r}
 90 : 9 = 10 \\
 \hline
 9 \text{ o'nlik} : 9 = 1 \text{ o'nlik}
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 600 : 6 = 100 \\
 \hline
 6 \text{ yuzlik} : 6 = 1 \text{ yuzlik}
 \end{array}$$

$$40 : 4 \quad 70 : 7 \quad 800 : 8 \quad 500 : 5$$

558. Bolalar bog'chasiga nok olib kelindi. 6 kun mobaynida har kuni 7 kg dan nok yeyildi va 18 kg nok qoldi. Bolalar bog'chasiga necha kilogramm nok olib kelingan?

Yechish

1) $7 \cdot 6 = 42$ (kg)

2) $42 + 18 = 60$ (kg) *Javob:* 60 kg.

Har bir amalni bajarib, nimani bilib oldingiz?

559. Bolalar bog'chasiga nok olib kelindi. 6 kun mobaynida har kuni 7 kg dan nok yeyildi va yeyilganiga qaraganda 16 kg ortiq nok qoldi. Bolalar bog'chasiga necha kilogramm nok olib kelingan?

Yechish rejasi


1) 6 kunda qancha nok ishlatilgan?

2) Bolalar bog'chasida qancha nok qolgan?


3) Bog'chaga qancha nok olib kelingan?

Har bir savolning yechimini ayting.

560°. Maktab bog'ida 8 o'quvchi ishlamoqda. Bu sinfdagi o'quvchilarning to'rtidan bir qismiga teng. Sinfdan qancha o'quvchi bor?

561°. $18 : 9 \cdot 7$ $80 - 7 \cdot 7 + 9$ $(43 - 7) : 4$
 $54 : 9 \cdot 8$ $47 + 9 - 3 \cdot 6$ $8 \cdot (12 - 8)$
 $32 : 8 \cdot 7$ $45 : 9 + 8 \cdot 8$ $(65 + 16) : 9$

562. Har bir bo'lakni qanday hosil qildik?



$$\begin{array}{ll} 20 \cdot 3 & 60 : 3 \\ 3 \cdot 20 & 100 : 2 \end{array}$$

1)
$$\begin{array}{r} 20 \cdot 3 \\ \hline 2 \text{ o'nlik} \cdot 3 = 6 \text{ o'nlik} \\ 20 \cdot 3 = 60 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 60 : 3 \\ \hline 6 \text{ o'nlik} : 3 = 2 \text{ o'nlik} \\ 60 : 3 = 20 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 100 : 2 \\ \hline 10 \text{ o'nlik} : 2 = 5 \text{ o'nlik} \\ 100 : 2 = 50 \end{array}$$

2) Yozuvlarni qarang va yechimni tushuntiring:

$$4 \cdot 20 = 20 \cdot 4 = 80$$

563. $3 \cdot 2$ $9 : 3$ $10 : 2$ $5 \cdot 2$ $4 \cdot 20$
 $30 \cdot 2$ $90 : 3$ $100 : 2$ $50 \cdot 2$ $7 \cdot 10$
 $300 \cdot 2$ $900 : 3$ $1000 : 2$ $500 \cdot 2$ $2 \cdot 40$

564.

2 marta orttiring			
10	30	200	300


3 marta kamaytiring				
30	60	300	600	900

565. Yuk stansiyasiga neft ortilgan ikki poyezd yetib keldi. Ularning birida 37 ta, ikkinchisida 4 ta ortiq platforma bor. 60 ta platforma bo'shatildi. Bo'shatish uchun yana nechta platforma qoldi?

566. 1) Oshxonaga 8 ta bir xil xaltada 24 kg un olindi. Bir kunda 15 kg un ishlatildi. Necha xalta un ishlatilgan?
2) Oshxonaga 8 ta bir xil xaltada 24 kg un olindi. Bir kunda 5 xalta un ishlatildi. Necha kilogramm un ishlatilgan?

567. $100 - 40 : 2$ $60 - 60 : 3$ $800 : 4 - 80 : 4$
 $(80 + 20) : 5$ $20 + 20 \cdot 2$ $500 \cdot 2 - 50 \cdot 2$

568°. Tikuvchilik ustaxonasida 38 g'altak qora va 35 g'altak oq ip bor edi. Bir kunda 18 g'altak ip ishlatildi. Necha g'altak ip qoldi?

569°. $100 - 80 : 2$ $2 \cdot 3 \cdot 10$ $600 : (3 \cdot 2)$
 $(100 - 80) : 2$ $3 \cdot 10 \cdot 2$ $600 : 3 \cdot 2$

570. Misollarni yechishni tushuntiring:

$200 \cdot 3$ $800 : 4$ $400 \cdot 2$ $600 : 3$
 $20 \cdot 2$ $80 : 4$ $20 \cdot 5$ $100 : 2$

Yozuvni ko'zdan kechiring va yechishni tushuntiring:

$$80 \cdot 3$$

$$\frac{80 \cdot 3}{8 \text{ o'nlik} \cdot 3 = 24 \text{ o'nlik}}$$

$$80 \cdot 3 = 240$$

$$240 : 4$$

$$\frac{240 : 4}{24 \text{ o'nlik} : 4 = 6 \text{ o'nlik}}$$

$$240 : 4 = 60$$

571. Har qaysi ustundagi misollar juftini taqqoslang va ularni yeching:

$$\begin{array}{ccccc} 7 \cdot 4 & 9 : 3 & 32 : 8 & 6 \cdot 9 & 63 : 7 \\ 70 \cdot 4 & 90 : 3 & 320 : 8 & 60 \cdot 9 & 630 : 7 \end{array}$$

572. O'quvchilar 15 tup daraxtni oqlashdi, bu daraxtlar maktab hovlisidagi hamma daraxtlarning yarmiga teng. Maktab hovlisida hammasi bo'lib nechta daraxt bor?

573. Tarozi bir pallasiga har qaysisi 2 kg dan 5 ta tosh, ikkinchi pallasiga esa ikkita bir xil tosh qo'yishdi. Tarozi muvozanatga keldi. Tarozi ikkinchi pallasida qanday toshlar turgan?

574. Bir bola 3 ta kitob o'qidi. Ular hammasi bo'lib 653 betlik. Birinchi kitob 256 betlik, ikkinchisi 159 betlik. Uchinchi kitob necha betlik?

575°. Tushuntirish bilan yeching:

$$\begin{array}{cccc} 200 \cdot 3 & 800 : 4 & 400 \cdot 2 & 320 : 8 \\ 490 : 7 & 720 : 8 & 600 : 3 & 810 : 9 \\ 630 : 7 & 300 : 3 & 800 : 2 & 540 : 6 \end{array}$$


576°. Sportchi o'yingohda 1000 m ga yugurishi kerak edi. U 400 m li davrani ikki marta yugurib o'tdi. Sportchi yana necha metr yugurishi kerak?



577. 1) Do'konda 38 kg mosh, 104 kg guruch, 46 kg no'xat sotildi. Do'konda necha kilogramm don sotilgan? Masalaga ifoda tuzing va uni ustun qilib yeching.
2) Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

$$800 \text{ km} \left[\begin{array}{l} \text{I} - 360 \text{ km} \\ \text{II} - 275 \text{ km} \\ \text{III} - ? \end{array} \right.$$

Kvadrat rasmini qarab chiqing va uning tomonlari uzunligini detsimetrlarda o'lchang:



Tomonining uzunligi 1 dm bo'lgan kvadratning yuzi 1 kvadrat detsimetr (kv dm) deb ataladi. Bu yuzning yangi o'lchov birligi. 1 kvadrat detsimetrda necha kvadrat santimetr borligini sanang.

578. Kvadrat santimetrlarda yozing:

$$1 \text{ kv dm} = 100 \text{ kv sm} \quad 10 \text{ kv dm} = \square \text{ kv sm}$$

579. Sinf doskasining yuzini kvadrat detsimetrlarda o'lchang.

$$580. \quad 320 : 4 + 746 \qquad 762 - 60 \cdot 9 \qquad 420 : 6 + 389$$

$$480 : 8 + 843 \qquad 907 - 70 \cdot 8 \qquad 150 : 3 - 44$$

581. Tenglamalarni yeching:

$$x + 318 = 511 \qquad x - 805 = 113 \qquad 901 - x = 456$$

582°. Savatda 60 ta pomidor bor edi. Tushki ovqatda 10 ta, kechki ovqatda 15 ta pomidor ishlatildi. Savatda necha dona pomidor qoldi? Masalani turli usullar bilan yeching.

$$583°. \quad 5 \cdot 200 - 30 \qquad 400 : 2 + 600 : 2 \qquad 0 \cdot 9 + 0$$



$$600 : 3 + 800 \qquad (400 + 600) : 2 \qquad 0 : 4 + 4$$

584. Xarid qiymatini toping:

	Narxi	Miqdori	Qiymati
Daftar	30 so'm	6 ta	?] ?
Kitob	100 so'm	3 ta	?] ?

$90 : 30 = \square$

 $30 \cdot 3 = 90$
 $90 : 30 = 3$

$60 : 10 = \square$

 $10 \cdot 6 = 60$
 $60 : 10 = 6$

585. Misollarni qanday yechishni tushuntiring:

$$80 : 20 \quad 70 : 10 \quad 100 : 50 \quad 60 : 30 \quad 20 : 10$$

586. $90 : 10 \quad 100 : 50 \quad 800 : 40 \quad 1000 : 50$
 $80 : 40 \quad 900 : 30 \quad 400 : 20 \quad 400 : 80$

587. Yaxmalakni tekislash uchun ikki bochkadan suv se-pishdi. Har bir bochkada 100 chelakdan suv bor edi. Birinchi bochkadan 64 chelak, ikkinchi bochkadan 91 chelak suv olindi. Birinchi bochkada ikkinchi boch-kadagiga qaraganda necha marta ko‘p suv qoldi? Har bir amalni alohida yozib, masalani yeching.

588°. $20 - 2 \cdot 9 + 76$ $32 : 4 \cdot 6$ $0 \cdot 9 : 3$

589°. Xo‘jalik issiqxonadan shaharga uch mashina pomidor yubordi. Bir mashinada 150 ta yashik, ikkinchi ma-shinada birinchidagidan 100 ta yashik ortiq, uchinchi mashinada birinchi va ikkinchi mashinada qancha bo‘lsa, shuncha yashik pomidor yuborildi. Uchinchi mashinada nechta yashik pomidor yuborilgan?



Sonni ko‘paytmaga bo‘lish




590. Doiraning radiusi nimaga teng ekangligini o‘lchang. Doiraga tegishli nuqtalarni ayting.


591. Xo‘jalikda 70 ta avtomashina, ulardan 10 ta ortiq traktor va traktorlardan 4 marta kam kom-bayn bor.

Masalaga savol qo‘ying va uni yeching.

592. 3 juft bir xil paypoq 210 so‘m turadi. 560 so‘mga necha juft paypoq sotib olish mumkin?

Rasmni ko‘rib chiqing va masalani yeching:





Sonning ko'paytmaga qanday bo'linganini tushuntiring:

$$12 : (3 \cdot 2) = 12 : 6 = 2$$



Sonni ko'paytmaga bo'lishning boshqa usulini qarab chiqing.

$$12 : (3 \cdot 2) = (12 : 3) : 2 = 4 : 2 = 2$$

Sonni ko'paytmaga quyidagicha bo'lish mumkin: oldin sonni ko'paytuvchilardan biriga bo'linadi, keyin natija ikkinchi ko'paytuvchiga bo'linadi.

593. Ikki usul bilan hisoblang:

$16 : (2 \cdot 4)$

$80 : (4 \cdot 2)$

$200 : (5 \cdot 2)$

$18 : (3 \cdot 3)$

$70 : (5 \cdot 2)$

$400 : (4 \cdot 2)$

594. $90 : 30 \cdot 30$

$100 - 90 : 3$

$92 - 80 : 8$

$20 : 10 \cdot 50$

$47 + 60 : 2$

$20 \cdot 3 - 54$

$80 : 20 \cdot 10$

$81 - 70 : 7$

$62 + 50 : 5$

595°. Katakli qog'ozdan yuzi 2 kv sm ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak qirqib oling. Bu to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.

596°. $36 : 9 + 9 \cdot 4$

$4 \cdot (68 - 48)$

$0 \cdot 1 : 18$



$81 : 9 + 8 \cdot 7$

$3 \cdot (18 + 12)$

$1 \cdot 9 : 9$

597. Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

Bitta bankaning sig'imi	Bankalar soni	Hamma bankalarning sig'imi
Bir xil $\frac{2}{5}$	20 ta 10	100 l 50 l

598. $\begin{matrix} < \\ > \\ = \end{matrix}$ $4 \cdot 9 \dots 35$ $680 - 180 \dots 700$
 $7 \cdot 6 \dots 40$ $130 + 270 \dots 500$

90 : 30 bo'linma ketma-ket bo'lish usulida va sinov usulida qanday topilganini tushuntiring:

1) Ketma-ket bo'lish usuli:

$$90 : 30 = 90 : (10 \cdot 3) = (90 : 10) : 3 = 9 : 3 = 3.$$

2) Sinov usuli:

$$30 \cdot 1 = 30,$$

90 emas (1 soni to'g'ri kelmaydi)

$$30 \cdot 2 = 60,$$

90 emas (2 soni to'g'ri kelmaydi)

$$30 \cdot 3 = 90 \text{ (3 soni to'g'ri keladi)}$$

Demak, $90 : 30 = 3$.

599. Bo'linmani ketma-ket bo'lish usuli bilan toping:

$$800 : 40 \quad 600 : 20 \quad 1000 : 500$$

600. Bo'linmani ixtiyoriy usul bilan toping:

$$80 : 20 \quad 100 : 5 \quad 60 : 20 \quad 800 : 200$$

601. Kutubxonaning bir tokchasida 43 ta kitob, ikkinchi tokchasida 50 ta kitob bor edi. 30 ta kitob bolalarga berildi. Nechta kitob qoldi?

Masalani turli usullar bilan yeching.

602. Masalalarni turli usullar bilan yeching:

1) Bir bola 36 ta olma, ikkinchi bola 28 ta olma terdi. Bu olmalardan 3 tasini tashlab yuborishdi. Bolalarda nechta olma qoldi?

2) Bir to'pda 32 m gazlama bor. Undan bir xaridorga 6 m, ikkinchisiga 8 m gazlama sotildi. To'pda necha metr gazlama qoldi?

603°. $(54 + 27) : 9$ $32 : 8 \cdot 7$ $100 - 10 \cdot 9$
 $(28 + 35) : 7$ $45 : 5 \cdot 6$ $90 - 8 \cdot 8$

604°. Yosh tabiatshunoslar 26 savat olxo'ri, undan 6 savat ortiq nok, noklardan 5 savat kam olma terishdi. Yosh tabiatshunoslar necha savat olma terishgan?



Yig'indini songa ko'paytirish

605. Hamma bayroqchalarni turli usullar bilan sanang:



$$(4 + 3) \cdot 2$$

Birinchi usul:

$$(4 + 3) \cdot 2 = 7 \cdot 2 = 14$$

Ikkinchi usul:

$$(4 + 3) \cdot 2 = 4 \cdot 2 + \\ + 3 \cdot 2 = 8 + 6 = 14$$

Avval yig'indini hisoblash, keyin uni songa ko'paytirish kerak.

Har qaysi qo'shiluvchini songa ko'paytirish va topilgan natijalarni qo'shish kerak.

- 606.** Stolda har birida 3 tadan olma va 2 tadan nok bo'lgan 4 ta taqsimcha turibdi. Stolda hammasi bo'lib qancha meva turibdi? Masalani yechishning ikki usulini tushuntiring:



I usul:

$$(3 + 2) \cdot 4 = \\ = 5 \cdot 4 = 20 \text{ (dona)}$$

II usul:

$$3 \cdot 4 + 2 \cdot 4 = \\ = 12 + 8 = 20 \text{ (dona)}$$

- 607.** Og'zaki tushuntirishlar bilan yeching:

$$(2 + 8) \cdot 8$$

$$(10 + 8) \cdot 5$$


$$(9 + 1) \cdot 9$$

- 608.** 1) Birinchi son 800, ikkinchi son undan 4 marta kichik, uchinchi son ikkinchi sondan 5 marta kichik. Uchinchi sonni toping.
2) „Uchinchi son ikkinchi sondan necha marta kichik?“ savolli teskari masala tuzing.


- 609°.** 600 ta tuxum 30 tadan qilib qutilarga solindi. Necha qutiga tuxum solingan?

- 610°.** Qog'ozdan tomonlari 2 dm va 3 dm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak qirqing, uni kvadrat detsimetrlarga bo'ling va yuzini toping.

- 611.** $ABCD$, $KMPN$ — ochiq siniq chiziqlar. $OBCE$ — yopiq siniq chiziq.



612. Rasmda tasvirlangan shakllarning nomlarini ayting:



613. Tushirib qoldirilgan sonlarni ayting:

$$42 \text{ sm} = \square \text{ dm } \square \text{ sm} \qquad 83 \text{ mm} = \square \text{ sm } \square \text{ mm}$$

$$35 \text{ sm} = \square \text{ dm } \square \text{ sm} \qquad 61 \text{ mm} = \square \text{ sm } \square \text{ mm}$$





614. Qulay usul bilan hisoblang:

$$(3 + 7) \cdot 6 \qquad (10 + 6) \cdot 3 \qquad (30 + 6) + 5$$

$$(4 + 5) \cdot 8 \qquad (10 + 2) \cdot 7 \qquad (40 + 7) + 50$$

615. Masalani har xil usul bilan yeching:

Har biri 100 soʻmdan 2 ta sharf va har biri 60 soʻmdan 2 ta qalpoq sotib olindi. Bu narsalar uchun qancha pul toʻlangan?



616. Archa uchun 3 ta qiz bola 4 tadan qizil oʻyinchoqlar, 3 ta oʻgʻil bola 5 tadan koʻk oʻyinchoqlar yasashdi. Bolalar hammasi boʻlib nechta oʻyinchoq yasashgan?

$$617^\circ. \quad 8 \cdot 7 - 38 \quad 5 \cdot 3 + 5 \cdot 9 \quad 32 : 8 \cdot 7$$

$$54 : 6 + 27 \quad 4 \cdot 10 + 5 \cdot 10 \quad 45 : 5 \cdot 6$$

618°. Tomonlari 3 sm va 5 sm ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Shu to'g'ri to'rtburchak tomonlari uzunliklarining yig'indisini toping.



$$619. \quad x + 18 = 228 \quad x - 2 = 100 \quad x \cdot 5 = 40$$


$$23 \cdot 4$$

1) Qulay usul bilan hisoblang:

$$(8 + 2) \cdot 3 \mid (10 + 3) \cdot 6 \mid (30 + 1) \cdot 2 \mid (20 + 7) \cdot 4$$

2) 27, 38, 16, 49 sonlarini $27 = 20 + 7$ namuna bo'yicha yig'indi shaklida tasvirlang.

3) Yechishni tushuntiring:



$$23 \cdot 4 = ?$$

$$\begin{array}{r} \diagdown \\ 20 \quad 3 \end{array}$$

$$23 \cdot 4 = (20 + 3) \cdot 4 = 20 \cdot 4 + 3 \cdot 4 = 80 + 12 = 92$$


620. Tushuntirish bilan yeching:

$$17 \cdot 4 \quad 15 \cdot 6 \quad 19 \cdot 3 \quad 16 \cdot 5 \quad 25 \cdot 4$$

621. Ona bir nechta karamli somsani 20 so'mdan va shuncha go'shtli somsani 70 so'mdan sotib oldi. Karamli somsalar uchun 100 so'm to'ladi. Ona go'shtli somsalar uchun qancha to'lagan?

622. Odil kitobning 17 betini o'qimoqchi edi, lekin u 3 marta ortiq o'qidi. Odil necha bet kitob o'qigan?

623°. Yashikda 20 ta sut quyilgan shisha banka bor. 5 ta xaridor 2 bankadan sut sotib oldi. Shundan keyin yashikda necha banka sut qoldi?

624°. $6 \cdot 9 - 56 : 7$ $40 \cdot 2 - 20 \cdot 3$ $32 \cdot 0$
 $8 \cdot 8 - 3 \cdot 9$ $(80 - 50) \cdot 2$ $32 \cdot 1$

Sonni yig'indiga ko'paytirish

625. Agar 1 m gazlama 200 so'm tursa, 1000 so'mga necha metr gazlama sotib olish mumkin? 100 so'm tursa-chi? 500 so'm tursa-chi?

626. Tajriba maydonidagi jo'yakdan 24 kg pomidor terib olindi. Bu pomidorlarni 1 kg (3 kg; 4 kg) dan qilib qog'oz xaltalarga solish uchun nechta qog'oz xalta kerak bo'ladi?

1) Yozuvni ko'rib chiqing va tushuntirishni o'qing:

$$4 \cdot 23 = 4 \cdot (20 + 3) = 4 \cdot 20 + 4 \cdot 3 = 80 + 12 = 92$$

Agar ikkinchi ko'paytuvchi ikki xonali son bo'lsa, u holda uni o'nliklar va birliklarga ajratish, keyin esa birinchi ko'paytuvchini alohida o'nliklarga va birliklarga ko'paytirish va natijalarni qo'shish mumkin.

2) Ikkinchi ko'paytuvchini o'nliklar va birliklarga ajratib, ko'paytmanni toping:

$$2 \cdot 45; \quad 3 \cdot 32; \quad 4 \cdot 19.$$

3) Bir xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirganda ko'paytuvchilarning o'rinlarini almashtirish mumkin:

$$5 \cdot 16 = 16 \cdot 5 = 80 \qquad 4 \cdot 23 = 23 \cdot 4 = 92$$

627. $2 \cdot 17$ $5 \cdot 14$ $18 \cdot 3 + 26$ $60 : 30 \cdot 15$
 $3 \cdot 26$ $2 \cdot 46$ $12 \cdot 7 - 14$ $80 : 20 \cdot 24$



628. 1) Kitob 27 betli. O'quvchi kitobning uchdan bir qismini o'qidi. O'quvchi kitobning necha betini o'qigan?

2) O'quvchi kitobning beshdan bir qismini o'qidi. Bu kitobning 12 betiga teng. Kitob hammasi bo'lib necha betli?

629. $a \cdot b$ ifodaning qiymatini toping:

1) $a = 4$, $b = 13$; 2) $a = 34$, $b = 2$.

630°. Uzunligi 6 sm bo'lgan bitta kesma, uzunligi undan 5 sm ortiq bo'lgan yana bitta kesma chizing. Ikkinchi kesmaning uzunligini detsimetrlarda va santimetrlarda ifodalang.

631°.  $12 \cdot 5$ $3 \cdot 9$ $28 \cdot 3$ $9 + 19$
 $27 \cdot 3$ $60 : 20$ $81 : 9$ $84 - 72$

632. 1) Sonning yig'indiga qanday ko'paytirilganini tushuntiring:

$$7 \cdot (3 + 5) = 7 \cdot 8 = 56$$

2) Sonni yig'indiga ko'paytirishning boshqa usulini tushuntiring:

$$7 \cdot (3 + 5) = 7 \cdot 3 + 7 \cdot 5 = 21 + 35 = 56$$

Sonni yig'indiga ko'paytirish uchun sonni har bir qo'shiluvchiga ko'paytirib, so'ngra ko'paytmalarni qo'shish kerak.

633. Ifodalarni hisoblash uchun qoidani qo'llang:

$$9 \cdot (20 + 6) \qquad 4 \cdot (200 + 20)$$


634. Qulay usul bilan hisoblang:

$$16 \cdot (2 + 8) \qquad 5 \cdot (4 + 9) \qquad 7 \cdot (4 + 5)$$

635. Buvisi 20 ta lola piyozi, nabirasi undan 4 marta kam lola piyozi ekdi. Shundan keyin ularda 10 ta piyoz qoldi. Dastlab hammasi bo'lib ularda nechta lola piyozi bo'lgan?

636. Oilada 100 kg sabzavot tuzlandi. Karam 70 kg, qolgani bodring bo'lgan. Agar har bir chelakka 10 kg dan bodring solingan bo'lsa, bodringga nechta chelak ishlatilgan?

637°.



$12 : 2 \dots 12 : 3$

$2 + 0 \dots 5 - 0$

$18 : 3 \dots 9 : 3$

$6 \cdot 1 \dots 6 + 1$

638°. $(37 + 23) : 20$

$(84 - 30) : 9$

$100 : 2$



$(48 - 39) : 3$

$(100 - 85) \cdot 3$

$60 : 3$

639. 56 soni 8 dan necha marta katta?

56 soni 8 dan necha birlik katta?

10 soni 90 dan necha marta kichik?

10 soni 90 dan necha birlik kichik?

640. Masalalarning o'xshashligi va farqini aniqlang va ularni yeching.

1) Bir o'ramda 24 ta daftar bor, ikkinchi o'ramda esa birinchidagidan 8 ta kam. Ikkinchi o'ramdagi daftarlarni o'quvchilarga 4 tadan bo'lib berishdi. Nechta o'quvchi daftar olgan?

2) Bir o'ramda 24 ta daftar bor, ikkinchi o'ramda esa birinchidagidan 8 ta kam. Ikkala o'ramdagi daftarlarni o'quvchilarga 4 tadan bo'lib berishdi. Nechta o'quvchi daftar olgan?

641. $12 \cdot 2$

$5 \cdot 13$

$4 \cdot 4 + 8 \cdot 8$

$47 + 30 - 27$

$12 \cdot 3$

$6 \cdot 13$

$7 \cdot 7 - 5 \cdot 4$

$74 - 14 + 32$

642. Ko'chatlarga sepish uchun 64 chelak suv tayyorlab qo'yildi. Har bir jo'yakka 6 chelakdan suv sepildi. Agar 8 ta jo'yakka suv sepilgan bo'lsa, necha chelak suv qoldi?

643°. $12 \cdot 4$ $7 \cdot 13$ $9 \cdot 9 - 3 \cdot 7$ $36 + 50 - 60$

644°. Birining uzunligi 8 sm, ikkinchisining uzunligi birinchisining uzunligidan 2 marta qisqa, uchinchisining uzunligi ikkinchisining uzunligidan 4 sm uzun bo'lgan uchta kesma chizing.



645.

4 ·	11	13	15	17	19	21	23	25
3 ·	12	14	16	18	20	22	24	26

646. Jadvalga qarab masala tuzing va uni yeching:

Bitta tokchadagi o'yinchoqlar	Tokchalar soni	Hamma o'yinchoqlar
5 ta	11 ta	? - ?
6 ta	9 ta	? - ?

647. 1) $a + b$ ifodani o'qing. Agar $a = 47$, $b = 34$ bo'lsa, bu ifodaning qiymati qanday topilganini tushuntiring:

$$\frac{a + b}{47 + 34 = 81}$$

2) a) $a = 3$ va $k = 14$; b) $a = 39$ va $k = 2$ bo'lsa, $a \cdot k$ ifodaning qiymatini toping.

648. Bir sigirdan bir kunda 24 l, ikkinchi sigirdan 3 marta kam sut sog'ib olindi. Bu ikki sigirdan bir kunda necha litr sut sog'ib olingan?

649. Bolalarga yangi yil sovg'asini tayyorlash uchun 24 kg olma, olmadan 3 kg ortiq mandarin, mandarindan 3 kg kam apelsin sotib olindi. Sovg'a uchun necha kilogramm apelsin sotib olingan?

650°. Pochta konvertining tomonlari uzunliklarining yig'indisini hisoblang.

651°. $3 \cdot 14$ $16 \cdot 6$ $18 \cdot 2 : 4$ $13 \cdot 6 - 38$



$2 \cdot 19$ $17 \cdot 3$ $21 \cdot 3 : 7$ $37 \cdot 2 - 52$

652. Bir o'quvchi qiz 60 betli kitob o'qimoqda. Birinchi kuni u kitobning uchdan bir qismini o'qidi, ikkinchi kuni 18 bet o'qidi. O'qiladigan yana necha bet qoldi?

653. Ifodani yozing: a va c sonlarining ayirmasi.

1) $a = 100$ va $c = 39$; 2) $a = 450$ va $c = 270$ bo'lganda bu ifodaning qiymatini toping.

654. Birinchi operator kompyuterda 6 soatda 24 bet, ikkinchi operator shuncha vaqtda 30 bet teradi. Qaysi operator bir kunda ko'p bet teradi va necha bet ortiq teradi?

655. Tikuvchilik ustaxonasida har birida 21 m dan 3 to'p va uzunligi 15 m bo'lgan 1 to'p gazlama bor edi. Agar bir pardaga 11 m gazlama ketsa, bu gazlamalar 7 ta parda tikish uchun yetadimi?

656°. $14 \cdot 4 + 14$ $8 \cdot 8 - 4 \cdot 7$ $240 + 160 - 183$

$13 \cdot 6 - 13$ $7 \cdot 7 + 3 \cdot 9$ $860 - 160 + 250$

657°. 3 ta kesma chizing: birinchisining uzunligi 12 sm, ikkinchisi birinchisidan 4 marta qisqa, uchinchisi ikkinchisidan 5 sm uzun bo'lsin.




658.

13	14	15	16	17	18	19	20	21
----	----	----	----	----	----	----	----	----

 · 3

659. Shakl qismlari yuzlarini hisoblang:




660. Quyidagi masalalar nimasi bilan o'xshash va nimasi bilan farq qilishini aniqlang; har bir amalni alohida yozib, ularni yeching:

1) Bir to'pda 18 m, boshqasida undan 6 m ortiq gazlama bor edi. Ikkinchi to'pdagi gazlamadan har biriga 3 m gazlama sarflab, bir xil ko'ylaklar tikildi. Nechta ko'ylak tikilgan?

2) Bir to'pda 18 m, boshqasida undan 6 m ortiq gazlama bor edi. Har biriga 3 m dan gazlama sarflab, hamma gazlamadan bir xil ko'ylaklar tikildi. Nechta ko'ylak tikilgan?


661. $70 - 7 \cdot 6$ $3 \cdot 32 - 49$ $48 : 8 \cdot 0$
 $90 - 2 \cdot 28$ $83 - 9 \cdot 5$ $56 : 7 \cdot 1$

662. AB kesma qanday ikkita kesmadan tuzilgan? AO va OB kesmalarni uzunliklari bo'yicha taqqoslang:



663°. $394 + 720 : 9$ $908 - 900 : 30$
 $543 + 630 : 7$ $1000 : 50 + 231$

664°. $3 \cdot 200 < 700$ $60 \dots 32 \cdot 3$
 $900 : 30 \dots 20$ $80 \dots 25 \cdot 2$



665. 1) Har bir kesma qanday qismga bo'ldi? Har qaysi kesmaning qanday qismi ajratilgan?



2) Qizcha 15 m lik kanopning beshdan bir bo'lagini qirqib oldi. Kanopning qirqib olingan bo'lagining uzunligi qancha?

3) Kitob 80 betlik. Bola bu kitobning to'rttdan bir bo'lagini o'qib chiqdi. Bola yana necha bet o'qishi kerak?

4) Po'lat she'rning yarmini yodladi. U 12 satr she'r yodladi. Bu she'r necha satrli bo'lgan?

5) Somsa 20 so'm turadi. Omon bitta somsa olib, o'zidagi pulning beshdan bir qismini sarf qildi. Omonda qancha so'm pul bo'lgan?

666. $640 : 8$ $140 : 7 \cdot 5$ $500 - 240 : 6$

$560 : 7$ $180 : 6 : 6$ $230 + 90 \cdot 4$

667. $80 : \square = 20$ $34 - \square = 4$ $\square \cdot 4 = 200$

$\square : 30 = 2$ $\square : 87 = 1$ $420 : \square = 60$

668. $42 \cdot 2$ $42 \text{ o'nlik} \cdot 2$ $540 : 9$

$24 \cdot 4$ $24 \text{ o'nlik} \cdot 4$ $630 : 7$



Hisoblash usulini tushuntiring:

$$260 \cdot 3 = (200 + 60) \cdot 3 = 200 \cdot 3 + 60 \cdot 3 = \\ = 600 + 180 = 780$$

669. Tushuntirish bilan yeching:

$190 \cdot 4$

$230 \cdot 3$


$160 \cdot 5$

$180 \cdot 3$

670°. $a = 32$ bo'lganda ifodalarning qiymatini toping:

$$5 \cdot a \qquad (47 - a) : 3 \qquad 80 - a : 8$$

671°. $2 \cdot 4 \cdot 12$ $(110 - 20) : 30$ $8 \cdot 7 + 459$

 $3 \cdot 21 : 7$ $120 - 40 : 2$ $14 \cdot 4 - 26$

672. Ko'z bilan chamalab, teng yuzga ega bo'lgan shakllarni ayting:




1



2



3



4

673. Bitta g'altakdagi ipning uzunligi 180 m. To'rtta shunday g'altakdagi ipning uzunligini toping.

674. Aluminiyli bronza tayyorlash uchun 90 kg mis, undan 9 marta kam aluminiy olindi. Necha kilogramm aluminiy olingan?


675. Bir sekundda tovush havoda 330 m masofaga tarqaladi. 2 sekundda tovush qancha masofaga tarqaladi?

676. Bitta nasos 4 minutda 320 chelak, ikkinchi nasos 3 minutda 210 chelak suvni tortib chiqaradi. Bu ikki nasos bir minutda necha chelak suv tortadi?

677. $360 \cdot 2 - 400$ $700 - 70 \cdot 8$ $2 \text{ m} - 5 \text{ sm}$
 $120 \cdot 6 + 18$ $600 - 270 : 9$ $2 \text{ m} : 5$

678. Qishda qo'ygaga bir kunda 2 kg silos beriladi. 6 ta qo'ygaga bir haftada berish uchun qancha silos kerak bo'ladi?

679°. Daftaringizga tomoni 3 sm bo'lgan kvadrat chizing. Uning perimetrini toping.

680°. $29 \cdot 3$ $80 : 20 \cdot 9$ $(100 - 19) : 9$
 $7 \cdot 14$ $30 \cdot 2 : 30$ $(45 + 19) : 8$
 $48 \cdot 2$ $100 : 50 \cdot 8$ $(24 + 65) : 1$

Qo'shimcha mashqlar

1. 2 so'mda necha tiyin bor? 5 so'mda-chi? 3 so'mda-chi? 3 so'm 12 tiyinda-chi? 250 tiyinda necha so'm va necha tiyin bor? 375 tiyinda-chi?
2. Agar xarid qilingan narsa 57 so'm; 75 so'm bo'lsa, 100 so'mdan qancha qaytim olish kerak?
3. 2 soatda; 3 soatda; 10 soatda necha minut bor?




4. Ifodalang:

metrlarda:	tiyinlarda:	minutlarda:
400 sm	2 so'm 30 tiyin	2 soat 30 min
500 dm	6 so'm	3 soat 10 min
30 dm	6 so'm 05 tiyin	2 soat 05 min

5. $60 \cdot 5$ $7 \cdot 30$ $180 : 3$ $160 : 4$ $480 : 6$
 $50 \cdot 4$ $9 \cdot 40$ $320 : 4$ $810 : 9$ $720 : 8$
 $40 \cdot 6$ $8 \cdot 50$ $240 : 6$ $490 : 7$ $560 : 7$
6. $63 : 9$ $28 : 7$ $320 : 80$ $810 : 9$ $700 : 7$
 $64 : 8$ $36 : 6$ $560 : 8$ $480 : 8$ $800 : 80$
 $49 : 7$ $40 : 5$ $630 : 7$ $450 : 5$ $900 : 90$
7. $927 - 792$ $358 + 642$ $871 - 456$ $900 - 638$
 $208 - 159$ $589 + 372$ $963 - 727$ $604 - 187$


8. Katakli qog'ozdan eni 3 sm bo'lgan tasma qirqing. Bu tasmadan perimetri 20 sm ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak qirqing.

9. Har bir rasmda nechta uchburchak va nechta to'rtburchak bor? Ular orasidan kvadratlarni toping:




Vaqt birliklari (davomi)


681. 1) Bu shakllarda qanday umumiylik bor? 2- shakl boshqalaridan nimasi bilan farqlanadi?



1



2




3



4

2) Rasmni ko'rib chiqing va masala tuzing:



Siz endi yil, oy, hafta, sutka vaqt birliklari ekanini bilasiz.

Yodlab oling: bir yil 12 oydan iborat.

Bir oy 30 yoki 31 sutkadan iborat (fevralda 28 yoki 29 sutka bor).

	YANVAR	FEVRAL	MART	APREL	MAY	IYUN
D	5 12 19 26	2 9 16 23	1 8 15 22 29	5 12 19 26	3 10 17 24 31	7 14 21 28
S	6 13 20 27	3 10 17 24 31	2 9 16 23 30	6 13 20 27	4 11 18 25	1 8 15 22 29
CH	7 14 21 28	4 11 18 25	3 10 17 24 31	7 14 21 28	5 12 19 26	2 9 16 23 30
P	1 8 15 22 29	5 12 19 26	4 11 18 25	1 8 15 22 29	6 13 20 27	3 10 17 24
J	2 9 16 23 30	6 13 20 27	5 12 19 26	2 9 16 23 30	7 14 21 28	4 11 18 25
SH	3 10 17 24 31	7 14 21 28	6 13 20 27	3 10 17 24	1 8 15 22 29	5 12 19 26
YA	4 11 18 25	1 8 15 22 29	7 14 21 28	4 11 18 25	2 9 16 23 30	6 13 20 27
	IVUL	AVGUST	SENTABR	OKTABR	NOVABR	DEKABR
D	5 12 19 26	2 9 16 23 30	6 13 20 27	4 11 18 25	1 8 15 22 29	6 13 20 27
S	6 13 20 27	3 10 17 24 31	7 14 21 28	5 12 19 26	2 9 16 23 30	7 14 21 28
CH	7 14 21 28	4 11 18 25	1 8 15 22 29	6 13 20 27	3 10 17 24	1 8 15 22 29
P	1 8 15 22 29	5 12 19 26	2 9 16 23 30	7 14 21 28	4 11 18 25	2 9 16 23 30
J	2 9 16 23 30	6 13 20 27	3 10 17 24	1 8 15 22 29	5 12 19 26	3 10 17 24 31
SH	3 10 17 24 31	7 14 21 28	4 11 18 25	2 9 16 23 30	6 13 20 27	4 11 18 25
YA	4 11 18 25	1 8 15 22 29	5 12 19 26	3 10 17 24 31	7 14 21 28	5 12 19 26

Taqvimni ko'rib chiqing va ayting:

- 1) yildagi hamma oylarni tartibi bilan.
- 2) Qish (bahor, yoz, kuz) oylarini.
- 3) 30 kundan iborat oylarni. Ular nechta?
- 4) 31 kunli oylarni. Ular nechta?
- 5) Fevral necha kundan iborat bo'ladi?
- 6) Bir yil necha sutka bo'ladi?

Bir yilda 365 yoki 366 sutka bor.

682. Taqvimga qarab toping:

- 1) Yildagi oylar sanog'i bo'yicha yanvar nechanchi bo'ladi? May-chi? Dekabr-chi?
- 2) Sanoqda uchinchi bo'lib kelgan oy qanday ataladi? To'qqizinchi bo'lib-chi? O'n birinchi bo'lib-chi?
- 3) Agar yil boshidan 8 oy o'tgan bo'lsa, qaysi oy boshlangan? 10 oy o'tgan bo'lsa-chi? 4 oy o'tgan bo'lsa-chi?
- 4) Agar iyun oyi boshlangan bo'lsa, yil boshidan boshlab necha oy o'tgan? Oktabr oyi (dekabr oyi) boshlangan bo'lsa-chi?
- 5) Siz necha to'la yoshdasiz? Nechanchi yoshga ketyapsiz?

683. 1) Haftaning qanday kunlarini bilasiz? Ularni tartib bilan aytib bering.

- 2) Rim raqamlari bilan quyidagi sanalarni yozing: Xalqaro xotin-qizlar kuni; O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni; Xotira va qadrlash kuni; Vatan himoyachilari kuni; Navro'z bayrami kuni.

- 684.** Hisoblang va javoblarini yozing: a) 8 hafta necha kundandan iborat? b) sutkaning uchdan biri necha soat bo'ladi? d) yarim soat necha minut bo'ladi?
- 685.** 1) Har qaysi soat ko'rsatayotgan vaqtni yozing:



2) Bu soatlar 20 minutdan keyin qanday vaqtni ko'rsatadi?

- 686.** Sinf kutubxonasida hayvonlar haqida 16 ta, qushlar haqida 17 ta kitob bor. Bolalar 15 ta kitobni o'qish uchun olishdi. Necha kitob qoldi?

687°.

$8 \cdot 11$	$64 : 8 \cdot 12$	$12 \cdot (32 : 8)$
$43 \cdot 2$	$42 : 7 \cdot 12$	$(56 - 49) \cdot 14$
$38 \cdot 2$	$36 : 9 \cdot 24$	$3 \cdot (100 - 81)$

- 688°.** Bayram ertaligiga 10 ta o'g'il bola qatnashdi. Bu bayram ishtirokchilarining to'rtidan bir qismiga teng. Ertalikda hammasi bo'lib necha bola qatnashgan?



- 689.** Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

1)

Narxi	Miqdori	Qiymati
40 so'm	Bir xil ?	800 so'm
30 so'm	?	?

2)

Narxi	Miqdori	Qiymati
120 so'm	6 m	Bir xil ?
90 so'm	?	?

Sekund




Rasmni ko'rib chiqing. Soatda soat va minut millaridan tashqari yana bitta mil bor. U tez harakat qiladi va sekndlarni sanaydi. 1 minutda sekndlar mili to'liq bir marta aylanib chiqadi. 1 minutda 60 sekund bor.

$$1 \text{ min} = 60 \text{ s.}$$

1 sekundda 1–2 qadam yurish mumkin. 10 sekundda 20 dan 30 gacha bo'lgan sonlarni aytish mumkin.

690.



Bu sekundomer. U aniq vaqtni bilishga yordam beradi.

Har qaysi sekundomer necha sekundni ko'rsatmoqda?

691. Sportchi 1 minut 15 sekundda 600 m masofaga chopib bordi. Sportchi bu masofani necha sekundda chopib o‘tdi?



692. Ifodalang:

a) sekundlarda : 2 min, 6 min,
1 min 40 s, 3 min 15 s.

b) minutlarda : 4 soat, 2 soat 50 min,
5 soat 09 min.

693. Rasmlarni qarab chiqing va har qaysi soat ko‘rsatayotgan vaqtni ayting. Bu soatlarga qarab sutka vaqti — ertalab yoki kechqurun, kun yoki tun ekanini aniqlash mumkinmi?



694. Tikuvchilik ustaxonasida birinchi chorakda 146 ta bolalar kastumi va 182 ta ayollar kastumi, ikkinchi chorakda 165 ta bolalar kastumi va 203 ta ayollar kastumi tikildi. Birinchi yarim yillikda ayollar kastumi bolalar kastumiga qaraganda nechta ortiq tikilgan?

695. Bir xil narxda 1 m qora va 3 m qizil surp sotib olindi. Hamma gazlamaga 360 so‘m to‘landi. Har bir bo‘lak gazlamaga alohida qancha to‘langan?

696. $28 + 37 - 46$

$93 - 85 + 17$

$(22 + 23) : 5$

$(77 - 28) : 7$


$36 : 9 + 63 : 7$

$72 : 8 - 45 : 9$

$(42 + 21) : 9$

$(63 - 35) : 7$

697°. Tikuvchilik sexida bir kunda 30 ta palto, undan 2 marta ortiq kastum, kastumlardan 8 ta kam plash tikildi. Bir kunda nechta plash tikildi?

698°. $27 : 3 + 81 - 53$ $(37 - 37) \cdot 8$
 $14 + 49 : 7 \cdot 8$ $(54 - 54) : 6$

699. Yarim soat necha minutni tashkil etadi? Bir soatning uchdan biri-chi? Soatning katta mili necha minutda doiraning yarmini bosib o'tadi? Doiraning chorak qismini-chi? Bu mil bir katta chiziqchadan ikkinchisigacha bo'lgan masofani necha minutda bosib o'tadi?

Bilasizmi, 1 sutka 24 soatdan iborat. Soat modelida esa 1 dan 12 gacha bo'lgan sonlar bor. Shuning uchun vaqtni aytishdan oldin hozir ertalab yoki kechqurun, kunduz yoki kechasi ekanini aniqlab olish lozim. Masalan, kunduz soat 4 yoki kechasi soat 4. Sanoqni sutkaning boshidan olib borish qulay. Sutka tungi soat 0 dan boshlanadi. Soat 0 dan kunduz soat 12 gacha sutkaning birinchi yarmi o'tadi. Bir soatdan keyin soat 13 (yoki kunduz soat 1) bo'ladi, yana bir soatdan keyin soat 14 (yoki kunduz soat 2) bo'ladi va hokazo. Sutka boshidan 24 soat o'tgandan keyin, soat yana 0 ni ko'rsatadi.

700.



Elektron soatga qarang. U qaysi vaqtni ko'rsatyapti: ertalabnimi yoki kechqurunnimi?

Mili bor soatga qarab bu savolga javob berish mumkinmi?

701. Ifodalang:

Sekundlarda: 6 min, 2 min 15 s, 7 min 40 s.

Minutlarda: 3 soat, 600 s, 2 soat 30 min.

Soatlarda: 60 min, 480 min, 5 sutka.

702. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang:

Kamayuvchi	360	830	90	160	180-0
Ayiriluvchi	60:1	19-10	0·5	80:80	20

703. Bir brigada 7 minutda 630 ta, ikkinchi brigada 6 minutda 420 ta g'isht terdi. Ikkinchi brigada bir minutda nechta kam g'isht tergan?

Yechish rejasi

1) Birinchi brigada bir minutda nechta g'isht tergan?

2) Ikkinchi brigada bir minutda nechta g'isht tergan?

3) ... nechta kam g'isht ...?

Masalaning yechimini yozing.

$$704^{\circ}. \quad 72 : 9 + 640 : 8 \qquad 16 \cdot 5 + 238$$

$$810 : 90 - 560 : 70 \qquad 790 - 6 \cdot 14$$

705°. Do'konda 200 kg olma bor edi. Shu olmaning to'rtidan bir qismi sotildi. Necha kilogramm olma qoldi?**706.** Kvadratning qismlari qanday hosil qilingan?

Biror voqea qachon boshlanganini yoki qachon tugaganini, u qancha vaqt davom etganini bilishga doir masalalarni soat modeli, taqvimlardan foydalanib yechish mumkin. Bunday masalalarni arifmetik amallar yordamida ham yechish mumkin.

707. Masalaning yechilishini tushuntiring:

„Mohir qo‘llar“ to‘garagining mashg‘uloti soat 15 da boshlanadi va 2 soat davom etadi. To‘garak mashg‘uloti qachon tugaydi?

$$15 + 2 = 17$$

Javob: soat 17 da.



708. Qanday amal yordamida bilish mumkin:

1) soat 13 dan soat 22 gacha; soat 2 dan soat 7 gacha qancha vaqt o‘tgan?

2) agar hozir soat 0; soat 6; soat 14; soat 18; soat 20 bo‘lsa, 4 soatdan keyin soat necha bo‘ladi?

3) agar hozir soat 6; soat 15; soat 17; soat 20; soat 24 bo‘lsa, 6 soat oldin soat necha bo‘lgan?

709. Aprel oyining oltidan bir qismi bulutli, bulutli kunlarning beshdan bir qismi yomg‘irli kun bo‘ldi. Oyning qolgan kunlarida havo ochiq bo‘ldi. Aprel oyida necha kun bulutli (yomg‘irli, ochiq) bo‘lgan?

710. Agar hozir tungi soat 3 bo'lsa, sutka boshidan boshlab qancha vaqt o'tgan? Ertalab soat 8; kunduz soat 3; kechqurun soat 7 bo'lsa-chi?

711. Taqqoslang:

2 min 20 s va 150 s

23 soat va 1 sutka

3 soat va 30 min

1 sutka 5 soat va 32 soat

712. Quyidagi natijalar qanday olinganini tushuntiring:

4 soat = 240 min

4 sutka = 96 soat

4 soat 28 min = 268 min

2 sutka 15 soat = 63 soat

713. Sayohatchilar 2 soat yo'l yurdilar. Ular bu vaqtning uchdan birini daryoni kesib o'tishga, qolganini piyoda yurishga sarfladilar. Sayohatchilar qancha vaqt piyoda yurganlar (vaqtni minutlarda ifodalang)?

714°. $480 + 370 - 260$

$320 : 40 : 8$

$12 \cdot 4$

$750 - 680 + 340$

$30 \cdot 2 \cdot 7$

$17 \cdot 4$

715°. Do'konga 6 kg li yashiklarda 48 kg olxo'ri va 5 kg li yashiklarda shuncha yashik nok keltirildi. Do'konga qancha nok keltirilgan?



716. Yarim sutka necha soatni tashkil qiladi? Sutkaning to'rttdan biri-chi?

Dars soat 11 da boshlandi va 45 minut davom etdi.

Dars qachon tugaganini soat modelida ko'rsating.

2 minutda necha sekund bor? 10 minutda-chi?

717. Taqqoslang:

40 min va uchdan bir soat,

15 soat va yarim sutka,

4 soat 40 min va sutkaning uchdan biri, minutning uchdan biri va 15 sekund.

718. Po'latda har birida 5 tadan 7 paket marka bor edi. U 4 ta markani do'stiga sovg'a qildi. Po'latda nechta marka qoldi?

719. Ko'chada har bir qatorda 19 tadan 2 qator uy bor edi. Yana 17 ta uy qurildi. Bu ko'chadagi uylar nechta bo'ldi?

720. $340 + 20$ $520 - 300$ $70 \cdot 5$ $480 : 6$
 $680 + 40$ $720 - 60$ $120 \cdot 3$ $360 : 4$
 $560 + 300$ $780 - 80$ $230 \cdot 3$ $180 : 2$


721°. Yozgi ta'tilda bolalar ansambli 30 ta konsert berdi. Ulardan 3 tasini shaharda, shahardagidan 4 marta ko'p bolalar oromgohlarida, qolganlarini esa qishloq madaniyat uylarida berishdi. Qishloq madaniyat uylarida nechta konsert berishgan?

722°. $15 \cdot 3$ $49 : 7 \cdot 13$ $(454 - 454) \cdot 0$
 $16 \cdot 4$ $81 : 9 \cdot 11$ $1 \cdot (350 - 350)$



723. $9 \cdot 7$ $81 : 9$ $56 : 8$ $9 \cdot 4$ $48 : 6$
 $8 \cdot 9$ $72 : 9$ $42 : 6$ $3 \cdot 9$ $35 : 5$

724. $\square \cdot 4 = 24$ $9 \cdot \square = 27$ $7 \cdot \square = 49$
 $\square : 6 = 8$ $36 : \square = 9$ $\square : 9 = 8$


725.  $7 + 9$ $12 - 5$ $16 + 30$
 $32 - 20$ $46 \cdot 2$ $92 - 60$

Asr

Vaqtning yilga nisbatan eng katta o'lchov birligi — **asr**. Bir asr 100 yilga teng.

$$1 \text{ asr} = 100 \text{ yil.}$$

726. Chizmani qarab chiqing. Asrlar (yuz yilliklar) to'g'ri chiziqda kesmalar bilan tasvirlangan. 3 asrni, 15 asrni, 20 asrni belgilovchi kesmalarni ko'rsating:



727. 4 asrda necha yil bor? 8 asrda-chi? 10 asrda-chi? 5 asrda-chi?
728. 500 yil necha asrni tashkil etadi? 200 yil-chi? 900 yil-chi?
729. 30 so'mdan 6 ta daftar va 4 ta bir xil rasm daftari sotib olindi. Hammasiga 420 so'm to'landi. Rasm daftarining narxini toping.

Nomi	Narxi	Miqdori	Qiymati
daftarlar	30 so'm	6 ta	? } 420 so'm
rasm daftari	?	4 ta	

Yechish rejasi

- 1) 6 ta daftarga necha so'm to'langan?
- 2) 4 ta rasm daftariga necha so'm to'langan?
- 3) Bitta rasm daftari necha so'm turadi?

Masalaning yechimini yozing.

730. Berilgan ifodalar va ularning to'g'ri to'rtburchak ichida keltirilgan son qiymatlari bo'yicha tengliklar tuzing:

$$60 \cdot 2 + 80 \cdot 3$$

$$0 \cdot 9 + 0 \cdot 8$$

$$790 - 80 : 10$$

$$280 : 280 + 0$$

$$0 : 98 + 72 : 8$$


$$(840 - 700) : 7$$

360, 0, 782, 1, 9, 20

Namuna: $60 \cdot 2 + 80 \cdot 3 = 120 + 240 = 360$

731°. Ikkita motorli qayiq bir manzildan qarama-qarshi tomonga qarab jo'nashdi. Ulardan biri 38 km, ikkinchisi undan 5 km ortiq yo'l bosdi. Shu vaqtda qayiqlar bir-biridan qancha masofada bo'lgan?

732°.

$3 \cdot 14$	$16 \cdot 6$	$18 \cdot 2 : 4$	$13 \cdot 6 - 38$
$2 \cdot 19$	$17 \cdot 3$	$21 : 7 \cdot 5$	$37 \cdot 2 - 52$
$4 \cdot 23$	$14 \cdot 5$	$20 \cdot 2 : 5$	$24 \cdot 3 - 41$
 $6 \cdot 12$	$43 \cdot 2$	$15 \cdot 6 : 3$	$18 \cdot 4 - 60$

733. 785 yilda nechta to'liq asr bor? 439 yilda-chi? 901 yilda-chi? 216 yilda-chi?

Vaqt o'lchovi birliklari jadvalini o'qing, ko'chirib yozing va eslab qoling:

1 asr = 100 yil 1 soat = 60 min
1 yil = 12 oy 1 min = 60 s
1 sutka = 24 soat

Bir yil 365 yoki 366 sutkadan iborat.

Bir oy 30 yoki 31 sutkadan iborat.

Fevral oyi 28 yoki 29 sutkadan iborat.

734. Minutlarda ifodalang: 4 soat, 6 soat, 8 soat, 10 soat, 7 soat.
Soatlarda ifodalang: 60 min, 180 min, 300 min, 240 min.

735. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'ying:

4 min 12 s = s 6 yil = oy
1 soat 16 min = min 2 asr 18 yil = yil

$1 \text{ sutka } 5 \text{ soat} = \square \text{ soat}$

$120 \text{ oy} = \square \text{ yil}$

$7 \text{ min} = \square \text{ s}$

$357 \text{ yil} = \square \text{ asr } \square \text{ yil}$

- 736.** 560 so'mga 7 m gazlama xarid qilindi. Bu gazlamadan 2 ta ko'ylak tikildi. Birinchi ko'ylakka 4 m, ikkinchi ko'ylakka 3 m gazlama sarflandi. Har bir ko'ylak uchun necha so'mlik gazlama ketgan?

Yechish

$1) 560 : 7 = \square \text{ (so'm)}$

$2) \square \cdot 4 = \square \text{ (so'm)}$

$3) \square \cdot 3 = \square \text{ (so'm)}$

Har bir amalni bajarib nimani bilish mumkin?
Masalaning yechilishini tugating.

- 737.** Kema birinchi kuni 26 km, ikkinchi kuni undan 2 marta ko'p suzdi. Agar kema hammasi bo'lib 91 km suzishi kerak bo'lsa, yana necha kilometr suzishi kerak?

- 738°.** Sinf kutubxonasida 65 ta kitob bor edi. 10 o'quvchi 2 tadan kitob olishdi. Necha kitob qoldi?

739°. $(380 - 300) \cdot 6$

$45 : 5 \cdot 9$

$(230 + 70) \cdot 3$

$11 - 4 + 6 \cdot 6$



Qo'shimcha mashqlar

$$1. \begin{array}{ccc} (8 + 5) \cdot 5 & (2 + 6) \cdot 6 & (32 + 8) : 4 \\ (1 + 9) \cdot 3 & (3 + 8) \cdot 7 & (18 + 27) : 9 \end{array}$$

$$2. \begin{array}{ccccc} 27 \cdot 3 & 34 \cdot 2 & 48 \cdot 2 & 21 \cdot 4 & 37 \cdot 2 \\ 16 \cdot 5 & 18 \cdot 3 & 19 \cdot 3 & 12 \cdot 8 & 29 \cdot 3 \end{array}$$

- 3.** Ifodalarni o'qing va ularning qiymatlarini hisoblang:

$$\begin{array}{ccc} 100 - 47 \cdot 2 & 19 + 28 \cdot 2 & 42 \cdot 2 - 26 \\ 19 \cdot 3 - 50 & 22 \cdot 4 - 18 & 31 \cdot 3 - 18 \end{array}$$

4.

Ko'paytuvchi	18	18	18	19	19
Ko'paytuvchi	3	4	5	3	4
Ko'paytma					

5. $5 \cdot 19$ $7 \cdot 13$ $8 \cdot 12$ $3 \cdot 24$
 $6 \cdot 16$ $4 \cdot 23$ $7 \cdot 14$ $5 \cdot 17$

6. Tenglamalarni yeching:


$$\begin{array}{lll} x \cdot 4 = 24 & x : 2 = 18 & x + 250 = 400 \\ 8 \cdot x = 32 & 81 : x = 9 & 500 - x = 130 \end{array}$$

7. $\left(\begin{array}{l} < \\ = \\ > \end{array} \right)$ $82 \cdot 1 \dots 82 \cdot 0$ $56 + 0 \dots 0 + 56$
 $37 : 37 \dots 37 : 1$ $45 : 5 \dots 45 : 9$

8. Duradgor usta har kuni baravardan 3 kunda 12 ta rom yasadi, to'rtinchi kuni esa oldingi kundagidan 1 ta ortiq rom yasadi. Usta to'rtinchi kuni nechta rom yasadi?
9. Ikki qutichada 18 ta konfet bor. Shunday uch qutichada nechta konfet bo'ladi?
10. Bolalar bog'chasining bir guruhida 23 ta, ikkinchisida 21 ta bola bor. Bu guruhlardagi har bir bolaga 2 tadan berish uchun nechta olma kerak bo'ladi?
11. Maktab kutubxonasiga 100 ta darslik keltirildi, har birida 23 o'quvchisi bo'lgan to'rt sinf bolalariga bit-tadan darslik berildi. Kutubxonada yana nechta darslik qolgan?
12. Ifodalarga ko'ra masalalar tuzing va ularni yeching:

$$\begin{array}{ll} 36 \cdot 2 + 3 \cdot 4 & 100 - 42 \cdot 2 \\ 35 + 18 \cdot 3 & 50 - 12 \cdot 3 \end{array}$$

13. Chizmada nechta uchburchak bor? Nechta to'rtburchak bor? Bu shakllar nima deb ataladi? Ularning tomonlarini o'lchang. To'g'ri burchaklarni toping va ularni harflar bilan yozing:



14. Har bir tomoni 8 dm ga teng bo'lgan uchburchakning perimetrini toping va hosil bo'lgan sonni metrlar va detsimetrlarda ifodalang.
15. Uchta kesma chizing. Birining uzunligi 16 sm bo'lib, u ikkinchisidan 4 marta uzun va uchinchisidan 9 sm uzun bo'lsin.
16. 1) Tomonlari 8 sm va 6 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing.
2) Perimetri shu to'g'ri to'rtburchak perimetriga teng kvadrat chizing.

Yig'indini songa bo'lish

740. Bitta nuqtadan ikkita kesma o'tkazildi. Kesmalarning uchlari tutashtirildi. Qanday shakl hosil bo'ldi?



$$(8 + 6) : 2$$

I usul

$$(8 + 6) : 2 = 14 : 2 = 7$$

Yig'indini hisoblash va uni songa bo'lish.

II usul

$$(8 + 6) : 2 = 8 : 2 + 6 : 2 = 4 + 3 = 7$$

Har qaysi qo‘shiluvchini songa bo‘lish va hosil bo‘lgan natijalarni qo‘shish.

741. Sotuvchida 24 ta chinnigul va 20 ta moychechak bor edi. Sotuvchi ulardan har birida 4 tadan qilib guldastalar yasadi. Unda nechta guldasta hosil bo‘ldi? Masalani berilgan reja bo‘yicha ikki usul bilan yeching.


I usul

- 1) Sotuvchida hammasi bo‘lib nechta gul bor?
- 2) Unda nechta guldasta hosil bo‘ldi?

II usul

- 1) Chinnigulli nechta guldasta hosil bo‘ldi?
- 2) Moychechakli nechta guldasta hosil bo‘ldi?
- 3) Hammasi bo‘lib nechta guldasta hosil bo‘ldi?

742. Rasmga qarab masala tuzing va uni ikki usul bilan yeching:



Hamma asalni bo‘shatish uchun nechta shisha banka kerak bo‘ladi?

743. Birinchi satrdagi ifodalarni o'qing. Ularning har biri uchun ikkinchi satrdan qiymati shunga teng bo'lgan ifodani toping:

$$\begin{array}{lll} (40 + 12) : 4 & 90 : 3 + 3 : 3 & (20 + 4) \cdot 4 \\ (90 + 3) : 3 & 20 \cdot 4 + 4 \cdot 4 & 40 : 4 + 12 : 4 \end{array}$$

744. Qulay usul bilan hisoblang:

$$(11 + 13) : 4 \quad (56 + 14) : 7 \quad (16 + 14) : 3$$

745°. $54 - 38 + 42 : 7$ $(17 + 8) \cdot 4 - 32$
 $95 - 23 \cdot 4 + 18$ $(6 + 13) \cdot 3 - 57$

746°. Agar kvadratning perimetri 36 sm ga teng bo'lsa, uning tomonining uzunligini toping.



747. 1) Amallarni berilgan tartibi bo'yicha bajaring:

$$(64 + 16) : 8 \quad (32 + 22) : 9 \quad (30 + 26) : 7$$

2) Qaysi misolni boshqa usul bilan yechish mumkin?

748. Agar har bir ko'ylakka 3 m gazlama ketsa, ikkala to'pdan nechta ko'ylak tikish mumkin?




12 m



15 m



12 m



15 m

Masalani ikki usul bilan yeching. Masaladagi sonlarni shunday o'zgartiringki, uni faqat bir usul bilan yechish mumkin bo'lsin.

749. Faqat bir usul bilan yechiladigan misollarni ko'chirib oling. Ularni yeching:

$$\begin{array}{lll} (32 + 16) : 8 & (15 + 20) : 5 & (18 + 12) : 6 \\ (7 + 9) : 2 & (14 + 16) : 3 & (12 + 13) : 5 \end{array}$$

750. 1) Har biri 6 ga bo'linadigan sonlar juftini ko'chiring. Shu sonlarning yig'indisi 6 ga bo'linish yoki bo'linmasligini tekshiring: 30, 14, 8, 6, 12, 24, 5, 10.
2) 52, 60, 64, 76 sonlarini har biri 4 ga bo'linadigan ikki qo'shiluvchining yig'indisi ko'rinishida tasvirlang.

751. Bir to'dada 16 ta bir xil cho'p bor, ikkinchi to'dada xuddi shunday cho'plardan 12 ta bor. Bu cho'plar-ning hammasidan nechta kvadrat tuzish mumkin?

752°. $(49 + 21) : 7$ $190 \cdot 2 - 300$ $80 + 8 \cdot 11$
 $49 + 21 : 7$ $420 : 6 + 80$ $400 - 6 \cdot 12$

753°. Bir xo'jalikdan 16 kg, ikkinchi xo'jalikdan 24 kg asal olib kelindi. Hamma asalni har qaysinisiga 8 kg dan qilib bidonlarga quyildi. Nechta shunday bidon kerak bo'lgan?



754. Har bir ifodaning qiymatini ikki usul bilan hisoblang:

$$(10 + 4) : 2 \qquad (8 + 12) : 2 \qquad (12 + 15) : 3$$

$$39 : 3$$

1) Qulay usul bilan hisoblang:

$$(20 + 6) : 2 \qquad (60 + 9) : 3 \qquad (80 + 8) : 4$$

2) Yozuvni ko'zdan kechiring va yechimini tushuntiring:

$$39 : 3 = (30 + 9) : 3 = 30 : 3 + 9 : 3 = 10 + 3 = 13$$

$$84 : 4 = (80 + 4) : 4 = 80 : 4 + 4 : 4 = 20 + 1 = 21$$

755. Misollarning yechilishini davom ettiring:

$$96 : 3 = (90 + 6) : 3 = 90 : \square + 6 : \square = \dots$$

$$64 : 2 = (60 + \square) : 2 = \dots$$

756. $48 : 4$ $63 : 3$ $46 : 2$ $28 : 2$ $99 : 9$
 $5 : 5$ $84 : 2$ $88 : 4$ $93 : 3$ $99 : 3$

757. Dekabr va yanvar oylari 31 kundan, fevral oyi esa 28 (yoki 29) kundan iborat. Hammasi bo'lib, bir yilda qish oylari necha kun bo'ladi?

758. 5 minutda avtomat-dastgoh 30 ta butilka tayyorlaydi. Dastgoh 7 minutda shunday butilkalardan nechta tayyorlaydi?

759. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing:

$$800 \text{ kishi} \left[\begin{array}{l} \text{Erkaklar} — 132 \text{ kishi} \\ \text{Ayollar} — ?, \text{ erkaklardan } 268 \\ \text{ kishi ortiq} \\ \text{Bolalar} — ? \end{array} \right.$$

Har qaysi amalni alohida yozib, masalani yeching.

760[†]. Amallarni qulay usul bilan bajaring:

$$\begin{array}{lll} (4 + 28) : 4 & (6 + 18) : 6 & (14 + 28) : 7 \\ 14 \cdot 5 + 70 & (16 + 80) : 4 & 23 \cdot 3 - 0 \end{array}$$

761[†]. $93 : 3$ $21 \cdot 4$ $36 \cdot 2 : 9$ $84 : 4 \cdot 3$
 $48 : 2$ $2 \cdot 19$ $64 : 2 + 23$ $55 : 5 \cdot 6$



762. $69 : 3$ $5 \cdot 19$ $63 : 9 + 84$ $80 - 66 : 3$
 $44 : 4$ $6 \cdot 13$ $90 - 7 \cdot 4$ $28 : 2 + 26$

763. Gul do'konining sotuvchisi 16 ta guldasta tayyorladi. Har qaysi guldasta uchun u 3 ta oq va 2 ta qizil gul oldi. U hammasi bo'lib nechta gul olgan?


764. Vagondan 380 sr ko'mir tushirilgandan keyin unda tushirilganidan 119 sr ortiq ko'mir qoldi. Tushirilganiga qadar vagonda necha sentner ko'mir bo'lgan?

765. Bir sinfda 34, ikkinchi sinfda 30, uchinchi sinfda esa birinchi va ikkinchi sinflarda birgalikda qancha o'quvchi bo'lsa, shundan 2 marta kam o'quvchi bor. Uchinchi sinfda qancha o'quvchi bor? Ifodalarning qaysinisi masalaning yechimiga mos keladi?

$$34 + 30 : 2, \quad (34 + 30) - 2, \quad (34 + 30) : 2$$

766. $\begin{matrix} < \\ = \\ > \end{matrix}$ $(3 + 5) \cdot 4 \dots 3 \cdot 4 + 5$
 $19 \cdot 3 \dots 10 \cdot 3 + 9 \cdot 3$

767. To'g'ri chiziq chizing va unda A nuqtani belgilang. A nuqtadan to'g'ri chiziqda qarama-qarshi yo'nalishda $AC = 48$ mm va $AB = 62$ mm bo'lgan kesmalarni chizing. CB kesmaning uzunligini o'lchang va hisoblang.

768°. $27 \cdot 3 - 78$ $98 - 23 \cdot 4 + 35$ $(49 + 28) : 7$
 $62 + 13 \cdot 5$ $28 \cdot 2 - 13 \cdot 4$ $(64 + 24) : 8$
 $19 \cdot 5 - 67$ $64 - 37 + 32 : 8$ $(36 + 24) : 6$

769. Minut mili qancha vaqtda bir marta to'liq aylanadi? Soat mili-chi?

$$42 : 3$$

1) Jadvalning bo'sh kataklariga yuqoridagi sonlarga eng yaqin shunday yaxlit sonlarni yozingki, ularni: a) 3 ga; b) 4 ga bo'lganda yana yaxlit son hosil bo'lsin.

a)

42	48	54	45	
		30		: 3

b)

56	64	72	76	
		40		: 4

2) Qulay usul bilan yeching:

$$(20 + 12) : 2 \quad (40 + 16) : 4 \quad (50 + 25) : 5$$

3) Rasmga qarang. Yechishni tushuntiring:



$$42 : 3 = (30 + 12) : 3 = 30 : 3 + 12 : 3 = 14$$

770. Tushuntirish bilan yeching:

$$\begin{array}{ccccc} 34 : 2 & 56 : 4 & 45 : 3 & 96 : 6 & 72 : 4 \\ 51 : 3 & 78 : 6 & 84 : 7 & 75 : 5 & 91 : 7 \end{array}$$


771. Maktab zaliga har bir qatorga 9 tadan qilib 10 qator stul qo'yish mumkin. 84 ta stul keltirildi. Bu stullar yetadimi yoki yana keltirish kerakmi?

772. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 8 sm, eni bo'yining to'rtidan bir qismini tashkil qiladi. To'g'ri to'rtburchakning enini aniqlang. To'g'ri to'rtburchak tomonlari uzunliklarining yig'indisini toping.

773°. 4 kg no'xat va 84 kg guruch sotildi. No'xatga qaraganda necha marta ortiq guruch sotilgan?

774°. $24 : 2 \cdot 3$ $66 : 6 \cdot 5$ $74 - (38 + 24)$

$$96 : 3 \cdot 2 \quad 26 : 2 \cdot 6 \quad 32 + (85 - 47)$$

 $64 : 8 \cdot 5$ $88 : 8 \cdot 7$ $23 + (73 - 56)$

775. 5 metr shoyi uchun 400 so'm, 4 metr jun gazlama uchun 800 so'm to'landi. 1 m jun gazlama 1 m shoyidan necha so'm qimmat?

776. 1) Jadval bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

I ta xalta massasi	Xaltalar soni	Hamma xaltalar massasi
3 kg	Bir xil ?	27 kg
2 kg	?	?

2) Teskari masala tuzing va yeching, bu masalada 3 kg li hamma xaltalarning massasini bilish talab qilinsin.

$$72 : 3$$

1) Jadvalning bo'sh kataklariga yuqoridagi sonlarga eng yaqin shunday yaxlit sonlarni yozingki, ularni: a) 2 ga; b) 3 ga bo'lganda yana yaxlit son hosil bo'lsin.

a)

74	56	78	92	: 2
			80	

b)

75	87	48	81	: 3
			60	

2) Qulay usul bilan yeching:

$$(80 + 16) : 4 \quad (60 + 18) : 3 \quad (60 + 24) : 3$$

3) Yechishni tushuntiring:

$$72 : 3 = (60 + 12) : 3 = 60 : 3 + 12 : 3 = 24$$

$$96 : 2 = (80 + 16) : 2 = 80 : 2 + 16 : 2 = 48$$

777. Har bir ustundagi misollarning yechimini taqqoslang:

78 : 6	52 : 4	75 : 5	96 : 8	84 : 6
78 : 3	52 : 2	75 : 3	96 : 4	84 : 3

778. Bir tomonining uzunligi 6 sm, ikkinchi tomonining uzunligi undan 2 marta qisqa bo'lgan to'g'ri to'rt-burchak chizing.

779°. $19 \cdot 4$ $85 : 5$ $2 \cdot 28$ $32 : 4 - 56 : 7$
 $16 \cdot 6$ $28 \cdot 3$ $3 \cdot 26$ $72 : 8 + 13 \cdot 4$

780°. Dekabr oyida 25 kun havo ochiq bo'ldi. Dekabr oyida qancha bulutli kun bo'lgan?



781. Hisoblashlarni tugating:

$$34 : 2 = (20 + 14) : 2 = \dots$$

$$65 : 5 = (50 + 15) : 5 = \dots$$

$$84 : 3 = (60 + 24) : 3 = \dots$$

$$56 : 4 = (40 + 16) : 4 = \dots$$

1) Qulay usul bilan yeching:

$$(40 + 10) : 2 \mid (50 + 20) : 5 \mid (60 + 30) : 6 \quad 70 : 2 \quad 100 : 2$$

2) Yechishni tugating va tushuntiring:

$$70 : 2 = (60 + 10) : 2 = 60 : 2 + 10 : 2 = \square$$

$$80 : 5 = (50 + 30) : 5 = \square : 5 + \square : 5 = \square$$

$$100 : 4 = (80 + 20) : 4 = \square : \square + \square : \square = \square$$

782. $60 : 5$ $90 : 6$ $84 : 4$ $72 : 4$ $80 : 4$
 $50 : 2$ $90 : 2$ $93 : 3$ $72 : 2$ $80 : 5$

783. Uch g'ildirakli velosipedlarni yig'ishda usta 27 ta g'ildirakdan, shogird esa 18 ta g'ildirakdan foydalandi. Usta shogirdidan nechta ortiq velosiped yig'gan? Bir o'quvchi shu masala bo'yicha $27 : 3 - 18 : 3$ ifodani, ikkinchi o'quvchi esa $(27 - 18) : 3$ ifodani tuzdi. Ular qanday mulohaza yuritganliklarini tushuntiring. Yechishning qaysi usuli oson?

784. Bir o'quvchi qiz 23 kg, ikkinchisi undan 2 marta ko'p paxta terdi. Ikkala qiz necha kilogramm paxta tergan?

785. $\begin{matrix} < \\ = \\ > \end{matrix}$ $3 + 7 \cdot 6 \dots (3 + 7) \cdot 6$
 $48 : 4 \dots 40 : 4 + 8 : 4$

786°. 0 dan 100 gacha bo'lgan sonlardan 5 ga; 6 ga; 4 ga qoldiqsiz bo'linadiganlarini tartibi bilan yozib chiqing.

787°. $(72 + 24) : 3$ $90 : 5 - 56 : 7$ $42 : 7 \cdot 0$
 $(37 + 31) : 4$ $45 : 3 + 17 \cdot 4$ $56 : 8 \cdot 1$



Qo'shimcha mashqlar

- | | | | |
|---------------------------|------------------------|-------------------|----------|
| 1. $38 : 2$ | $32 : 2$ | $57 : 3$ | $80 : 5$ |
| $84 : 7$ | $78 : 6$ | $84 : 6$ | $60 : 4$ |
| 2. $33 : 3$ | $96 : 8$ | $55 : 5$ | $98 : 7$ |
| $54 : 2$ | $72 : 6$ | $86 : 2$ | $76 : 4$ |
| 3. $(56 + 24) : 4$ | $(19 + 11) : 6$ | $(7 + 6) \cdot 4$ | |
| $(7 + 4) \cdot 8$ | $(29 + 28) : 3$ | $(42 + 6) : 4$ | |
| 4. $5 \cdot 19 - 48 : 3$ | $6 \cdot 15 - 72 : 6$ | | |
| $92 : 4 + 4 \cdot 16$ | $83 - 3 \cdot 24 + 69$ | | |
| $27 \cdot 3 - 4 \cdot 15$ | $38 \cdot 2 - 96 : 6$ | | |
| $7 \cdot 12 - 78 + 12$ | $7 \cdot 14 + 69 - 75$ | | |

5. Oromgohda 2 ta katta va 4 ta kichik yotoqxona bor. Katta yotoqxonalarning har biriga 18 tadan, kichik yotoqxonalarning har biriga esa 11 tadan karavot qo'yilgan. Bu yotoqxonalarga hammasi bo'lib nechta karavot qo'yilgan?
6. Sotuvchi 16 kg unni 8 paketga teng bo'lib soldi. 80 kg unni bo'lib solish uchun nechta shunday paket kerak bo'ladi?

7. 1) Jadvalga ko'ra masalalar tuzing va ularni yeching:

Bahosi	Miqdori	Jami puli
20 so'm	4 dona	?] 200 so'm
?	2 dona	?]

1 ta paketning massasi	Paketlar soni	Hamma paketlar massasi
3 kg	5 dona	?] 55 kg
5 kg	?	?]

2) Bu masalalarga teskari masalalar tuzing va ularni yeching.

8. Doira kvadratning ichida joylashgan qilib chizing.



9. Uchburchak va to'g'ri to'rtburchakni shunday chizingki:

a) to'g'ri to'rtburchak uchburchak ichida bo'lsin;

b) uchburchak to'g'ri to'rtburchakdan tashqarida bo'lsin;

d) uchburchak to'g'ri to'rtburchak ichida bo'lsin.



10. AB kesma tomon bo'lgan barcha shakllarni ayting:



11. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 8 sm, eni bo'yining to'rtidan bir qismini tashkil qiladi. To'g'ri to'rtbur-

chakning enini aniqlang. To'g'ri to'rtburchak tomonlari uzunliklarining yig'indisini toping.

12. C burchakka ega bo'lgan hamma shakllarni ayting:



Ko'paytirish va bo'lishni tekshirish

788. Hisoblashlarni tugating:

$$70 : 5 = (50 + 20) : 5 = \dots$$

$$90 : 6 = (60 + 30) : 6 = \dots$$

$$56 : 4 = (40 + 16) : 4 = \dots$$

$$84 : 7 = (70 + 14) : 7 = \dots$$

789. Bo'linuvchilarni qulay qo'shiluvchilarga ajrating va bo'lishni bajaring:

$$60 : 5$$

$$90 : 2$$

$$72 : 6$$

$$96 : 8$$

$$48 : 4$$

$$39 : 3$$

$$77 : 7$$

$$99 : 9$$

Bo'lishni ko'paytirish bilan tekshirish mumkin:

1) bo'linma bo'luvchiga ko'paytiriladi;

2) topilgan natija bo'linuvchi bilan taqqoslanadi.

Agar bu sonlar teng bo'lsa, u holda bo'lish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.

$$51 : 3 = 17. \quad \text{Tekshirish:} \quad 1) 17 \cdot 3 = 51,$$

$$2) 51 = 51.$$

790.

$68 : 4$

$54 : 3$

$85 : 5$

$84 : 6$

Zina bo'yicha ko'tariling. Bo'lishning to'g'riligini ko'paytirish bilan tekshiring.

791. Sinfda 4 ta guruh bor. Har qaysi guruhda 5 tadan o'g'il bola va 3 tadan qiz bola bor. Sinfda kimlar ko'p: o'g'il bolalarmi yoki qiz bolalarmi? Nechta ko'p?

792. Kursining usti kvadrat shaklida bo'lib, tomonining uzunligi 32 sm. Bolalar maktab uchastkasida ish-lamoqda. Ular dam olish vaqtida nonushta qilish uchun 3 ta kursini qator qilib qo'yishdi. Hosil bo'lgan „stol“ning usti qanday shaklni tasvirlaydi? „Stol“ ustining bo'yi va eni qanday?

793. Misollarni ustun qilib yozing va tekshirish bilan yeching:

$74 + 547$

$732 - 261$

$368 - 195$

$39 + 384$

$524 - 83$

$462 + 197$

794. Kitob 94 betli. O'quvchi har kuni 18 betdan 3 kun o'qidi. U yana necha bet o'qishi kerak?

795. $5 \cdot 17 - 38$

$84 : 7 + 69$

$57 + 72 : 8$

$28 \cdot 3 - 27$

$70 - 75 : 3$

$68 - 56 : 7$



796. Agar ko'paytmani ko'paytuvchiga bo'lsak, nimaga ega bo'lamiz?

Ko'paytuvchi	Ko'paytuvchi	Ko'paytma
7	9	63
2	12	24

$63 : 7 = 9$

$24 : 2 = 12$

Ko'paytirishni bo'lish bilan tekshirish mumkin:

- 1) ko'paytma ko'paytuvchiga bo'linadi;
- 2) topilgan natija ikkinchi ko'paytuvchi bilan taqqoslanadi. Agar bu sonlar teng bo'lsa, u holda ko'paytirish to'g'ri bajarilgan bo'ladi.

$14 \cdot 7 = 98.$ Tekshirish: 1) $98 : 7 = 14,$
2) $14 = 14.$

797.

$16 \cdot 4$

$34 \cdot 2$

$19 \cdot 3$

$23 \cdot 4$

Zina bo'yicha pastga tushing. Ko'paytirishning to'g'riligini bo'lish bilan tekshiring.

798. Oq va qizil sharlar hammasi bo'lib 45 ta. Oq sharlar 36 ta. Oq sharlar qizil sharlardan nechta ortiq? Qizil sharlar oq sharlardan necha marta kam?

799. 1) 90 ni 63 ta kamaytiring va natijani 4 marta orttiring; 38 ta orttiring.
2) 56 va 4 sonlari bo'linmasini 3 marta orttiring; 47 ta orttiring.

800. Bir bidonda 24 kg, ikkinchisida undan 6 kg kam paxta yog'i bor. Hamma yog'ni har biriga 3 kg dan qilib shisha bankalarga quyildi. Necha banka ketgan?

801°. Ko'paytirishni bajaring va bo'lish bilan tekshiring:

$34 \cdot 2$


$5 \cdot 18$

$300 \cdot 3$

$90 \cdot 4$

802°. Maktab maydoniga 30 kg kartoshka, kartoshkadan 5 marta kam makkajo'xori, kartoshka va makkajo'xori birgalikda qancha bo'lsa, undan 9 marta kam mosh ekildi. Maydonga qancha mosh ekilgan?




- 803.** Hisoblang va ko'paytirishni bo'lish bilan tekshiring:
 $29 \cdot 3$ $32 \cdot 3$ $19 \cdot 4$ $16 \cdot 5$
- 804.** Hisoblang va bo'lishni ko'paytirish bilan tekshiring:
 $84 : 3$ $84 : 7$ $52 : 4$ $76 : 2$
- 805.** $34 + 7 \cdot 8 - 57$ $(32 + 32) : 8$
 $45 : 5 - 72 : 9$ $9 \cdot (60 - 52)$
- 806.** Viloyatda 18 ta ko'l va undan 2 marta ortiq sport maydonlari bor. Ifodalar nimani bildiradi: $18 \cdot 2$, $18 \cdot 2 - 18$?
- 807.** Birinchi kesmaning uzunligi 7 sm, ikkinchi kesma bu kesmadan 3 marta uzun, uchinchi kesma ikkinchi kesmadan 19 sm uzun. Uchinchi kesmaning uzunligini toping va uni detsimetrlarda ifodalang.
- 808f.** $80 - 80 : 4$ $(36 + 27) : 3$ $420 \cdot 2 - 700$
 $60 - 60 : 5$ $(16 + 32) : 4$ $300 : 3 : 2$
- 809f.** Uchburchakning bir tomoni 34 sm, ikkinchi tomoni 26 sm, uchinchi tomoni birinchi tomonidan 2 marta qisqa. Uchburchakning perimetrini toping.
-  **810.** Ikki usul bilan hisoblang: $(21 + 18) : 3$.
 Qulay usul bilan hisoblang: $(36 + 54) : 6$.
- 811.** Do'konga har birida 8 kg dan 12 yashik nok olib kelindi. Tushlikka qadar 9 yashik nok sotildi. Sotish uchun yana necha kilogramm nok qoldi?
 Bir o'quvchi masalaga bunday ifoda tuzdi: $8 \cdot 12 - 8 \cdot 9$, ikkinchi o'quvchi esa bunday ifoda tuzdi: $8 \cdot (12 - 9)$. Ular qanday fikr yuritganliklarini tushuntiring. Qaysi yechish usuli qulay?
- 812.** $(9 + 21) : 3$ ifoda bo'yicha kastum tikish haqida masala tuzing va uni yeching.

$$813. \quad 80 : 2 : 2 \qquad 80 - 70 : 5 \qquad 900 - 160 \cdot 4$$

$$90 : 3 : 6 \qquad 100 - 90 : 6 \qquad 120 + 400 : 40$$

814. Har bir shaklni to'g'ri to'rtburchak va 2 ta uchbur-chakka ajrating:



815*. Noma'lum son 4 marta orttirildi. Ko'paytmadan 10 ni ayirilganda 70 hosil bo'ldi. Noma'lum sonni toping.

816°. 7 ta bir xil ko'ylakka 42 ta tugma qadaldi. 9 ta shunday ko'ylakka nechta tugma kerak?

$$817°. \quad 98 : 2 + 54 : 3 \qquad 64 : 4 + 160 \qquad 120 : 4 \cdot 9$$

$$\text{🔔} \quad 24 : 2 + 48 : 2 \qquad 32 : 2 - 16 \qquad 360 : 2 : 8$$

818. Bu yil shaharda 48 ta yangi uy qurilishi kerak. Uylar-ning to'rtidan bir qismi Navro'z bayramiga qurib bitkazildi. Navro'z bayramiga nechta uy qurib bit-kazilgan?

$$42 : 14$$

42 ning ichida 14 dan necha marta borligini to-pamiz:

$$14 \cdot 2 = 28 \text{ (2 to'g'ri kelmaydi, kam)}$$

$$14 \cdot 3 = 42. \text{ Demak, } 42 : 14 = 3.$$

Ikki xonali songa bo'lishda bo'linma tanlash usuli bilan topiladi.

819. Misollarni yeching, bo‘linmani 2, 3, 4, 5, 6 sonlari orasidan toping:

$$\begin{array}{cccc} 26 : 13 & 75 : 25 & 92 : 23 & 90 : 15 \\ 42 : 21 & 84 : 14 & 85 : 17 & 68 : 17 \end{array}$$

820. Misollarni yeching va tekshiring:

$$18 \cdot 4 \quad 47 \cdot 2 \quad 72 : 4 \quad 78 : 6$$

821. Tomorqadan 76 kg sabzi, sabzidan 108 kg ortiq karam, sabzi va karam birgalikda qancha bo‘lsa, undan 96 kg ortiq kartoshka yig‘ib olindi. Tomorqadan qancha kartoshka yig‘ib olingan?

822. 0 dan 100 gacha bo‘lgan sonlardan 7 ga; 8 ga; 9 ga qoldiqsiz bo‘linadiganlarini tartib bilan yozib chiqing.

823°. Bir jo‘yakdan 39 ta bodring, ikkinchisidan 53 ta bodring uzishdi. 72 ta bodringni tuzlashdi. Nechta bodring qoldi?

824°. $48 : 24$ $75 : 25$ $30 + 2 \cdot 45 - 115$
 $36 : 18$ $64 : 32$ $50 - 84 : 6 + 300$



825. Ko‘paytirishga doir misollardan ikki xonali songa bo‘lishga doir misol tuzing:

$$37 \cdot 2 = 74 \quad 29 \cdot 3 = 87 \quad 17 \cdot 5 = 85$$

$$99 : 33$$

99 ning ichida 33 tadan nechta borligini topamiz:

$$33 \cdot 2 = 66 \text{ (2 to‘g‘ri kelmaydi, kam)}$$

$$33 \cdot 3 = 99. \text{ Demak, } 99 : 33 = 3.$$

826. $77 : 11$ $88 : 22$ $88 : 44$ $66 : 33$

827. Misollarni yeching va tekshiring:


$$\begin{array}{cccc} 32 \cdot 3 & 66 : 22 & 76 : 19 & 96 : 6 \\ 47 \cdot 2 & 54 : 18 & 7 \cdot 14 & 64 : 4 \end{array}$$

828. Agar muqovachi har kuni 17 tadan kitobni muqovalaydigan bo'lsa, 4 kundan keyin yana 7 ta kitobni muqovalashi qoladi. Muqovachi hammasi bo'lib nechta kitobni muqovalashi kerak?

829. Nabirasi 8 yoshda, bobosi nabirasidan 8 marta katta. Bobosi nabirasidan necha yosh katta?

830°. $(54 + 45) : 11$ $(95 - 11) : 14$ $100 : 25 \cdot 17$
 $(37 + 53) : 15$ $(87 - 27) : 12$ $72 : 24 \cdot 28$

831°. Har qaysi ko'pburchakning tomonlari uzunliklarining yig'indisini toping:



Qo'shimcha mashqlar

1. Misollarni yeching va yechimlarini tekshiring:

$$\begin{array}{cccc} 88 : 22 & 64 : 16 & 68 : 34 & 57 : 19 \\ 92 : 23 & 52 : 26 & 80 : 16 & 72 : 18 \end{array}$$

2. $74 : 74 \cdot 49 \cdot 0$ $(61 - 61) : 75 \cdot 9$
 $3 \cdot 20 : 30 \cdot 10$ $(84 - 83) \cdot 64 : 8$

3. $66 : 33 + 6 \cdot 12$ $3 \cdot 18 - 64 : 4$ $96 : 16 + 9 \cdot 9$
 $91 : 7 - 77 : 11$ $62 : 2 - 36 : 18$ $96 : 4 + 3 \cdot 24$

4. $56 : 14 + 19$ $60 : 12 \cdot 13$ $57 : 19 \cdot 32$
 $68 : 17 \cdot 23$ $90 : 18 \cdot 17$ $92 : 23 \cdot 24$

5. $81 : 9 + 203 - 176$

$64 : 8 + 437 - 209$

$593 + 3 \cdot 7 - 384$

$342 + 6 \cdot 8 - 276$

6. $720 - 91 : 7 \cdot 4$

$633 - 24 : 3 : 2$

$96 : 3 + 488 - 256$

$17 \cdot 4 + 293 - 164$

7. Birinchi son 350, ikkinchi son birinchi sondan 280 ta kam, uchinchi son ikkinchi sondan 3 marta katta.

Ushbu ifodalar nimani bildirishini tushuntiring:

$$350 - 280, \quad 350 + (350 - 280), \quad (350 - 280) \cdot 3$$

8. Ushbu reja bo'yicha masala tuzing:

1) Nechta ko'ylak tikishdi?

2) Nechta kastum tikishdi?

3) Kastumlarga qaraganda nechta ko'ylak ortiq chiqadi?


9. Tabiat muzeyiga o'quvchilar 3 ta avtobusda borishdi. Ikkita avtobusda 26 tadan o'quvchi, uchinchi avtobusda esa 24 ta o'quvchi bor edi. Nechta o'quvchi muzeyga ekskursiyaga borgan?

10. Bufetda tushgacha 5 ta uch litrlik banka sharbat sotildi, tushdan keyin esa 4 ta shunday banka sharbat sotildi. Bufetda bir kunda necha litr sharbat sotilgan?


11. 8 ta bir xil bidonga 40 l kerosin sig'adi. Shunday 9 ta bidonga necha litr kerosin sig'adi?

12. Har bir kesma necha bo'lakka bo'lingan?


Har bir kesmaning qanday qismi olingan?



13. Ko‘z bilan chamalab, teng yuzga ega bo‘lgan shakllarni aytib bering:



14. Bu shakllarda qanday umumiylik bor? 3- shakl boshqalaridan nimasi bilan farq qiladi?



15. O‘quvchi maktabga ertalab soat 8 da keldi, maktabdan esa kunduzi soat 12 da ketdi. O‘quvchi maktabda necha soat bo‘lgan?

Qoldiqli bo‘lish

832. Bolada 110 so‘m bor edi. U 40 so‘mdan ikkita avtobus chiptasini sotib oldi. Bolada qancha pul qoldi?

833. Shirinkulcha 30 so‘m turadi. 100 so‘mga nechta shunday kulcha sotib olish mumkin?

- 1) 20 dan 30 gacha bo‘lgan sonlardan qaysilari 3 ga; 4 ga; 5 ga; 6 ga qoldiqsiz bo‘linadi?
- 2) 30 dan 40 gacha bo‘lgan sonlarning qaysilari 4 ga; 5 ga; 6 ga; 7 ga qoldiqsiz bo‘linadi?

3)



Har qaysi ko‘ylakka 6 tadan tugma qadaldi. Tikuvchining 25 ta tugmasi qoldi. Shu tugmalar nechta ko‘ylakka yetadi va nechta ortib qoladi? Masalani yechish uchun 25 ning ichida 6 tadan necha marta borligini bilish kerak. 6 tadan 4 marta chiqadi va 1 ta tugma ortib qoladi. Masalaning yechilishi bunday yoziladi:

$$25 : 6 = 4 \text{ (1 qold.)}$$

Bu yerda 25 — bo‘linuvchi, 6 — bo‘luvchi, 4 — bo‘linma, 1 — qoldiq. Yozuv bunday o‘qiladi: „25 ni 6 ga bo‘lsak, 4 chiqadi va 1 qoldiq qoladi“ yoki „Bo‘linuvchi — 25, bo‘luvchi — 6, bo‘linma — 4, qoldiq — 1“.

834. Kastunga 3 m material ketadi. Bir to‘pda 13 m material bor. Shu materialdan nechta kastum chiqadi?

Bir o‘quvchi masalani bunday yechdi: $13 : 3 = 4$ (1 qold.), ikkinchi o‘quvchi esa bunday yechdi:

$$13 : 3 = 3 \text{ (4 qold.)}$$

Qaysi o‘quvchi masalani to‘g‘ri yechgan?

835. Rasmdan foydalanib, qoldikli bo‘lishni bajaring:

—●●●●●●●●●●●●●●●●●●— $17 : 3 = ?$

—●●●●●●●●●●●●●●●●●●— $15 : 6 = ?$

836. Katta bidonda 28 l sut bor, ikkita bir xil kichik bidonda esa 8 l sut bor. Katta bidondagi sut kichik bidondagi sutdan necha marta ko'p?

837. 3 ta daftar 210 so'm, 1 ta kitob 190 so'm turadi. 1 ta kitob qimmatmi yoki 1 ta daftar qimmatmi?

838°. $c = 24$, $c = 6$, $c = 12$ da $72 : c$ ifodaning qiymatini toping.

839°. $76 - 96 : 8$ $51 : 3 \cdot 4$ $(75 - 33) : 3$

$84 : 21 + 96$ $100 - 6 \cdot 13$ $(82 - 16) : 33$




$86 : 2 + 57$ $16 \cdot 4 : 32$ $(96 - 19) : 7$

1) Rasmdan foydalanib, bo'linma va qoldiqni toping:

 $7 : 2$

 $12 : 2$

 $9 : 2$

2) Bo'lishni, rasmlar chizib, bajaring:

$8 : 4$ $9 : 4$ $10 : 4$ $11 : 4$ $12 : 4$

3) Sonni 2 ga bo'lganda; sonni 3 ga bo'lganda qanday qoldiq qoladi?

4) Nima uchun sonni 3 ga bo'lganda qoldiq 4 ga; 5 ga teng bo'lishi mumkin emasligini, sonni 2 ga bo'lganda qoldiq faqat 0 yoki 1 bo'lishi mumkinligini tushuntiring.

Bo'lganda qoldiq bo'luvchidan doim kichik bo'lishi kerak.

- 840.** 1) O'quvchi 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16 sonlaridan har qaysisining ostiga 2 ga; 3 ga; 4 ga bo'lishdan chiqqan qoldiqlarni yozdi. O'quvchi jadvalni to'g'ri to'ldirganini doirachalar (cho'plar) dan foydalanib tekshiring:

	10	11	12	13	14	15	16
: 2	0	1	0	1	0	1	0
: 3	1	2	0	1	2	0	1
: 4	2	3	0	1	2	3	0

2) Sonni 2 ga; 3 ga; 4 ga bo'lganda eng katta qoldiq nechaga teng bo'ladi?

- 841.** Tohir tayoqchanning uzunligini 35 sm li chizg'ich bilan o'lchadi. Chizg'ich tayoqchanning bo'yiga 2 marta joylashdi, tayoqchanning bundan ortib qolgan qismi 15 sm ga teng bo'ldi. Tayoqchanning uzunligi qancha?

- 842.** Qo'zichoqning massasi 7 kg, qo'yning massasi esa undan 14 kg og'ir. Qo'zichoqning massasi qo'yning massasidan necha marta yengil?

843. $55 : (90 : 18)$ $7 \cdot 8 - 6 \cdot 8$ $13 \cdot 6 \cdot 0$
 $42 : (72 : 24)$ $42 : 7 + 9 \cdot 4$ $58 \cdot 0 : 7$

844. $148 + 697$ $840 - 163$ $327 + 594$
 $547 + 173$ $625 - 486$ $683 + 267$

- 845°.** Masalani ikki usul bilan yeching.

Bolalar bog'chasi uchun 7 ta qo'g'irchoq va 8 ta ayiqcha sotib olindi. Keyin yana 6 ta qo'g'irchoq sotib olindi. Hammasi bo'lib nechta o'yinchoq sotib olingan?

$$846^\circ. \quad 94 : 47 \qquad 230 + 3 \cdot 4 \qquad 280 + 640 - 256$$



$$77 : 11$$

$$800 - 25 : 5$$

$$750 - 320 - 200$$

847. Sonni 4 ga; 6 ga; 9 ga bo'lganda qoldiq nechaga teng bo'lishi mumkin?

$$\underline{47 : 7 = \square}$$

Tushuntirish: 47 soni 7 ga qoldiqsiz bo'linmaydi. 47 gacha bo'lgan sonlar ichida qanday eng katta son 7 ga bo'linishini eslaymiz. Bu 42 soni.

Bo'linmani topamiz: $42 : 7 = 6$.

Qoldiqni topamiz: $47 - 42 = 5$; $5 < 7$.

$47 : 7 = 6$ (5 qold.)

848. Shunday fikr yuritib, qoldikli bo'lishni bajaring:

$$13 : 4$$

$$19 : 5$$

$$23 : 6$$

$$32 : 7$$

$$41 : 8$$

849. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'ying:

$$40 : 9 = \square \text{ (4 qold.)}$$

$$71 : 9 = 7 \text{ (}\square \text{ qold.)}$$

$$57 : 8 = 7 \text{ (}\square \text{ qold.)}$$

$$54 : 5 = \square \text{ (4 qold.)}$$

850. Otga bir kunda beriladigan tuz miqdori 32 g, sigirga undan 2 marta ortiq, qo'yga esa ot va sigirga birgalikda qancha tuz berilishi kerak bo'lsa, shundan 8 marta kam tuz berish kerak. Qo'yning bir kunlik iste'mol qiladigan tuz miqdorini toping.

851. To'g'ri to'rtburchakning perimetri 22 sm. Uning eni 4 sm. To'g'ri to'rtburchakning bo'yini toping.

852. Tekshirish bilan yeching: $68 : 2$, $78 : 6$

$$853^\circ. \quad 3 \cdot 33 - 32 : 8$$

$$36 : 6 \cdot 9$$

$$88 : 1$$

$$2 \cdot 29 + 72 : 24$$

$$27 : 3 \cdot 6$$

$$0 \cdot 98$$

854°. Agar $a = 4$, $a = 6$, $a = 8$ bo'lsa, $48 : a$ ifodaning qiymatini toping.



855. Masalalarni yeching:

1) Bir kitob 64 betli, ikkinchisi 27 betli. Bu ikki kitobda necha bet bor?

2) Bir kitob 64 betli, ikkinchisi 27 bet ortiq. Ikkinchi kitob necha betli?

3) Bir kitob 64 betli. Bu ikkinchisidan 27 bet kam. Ikkinchi kitob necha betli?

Masalalar nimasi bilan o'xshash, nimasi bilan farq qiladi?

$$32 : 9 = \square$$

Agar 32 gacha bo'lgan sonlar ichida 9 ga bo'linadigan eng katta sonni eslash qiyin bo'lsa, u holda bo'linmani tanlov usulida topish mumkin.

Tushuntirish: 32 ni 9 ga bo'lish kerak. Bo'linma 2 deb sinab ko'ramiz.

Tekshiramiz: $9 \cdot 2 = 18$; Qoldiqni topamiz va uni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz: $32 - 18 = 14$; $14 > 9$; demak, 2 – kam. Bo'linma 3 deb, sinab ko'ramiz.

Tekshiramiz: $9 \cdot 3 = 27$; qoldiqni topamiz va uni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz: $32 - 27 = 5$, $5 < 9$; demak, 5 – qoldiq.

$$32 : 9 = 3 \text{ (5 qold.)}$$

856. Qoldikli bo'lishni ko'paytirish jadvalidan foydalanib toping:

$21 : 4$

$32 : 6$

$66 : 9$

$50 : 8$

$59 : 6$

857. Hisoblashlarni bajaring va tekshiring:

$$78 : 26 \quad 96 : 6 \quad 76 : 4 \quad 99 : 11$$

858. Bolalar qushlarga uyalar yasash uchun 37 ta taxtacha tayyorlashdi. Agar har qaysi uyaga 5 tadan taxtacha ketsa, tayyorlangan taxtachalardan nechta uya yasash mumkin? Nechta taxtacha ortib qoladi?

$$\begin{array}{llll} \mathbf{859.} & 52 : 26 + 42 : 3 & (56 + 21) : 1 & 7 \cdot (78 - 69) \\ & 16 \cdot 6 : 3 - 30 & (86 - 72) \cdot 5 & 6 \cdot (91 - 80) \\ & 68 : 17 \cdot 3 + 80 & 100 - 9 : 9 + 0 & 71 - 25 : 5 \end{array}$$

860°. Sinfda 14 ta qiz va 10 ta og'il bola bor. Sinfni har birida 6 tadan o'quvchi bo'lgan guruhlariga bo'lishdi. Sinfni nechta guruhga bo'lishgan?

$$\begin{array}{llll} \mathbf{861°.} & 45 : 9 & 80 : 16 & 2 \cdot 39 & 63 : 9 + 3 \cdot 9 \\ & \img alt="bell icon" data-bbox="115 455 155 485"/> 32 : 4 & 46 : 23 & 57 : 19 & 240 : 3 + 270 \end{array}$$

862. Aerodromda 20 ta samolyot bor edi. Uchtadan uchganda hammasi bo'lib nechta samolyot havoga ko'tarilishi mumkin? Aerodromda nechta samolyot qoladi?

863. Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{llllll} 6 \cdot 4 & 6 \cdot 4 + 2 & 6 \cdot 4 + 3 & 28 : 7 & 32 : 8 \\ 24 : 6 & 26 : 2 - 9 & 24 : 6 + 8 & 63 : 7 & 34 : 2 \end{array}$$

864. Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$47 : 7 \quad 54 : 8 \quad 20 : 6 \quad 29 : 3$$

865. 17 m lentadan 4 ta bir xil bo'lak lenta kesib olishdi, shundan keyin yana 5 m lenta qoldi. Kesib olingan har qaysi bo'lakning uzunligi qancha?

$$\begin{array}{llll} \mathbf{866.} & 28 : 7 \cdot 9 & 3 \cdot 26 - 27 : 9 & (86 - 50) : 4 \\ & 40 : 8 \cdot 6 & 2 \cdot 38 + 69 : 23 & (28 + 32) : 6 \end{array}$$

867°. $\begin{matrix} < \\ = \\ > \end{matrix}$ $6 \text{ m } 7 \text{ dm} \dots 7 \text{ m } 6 \text{ dm}$
 $5 \text{ dm } 9 \text{ sm} \dots 6 \text{ dm}$

868°. $37 + 68 - 16$ $72 - 6 \cdot 9$ $85 : 17$
 $65 - 32 - 20$ $34 + 4 \cdot 7$ $72 : 36$



869. 30 sonini hosil qilish uchun qanday ikkita bir xonali sonni ko'paytirish kerak? 48 sonini hosil qilish uchun-chi? 49 sonini hosil qilish uchun-chi? 63 sonini hosil qilish uchun-chi?


870. 1) Har bir sonning uchdan birini toping: 15, 21, 30, 42, 51, 60.

2) Bir soatning oltidan bir qismi necha minut bo'ladi? To'rttdan bir qismi-chi? Uchdan bir qismi-chi? O'ndan bir qismi-chi? Beshdan bir qismi-chi?

871. Ko'paytirish jadvalidan foydalanib, bo'lishni bajaring:

$25 : 6$ $33 : 6$ $41 : 6$ $43 : 6$ $45 : 6$
 $26 : 6$ $35 : 6$ $42 : 6$ $44 : 6$ $46 : 6$

872. Rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib, masala tuzing va uni yeching:



400 so'm



900 so'm

873. Birinchi mashinaga sabzavotli 14 ta yashik, ikkinchisiga 8 ta ortiq yashik ortildi. Agar har qaysi mashina 2 martadan qatnagan bo'lsa, nechta yashik yuk olib kelingan?

874°. Misollarni yeching va tekshiring:

$$72 - 47 \quad 95 : 19 \quad 47 + 38 \quad 32 \cdot 3$$

875°. Shifokor bemorga bir kunda 2 marta 2 tabletkadan ichish uchun darmondori yozib berdi. Qutichada 50 ta tabletk bor. Darmondorilar bemorga necha kunga yetadi? Necha tabletk qoladi?



876. 40 ta rangli qalamni har birida 6 tadan qilib qutilarga solish kerak. Necha quti kerak bo'ladi? Necha qalam qoladi?

877. 1) 3 ga bo'lganda qoldiqda 2 qoladigan bir nechta sonni ayting.

2) 4 ga bo'lganda qoldiqda 1, 2, 3, 0 qoladigan bir nechta sonni ayting.

3) 5 ga bo'lganda qoldiqda 3 qoldiq qoladigan bir nechta sonni ayting.

878. 6 ta ro'molcha va 3 juft paypoq sotib olishdi. Ro'molchalarga qancha to'langan bo'lsa, paypoqlarga ham shuncha to'landi. Agar ro'molchanning bahosi 50 so'm bo'lsa, paypoqning bahosini toping.

879. Birining uzunligi 10 sm, ikkinchisining uzunligi birinchisining uzunligidan 2 marta qisqa, uchinchisining uzunligi ikkinchisidan 4 sm uzun bo'lgan uchta kesma chizing.

880. $a : 4, 7 \cdot b$ ifodalarning qiymatlarini toping:

a	40	36	32	28	24
b	4	5	6	7	8

881°. Sigir bir haftada 36 kg, echki esa undan 4 marta kam pichan yeydi. Sigir bilan echki bir haftada birgalikda qancha pichan yeydi?

$$882^\circ. \begin{array}{lll} 60 : 4 + 38 & (37 + 18) : 11 & 2 \cdot 27 : 9 \\ 70 - 34 : 2 & (63 + 24) : 29 & 3 \cdot 16 : 8 \end{array}$$



883. Bir to'p matodan har biriga 2 m dan sarflab 32 ta bolalar ko'ylagi tikish mumkin. Agar kattalar plashi uchun 4 m dan mato ketadigan bo'lsa, shu matodan nechta kattalar ko'ylagi tikish mumkin?

884. Birinchi son 68, ikkinchi son esa undan 4 marta kichik. Shu sonlarning yig'indisi nimaga teng, ayirmasi nimaga teng?

885. Qoldiq har doim bo'luvchidan kichik bo'lishini eslagan holda qoldikli bo'lishni bajaring:

$$54 : 7 \quad 31 : 4 \quad 61 : 9 \quad 53 : 6 \quad 75 : 8$$

886. 3 ga bo'lganda qoldiqda 0; 1; 2 qoladigan sonni yozing.

887. Misollarni ustun qilib yozing va tekshirish bilan yeching:

$$\begin{array}{lll} 56 + 180 & 865 - 349 & 38 + 274 \\ 326 + 475 & 248 - 76 & 276 + 348 \end{array}$$

888°. Tekshirish bilan yeching:

$$76 : 19 \quad 84 : 7 \quad 69 : 3$$

889°. $4 \cdot 17 - 3 \cdot 21$ $88 : (74 - 52)$ $56 : 7 \cdot 3$



$$8 \cdot 11 - 0 \cdot 13 \quad 91 : (61 - 48) \quad 72 : 8 \cdot 1$$

Qo'shimcha mashqlar

1. 10 ta bir xil cho'pdan nechta alohida kvadrat (uchburchak) yasash mumkin?

2. Qoldikli bo'linadigan misollarnigina yeching:

$$\begin{array}{lllll} 32 : 8 & 40 : 5 & 23 : 7 & 25 : 4 & 16 : 4 \\ 36 : 6 & 40 : 6 & 21 : 7 & 30 : 4 & 16 : 6 \end{array}$$

3. 7 ga bo'lganda qoldiqda 4; 6; 7 sonlari qoladimi?

4. „Har savolning o'z javobi“ o'yini.



1) 2 ta daftar qancha turadi? 3 ta qalam-chi?

2) Qalam daftardan necha so'm qimmat?

3) 3 ta daftar bitta qalamdan necha marta qimmat?

5. Kesmaning uchdan bir qismi 4 sm ga teng. Shu kesmani chizing. Kesmaning uzunligini detsimetr va santimetrlarda ifodalang.

6. 1) Misollar to'g'ri yechilganmi?

$$7 : 6 = 1 \text{ (qold.)}$$

$$14 : 6 = 2 \text{ (2 qold.)}$$

$$21 : 6 = 3 \text{ (3 qold.)}$$

2) Bu misollar nimasi bilan qiziq? Shu qonun bo'yicha yana 2 ta misol tuzing va yeching.

7.

38	67	84	8	9
21	22	17	3	2
24	40	76	5	8
18	39	29	6	3
21	36	70	4	5

1) 1- yoki 2- ustun sonlarini 4- ustun sonlariga (qoldikli yoki qoldiqsiz) bo'ling.

2) 2- yoki 3- ustun sonlarini 5- ustun sonlariga (qoldikli yoki qoldiqsiz) bo'ling.

8. Ikki ustunning har biriga 6 tadan misol yozilgan. Agar shu misollarni har bir ustunga 4 tadan qilib yozilsa, necha ustun misol hosil bo'ladi?

9. Ifodalarni yozib oling va ularning qiymatlarini hisoblang:

53 va 16 sonlari yig'indisini 3 marta kamaytiring.

28 va 17 sonlari ayirmasini 34 ta orttiring.

65 va 5 sonlari bo'linmasini 4 ta orttiring.

27 va 3 sonlari ko'paytmasini 9 marta kamaytiring.

10. Bir bolaning 12 ta 5 so'mlik chaqasi bor edi. U shu puliga 4 so'mlik narsadan nechtasini sotib olishi mumkin?

11.

a	9	19		
b	7		6	1
$a \cdot b$		19	54	63

c	56		72	
d		4	6	45
$c : d$	14	14		0

12. Misollarning yechilishini tekshiring:

$14 \cdot \square = 70$

$12 \cdot \square = 24$

$77 : \square = 7$

YOZMA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

Bir xonali songa ko'paytirish

890. $(54 + 36) : 3$ $(29 - 9) \cdot 4$ $(74 - 69) \cdot 20$
 $(98 - 18) : 4$ $(62 - 2) : 2$ $(81 - 79) \cdot 50$

1) Yechishni tushuntiring:

$34 \cdot 2 = (30 + 4) \cdot 2 = 30 \cdot 2 + 4 \cdot 2 = 60 + 8 = 68$

$234 \cdot 2 = (200 + 30 + 4) \cdot 2 =$

$= 200 \cdot 2 + 30 \cdot 2 + 4 \cdot 2 = 400 + 60 + 8 = 468$

2)

	Yuzliklar	O'nliklar	Birliklar
\times	2	3	4
			2
	4	6	8

Misolni ustun qilib yozish qulay.

Bunday tushuntiring:

Yozaman: ...


Birliklarni ko'paytiram:

$$4 \text{ birlik} \cdot 2 = 8 \text{ birlik}$$

8 birlikni birliklar tagiga yozaman.

O'nliklarni ko'paytiram:

3 o'nlik \cdot 2 = 6 o'nlik. 6 o'nlikni o'nliklar tagiga yozaman. Tushuntirishni davom ettiring.



- 891.** Misollarni ustun qilib yozing va ko'paytirishni tushuntirish bilan bajaring:

$$423 \cdot 2$$


$$132 \cdot 3$$

$$212 \cdot 4$$

Oldin birliklar, keyin o'nliklar, oxirida yuzliklar ko'paytiriladi.

- 892.** Mebel ustaxonasida har kuni 12 tadan 60 ta divan yasashdi. Shuncha vaqt ichida ikkinchi ustaxona bir kunda 20 tadan nechta divan yasaydi?

- 893.** Rasmni qarab chiqing. Doiraning radiusi nimaga tengligini o'lchang va yozing. A va B nuqtalar orasidagi masofa qancha? Nuqtalardan qaysilari doira ichida; doiradan tashqarida; aylanada yotibdi. Ularni ayting.



- 894.** Radiusi 2 sm 5 mm ga teng bo'lgan, markazi daftar chiziqlarining kesishgan nuqtasida bo'lgan aylana chizing. Uni 4 ta teng qismga bo'ling. Bir qismini bo'yang.

895°. Kesmani o'lchang. Bu kesmadan 2 marta uzun bo'lgan kesma yasang:







896°. $487 - 349$ $54 : 9 \cdot 7$ $43 + 40 : 8$




$630 - 472$ $6 \cdot 7 : 2$ $37 - 24 : 3$

897. Tasmaning qanday qismi bo'yalgan?



898. Tasma uzunligini o'lchang va uning to'rtidan bir qismini hisoblang.



1) 4 o'nlikni 9 ga ko'paytiring va topilgan ko'paytmaga 1 o'nlikni qo'shing; 8 o'nlikni 3 ga ko'paytiring va topilgan ko'paytmaga 2 o'nlikni qo'shing.

2) Yozuvni qarang va yechimni tushuntiring:

Bunday tushuntiring:

Yozaman: ...

Birliklarni ko'paytiraman:

$6 \text{ birlik} \cdot 3 = 18 \text{ birlik} = 1 \text{ o'nlik} \ 8 \text{ birlik}$

8 birlikni birliklar ostiga yozaman, 1 o'nlilikni esa yodlab qolaman va o'nliklarni ko'paytirgandan keyin o'nliklarga qo'shaman.

O'nliklarni ko'paytiraman:

$$2 \text{ o'nlik} \cdot 3 = 6 \text{ o'nlik}$$

Birliklarni ko'paytirishda hosil bo'lgan 1 o'nlikni qo'shaman: $6 \text{ o'nlik} + 1 \text{ o'nlik} = 7 \text{ o'nlik}$. 7 ni o'nliklar ostiga yozaman.

Javobni o'qiyman: ko'paytma 78 ga teng.


3) Ikkinchi misolning yechilishini tushuntiring.

